

ADABIYOT

# XRESTOMATIYASI

Lutfiy  
**SENSAN SEVARIM**


Alisher Navoiy  
**QARO KO'ZUM**

Usmon Nosir  
**YURAK, SENSAN  
MENING SOZIM**

G'afur G'ulom  
**UMRIMIZ BOQIY**

Nodira  
**MUHABBAT  
IXTIYOR ET**

27 jild



# ADABIYOT XRESTOMATIYASI

Lutfiy  
**SENSAN SEVARIM**

Alisher Navoiy  
**QARO KO'ZUM**

Nodira  
**MUHABBAT IXTIYOR ET**

G‘afur G‘ulom  
**UMRIMIZ BOQIY**

Usmon Nosir  
**YURAK, SENSAN MENING SOZIM**



ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOPSHORI  
AXBOROT-RESURS MARKAZI  
27 jild

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2018

UO'K 821.512.133-1

KBK 84(50')

M 86

### Lutfiy

Sensan sevarim. J: 27 / Lutfiy; Qaro ko'zum / Navoiy;  
Muhabbat ixtiyor et/Nodira: Ummiz boqiy/G'. G'ulom; Yurak. sen-  
san mening sozim /U.Nosir. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 252 b. – (Adabiyot xrestoma-  
tiyasi)

Ushbu kitobdan mumtoz va zamонавиј адабиётимизнинг атоқли  
шоирлари Lutfiy, Navoiy, Nodira, G'afur G'ulom va Usmon Nosirlarning  
теран ма'ноли, го'зал ше'r-u g'азаллари о'рин олган. Ушбу ше'rлар Siznung  
ко'nglingиздан chuqur joy egallaydi.

UO'K 821.512.133-1

KBK 84(50')

© G'afur G'ulom nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyi, 2018

ISBN 978-9943-5209-8-1

RAHMANI

1997



## LUTFIY

## G‘AZALLAR

\* \* \*

Ey ikki jahon birliging isbotig‘a go‘yo,  
Zarroti jahon mazharida kun kibi paydo.

Ham avval-u oxir sen-u ham zohir-u botin,  
Ham mubdi‘i ashyosen-u, ham hayyi tavono.

Bosh birla muallaq turur amringni eshitib,  
Ko‘kning taboqotikim erur xirqasi xazro.

Bahr-u bar erur g‘arqi ne‘mating oning uchun,  
Daryog‘a tegar mavj tun-u xorg‘a xoro.

Anvo‘i mazohirkim erur husningga mir’ot,  
Ismedur-u yo‘q sensiz anga hech musammo.

Husn elining og‘zidan tushmaydur otingkim,  
Har zarra erur vahdatingiz izhoriga go‘yo.

Ahmad dam la uhsi urar chun sifatingda,  
Ne haddi bila Lutfiy sano aylasun insho.

\* \* \*

Oy yuzung olida xijil husn eli Rum-u Chin aro,  
Valvala soldi ko'zlarine kofir-u ahli din aro...

Chun meni o'lturur bukun ul rux-u oraz orzusi,  
Ravzada tobqamen o'run lol-au yosumin aro.

Yangi ekanda ko'rmadi hech kim oy tutulg'onin,  
Chin ne uchun tutar qoshing, yo rab, o'shal jabin aro.

Zulfung ila chu nofadin urdi dam ohui Xo'tan,  
G'amzang otimchisi o'qi nofani o'ydi Chin aro.

Aql dediki "zarraye mehr yo'q anda og'zitek",  
Qildi tabassum o'ylakim, tushdi gumon yaqin aro.

Qilma havola hajr ila Lutfiyni o'lturur uchun,  
Tez qilichni elga ol, tutmog'il oni qin aro.

\* \* \*

Ey pari yuzluk begin, jonlar fido bo‘lsun sanga,  
Dunyoda husn oti bor erkan, baqo bo‘lsun sanga.

Haddi mahluqotdindur nori ul husn-u jamol,  
Ulki yo‘qtur rahm erur, bu ham ato bo‘lsun sanga.

Iymanib hosid tilindin dast bermas chun salom,  
Ko‘z uchi birla yiroqtin marhabo bo‘lsun sanga.

Chun vafosizlarga bermishlar azalda ko‘rkni,  
Bu kamoli husn ila qaydin vafo bo‘lsun sanga.

Bir qiyo boqsang zakoti husn uchun, ey ko‘rka boy,  
Lutfiyi miskindin o‘lguncha duo bo‘lsun sanga.

\* \* \*

Qachonki g'amzasi ko'z qonima, qaro qilsa,  
Xatosiz o'qni urar jonima, xato qilsa.

Jafo ko'rub, oning uchun chiqar mening jonim,  
Meni xud o'lturur ul g'amza, gar vafo qilsa.

Ko'ngulsiz etti ko'zi, vah, ne bo'ldi, tengri uchun,  
Dudog'idin meni bir suv urub davo qilsa?

Yuziga sochdin o'gun tegmasun parishonlig',  
Ko'ngulni ul tun-u kun necha mubtalo qilsa.

Shakardek og'zi manga qubla omad xufya,  
Nedur so'zi oni, shirin kerak ado qilsa.

Qachon xirom etsa gulgun qabo kiyib ul sarv,  
Tilar bu g'uncha ko'ngul kurtani qabo qilsa.

Qayu inoyatig'a Lutfiy uzr qo'l sunkim,  
So'kunji uhdasidin chiqmag'ay duo qilsa.

\* \* \*

Ul oyki fitna bo'ldi ko'ngul qosh-u ko'ziga,  
Jon berdim-u yovutmadi mehrimni o'ziga.

Parvona ishi mendin erur yaxshiroqkim,  
O'rtansa bori ul qovushur dilmuro'ziga.

Guldek kular chiroyina bir kun yo'luqmadim,  
Oylarda ham bir uchramadim yaxshi ko'ziga.

Mahsharda g'olibokim, ukun ko'rmag'ay azob,  
Ulkim, yo'liqsa hajr o'tining dog'-u so'ziga.

Tutqay jahonni Lutfiy so'zi husni jovidek,  
Gar iltifot qilsa bu bechora so'ziga.

\* \* \*

Jamol-u husningga So'z yo'q, vafo kerak bo'lsa,  
Meni xud o'l turatursan, ravo kerak bo'lsa.

Ko'ngul chu bilmayin o'z haddini seni sevdi,  
Balo-u g'ussa bila mubtalo kerak bo'lsa.

Jafoni jonima oz qilki, nogahon bir kun  
Jafo tugansa netarsen, jafo kerak bo'lsa?

Ko'ngulni o'zgaga bergil, demangki mushkildur,  
Jahonda siz kibi bir dilrabo kerak bo'lsa.

Kishikim o'z jonig'a qasd etar, seni sevsun,  
Dag'i eshikinga kelsun, balo kerak bo'lsa.

Jamol-u joh elidin yuz farog'atim bordur,  
O'ramung iti menga oshno kerak bo'lsa.

O'qu bu Lutfiy mungluq niyoznomasini,  
Savob-u alqish-u yuz ming duo kerak bo'lsa.

\* \* \*

Suratingni kimki ko‘rdi, qildi jono, jon fido,  
Syratingga xud qilur olib farishta iqtido.

Nechakim zulfungda bor kufr-u zalolat zulmati,  
Ravshan ul oydek yuzungda bordur ul nuri xudo.

Intiho yo‘qmu desam husnungga, aytur ko‘zlarin:  
“Qaydasan, men xud baloni qildim emdi ibtido”.

Sehr ishin Kashmir eli g‘amzangdin o‘rgansa kerak  
Kim, jahon ichra bo‘lubtur ul bu fanda muqtado.

To deding la’ling zakoti men faqirg‘a bo‘lsa sarf,  
Shukrining emdi oni shirin kerak qilsam ado.

Sensizin qilmay tahammul nola qilsam qilma ayb,  
Gar bu yuk yuklansa toqqa, kelgay ondin yuz sado.

Itlaringning mansabin Lutfiyg‘a ta’yin aylakim,  
Davlatingda qilsa sultonlig‘ ne bo‘lg‘ay bir gado?

\* \* \*

Ey azaldin jonima zulfung qazo bo‘lg‘on balo,  
Qosh-u ko‘zung bir-birining ustina kelg‘on balo.

Chun kamand otsa sochindin qaydakim bo‘lsam yetar,  
Qochsa bo‘lmaskim muqaddar etsa chun yazdon balo.

Ko‘nglum olg‘on zulfi har soat oyog‘ingg‘a tushar,  
G‘ofil o‘lmakim, oyoq ostindadur, ey jon, balo.

Uyquchi baxtim qaro chinini doim tush ko‘rar,  
Vahki, ta’bir ichra bordur tushta soch ko‘rgon balo,

Zulfungiz yuz halqa, har bir halqada ming domi g‘am,  
Oshkoro fitnadur, lekin qilur pinhon balo.

Lutfiyg‘a bo‘ldi balo ul sochi anbar furqati,  
Ore-orekim, erur oshiqlara hijron balo.

\* \* \*

Ne balo husn-u malohat berdi subhon yuziga,  
Kim erur ins-u malak jon birla hayron yuziga.

Xalqa dargo'sh o'ldi-yu yuzun tutar ul rux sari,  
Go'yiyo oshiq bo'lubtur durri g'alton yuziga.

Ul pari yuzun ko'rub, jon hazor ixlos ila  
Peshkash qildim, ko'ngul qo'ydum ul jon yuziga.

Yuz xatosiz qonini gar to'ksa ko'zi hashrda,  
Hech kim ersa kelmagay ul nomusulmon yuziga.

Lutfiy gar oshiq bo'lub qildi fido jon, ne ajab,  
Ko'rsa gar kofir ani kelturgay imon yuziga.

\* \* \*

Yuzungning orzusi-yu turrang intizori bila,  
Boshim oqordi, vale ko‘nglum ul qarori bila,

Mudom suv tilagondek biaynihi maxmur,  
Qonimg‘a tashna bo‘lubsan ko‘zing xumori bila.

Jamol mulkiga sen podshoh bo‘lg‘ali, gul  
Tikan tashib kechurur kun hazor xori bila.

Eshiking itidin ayrilg‘onimni tut ma’zur,  
Hamisha kimni falak qo‘ydi e’tibori bila.

Malomat ahlidin, ey porso, hazar qilako‘r  
Ki, husn aqlni qo‘ymas o‘z ixtiyori bila.

Chu vasl ravzasidin ko‘rmadim gule hargiz,  
Necha tutar meni bulbulning oh-u zori bila.

Ko‘ngulni olma yangoqingdin uzmadi oshiq,  
Agarchi topmadi behbud hajr nori bila.

Agarchi umr asosini buzdi seli firoq,  
Ko‘ngul turubtur o‘shul ahdi ustuvori bila.

Visol va’dasi ermas vafo uchun bildim,  
Kerakki Lutfiyni o‘ltursa intizori bila.

\* \* \*

Qo‘rqarki, rahmi kelsa ko‘zum tungi yoshina,  
Yoshtek so‘rar meni borur o‘lsam chu qoshina.

Tosh ichra siym muzmar erur, yo‘qki tosha siym  
Hayratta qolmisham men aning ich-u toshina.

Ko‘nglumga o‘t tutashdi, bo‘yla bordi obro‘y,  
Tuproq kelsun ushbu ko‘ngulning boshina.

Halvom uchun dudog‘i firoqinda, ey raqib,  
Oshiqmag‘il, sabr kerak kishi oshina.

Ul jodularki bog‘lar oqar suvni sehr ila,  
Hayron durur bu Lutfiy gado ko‘zi yoshina.

\* \* \*

Qani bu shakl-u shamoyil falakning oyinda?  
Dag‘i bu husn-u malohat gunash chiroyinda?

Kim oy ko‘rdi seningdek boshida mushkin toj,  
Va yoki sarv qadingdek qrim to‘moyinda?

Ulus ichinda durur o‘zbegin qiyo ko‘zluk,  
Xayoli to‘qtamish ondin ko‘ngul saroyinda.

Sening qadingg‘a bichilmish turur jafo to‘ni,  
Seni zamona musallam tutar bu oyinda.

Yuzung sifotini go‘yandadin samo’ etsa,  
Kishi turubmu bo‘lur elning oh-u voyinda?

Eshiking itlari ko‘p Lutfiydin qilar faryod,  
Kim uyqu bo‘ldi harom oning ushbu joyinda.

\* \* \*

Yoz bo‘ldi, kerak ul buti ayyor topilsa,  
Barcha topilur, bizga kerak yor topilsa.

Gul davrida ich bodanikim, oqil emastur  
Har kimki bukun dunyoda hushyor topilsa.

Men kezguchi qulnung tururin siz ne so‘rarsiz?  
Istang meni ul yerdaki, dildor topilsa.

Savdoyi bo‘lubmen, chu ko‘ngul zulfina berdim,  
Savdo bo‘lur ondoki xaridor topilsa.

Javrungni meni xastag‘a qil, o‘zgaga qilma,  
Marhamni yoq ul yergaki, afgor topilsa.

Haqdin, ey ko‘ngul, o‘zga nima qilma tamanno,  
Sen xastag‘a ul yerdaki, diydor topilsa.

Lutfiyni agar noz ila o‘ltursa ajab yo‘q,  
Dilbar ko‘p etar noz havodor topilsa.

\* \* \*

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,  
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.

Hijron kechasi charxi falakka yetar, ey moh,  
Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma.


Haqqoki, qilich kelsa boshimg‘a, eshikingdin  
Yo‘qtur guzarim, xoh inon, xoh inonma.

Usruk ko‘zing ashkolina har gah nazar etsam,  
Qolmas xabarim, xoh inon, xoh inonma.

Ya’qub bikin ko‘p yig‘idin qolmadi sensiz  
Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma.

Oy yuzunga ko‘z solg‘ali o‘zga kishi birla  
Yo‘qtur nazarim, xoh inon, xoh inonma.

Ishq o‘tida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi,  
Ey siymbirim, xoh inon, xoh inonma.



\* \* \*

Davlati vasl iltimosi ne hikoyatdur manga,  
Ulki, yoding birla jon bersam kifoyatdur manga.

Kechalar zulf-u uzoring vasfida fikr aylasam,  
Har qorong'u tunda yuz sham'i hidoyatdur manga.

Javrung ortar har dam-u shoyista xizmat menda yo'q.  
Ne sababtin, yo rab, ush muncha inoyatdur manga.

Chun xayoling kelsa, ko'z yoshi nazar yo'lin tutar,  
Axtari sayyoradin ushbu shikoyatdur manga.

Og'zingizdur sirri g'ayb-u andin etsam nuqtaye,  
Haddi idrok ermas, izhori valoyatdur manga.

Har nima bo'lsa anga bordur nihoyat oqibat,  
Noz-u bedoding dururkim, benihoyatdur manga.

Lutfiyning nazmi duriga solsangiz, shohim, qulog  
G'oyati tahsin-u anvo'i inoyatdur manga.

\* \* \*

Oy yuzung lavhinda mahfuz oyati ummul-kitob,  
Tug'madi barlos ulusindin seningdek oftob.

Subhi davlat mashriqi, nuri tajalli matla'i,  
Tal'atindurkim hayosidin bo'lur har dam gulob.

Qo'pti husnungdin qiyomat yetti kishvardin bukun.  
Ushta qosh-u ko'z kiprik daftari yovmul hisob.

Zulmatobodi jahonda orazingdur sham'i nur,  
Kim qilur har lam'asi turluk-tuman oftob.

Mohi Kan'oniki Misr eli ko'rub el kestilar,  
Tushta hargiz ko'rmadi, billoh, bu husni obi tob.

Ayn erur mus'haf yuzungda ashri oyoti jamol,  
Vaqf lozim mim og'iz vallohi a'lam bissavob.

Bir yoshingga tengri yuz yoshi bersun Lutfiy qul,  
Yo iloho, bu duo hazratta bo'lsun mustajob.

\* \* \*

Ohkim, bag‘rim firoq o‘ti uza bo‘ldi kabob,  
Majlisim nuqli g‘am-u anduh-u ko‘z yoshim sharob.

Gul yuzung hajrinda o‘zdin ketgay erdim dam-badam,  
Gar bu sorig‘ yuz uza ko‘z urmasa har dam gulob.

Furqating cho‘linda har bir yo‘l uza o‘trub ko‘zum  
Etti tojiklar tilincha, kimni ko‘rsa: «Xoja, ob!»

Kim sening hajringg‘a tushsa nogah, ey jon munisi,  
O‘z jonindin irikib topmas o‘lumni orzulob.

G‘amza to bo‘ldi, otib qo‘rchidag‘i hojib qoshing,  
Lutfiy ko‘ngli mulkini qilding jafo birla xarob.

\* \* \*

Netib o'lmayinki, chiqsa yuzi burqa'in ko'torib,  
Qoshi boshlag'ay jafoni, ko'zi fitnalar qo'porib.

Ko'zung ul qaro kuyolikkim erur yuzungga munkir,  
Nechakim yurak qonindin dudog'i turur qizorib.

Qalam o'yla bordi eldin qaro ko'zi vasfidakim,  
Qarodin qarog'a uch oy oni elturlar ko'torib.

Ko'z oqardi-yu, yuzin bir to'ya ko'rmadim, raqibo,  
Necha zulfitek qafogir o'lasen yuzung qarorib.

Mengi hasratinda Lutfiy o'lar o'lsa g'amza birla,  
Bori dog'i ishq topqay yuragina boqsa yorib.

\* \* \*

Labing latofatidin baski fahm qildi uyot,  
O'lum, qaro zulumot ichra kirdi obi hayot.

Saloh ahlini ozg'urdi yo'ldin ul qomat,  
Ne qad bo'lur, bu ne qomat, ne fitnalik harakot.

Nabot narxini sindurmasa shakar irning,  
Ne ishki, teng sotilur tol yig'ochi birla nabol.

Yo'q og'zingiz kibi shirin kalom mantiqda,  
Ki qildi javhari fard o'z vujudidin isbot.

Jamol boylig'ida Lutfiy sori boq, sadaqang,  
Ki farzi ayn erur, albatta, mustahiqqa zakot.

\* \* \*

Zulfungni ko‘rub qildi ko‘ngul mayli ziyorat,  
Ul silsilag‘a berdi ravon dasti irodat.

Har kimki shahid o‘lmadi dilbar qilichidin,  
Bechora borib topmadi ul shahdi shahodat.

Sochingni ko‘rub, halqa bago‘sh o‘ldi qoshingda,  
Har kimki urar erdi burun lofi sayodat.

Oshiqqa o‘zin sotsa raqibing, nega mengzar,  
Arslon bila tulkugaki lof ursa jalodat.

Xurshed tug‘ar har kun o‘shul oy yoqasidin,  
Oy ko‘nglakiga haq ne balo berdi saodat!

Qutlug‘ ayog‘ing yerga tegibdur, oning uchun  
El urga qo‘yub bosh, qilur barcha ibodat.

Ne bo‘lg‘ay agar Lutfiyi bechorani ko‘rsang,  
Kim xayr ishidur xastag‘a kim qilsa iyodat.

\* \* \*

Xat qildi yuzung Mus'hafidin husn rivoyat,  
Ul Mus'haf uza xatting erur husnunga oyat.

Mehringdin ayo oy-u falakka yetar ohim,  
Qilmas netayin, ko'nglunga bir zarra siroyat.

Jon topti imorat qadingiz tuzluki birla,  
Ma'mur bo'lur adl ila har qayda viloyat.

Gar mehr-u vafo bo'lmasa, yo'qtur tamaim ko'p,  
Ul ko'zdin erur bir nazare bizga kifoyat.

Ul yuz bila mehrimning emas g'oyati paydo,  
Andoqki sening husnunga yo'q hech nihoyat.

Hayratqa qolib pista og'iz ochti-yu, qoldi,  
Majlisda chu og'zing soridin kechti hikoyat.

Haq birla niyozing agar, ey shoh, bor ersa,  
Qil Lutfiyi miskinka jafo birla riyoyat.

\* \* \*

Ey g'amza bila ko'nglum uyin qilg'uchi g'orat,  
Asru dag'i buzma, chu seningdur bu imorat.

Ittek u meni jon torturaturg'uncha munungdek,  
Ko'z qoq bir-u kirpuq o'qina qilg'il ishorat.

Sen husn ila boysen, senga chun farz durur haj,  
Qil, tengri uchun, ka'bai ko'nglumni ziyyarat.

Yuz surmadin ortuq tatar irning to'zini ko'z,  
Tortib bilayin bo'lmasa anda bu basorat.

Yer uzra etak sudrab o'tubsiz oning uchun,  
Tufroq ila har yerda ravo bo'ldi tahorat.

Hajringda ko'zumning sadafidin to'kulub dur,  
Har daimki, kelur yodima ul lafz-u iborat.

Bu Lutfiyning ohi o'tidin kuymadi ko'nglung,  
Kuydurdii falak bag'rini, lekin bu harorat.

\* \* \*

Qonimga kirmagil, ey ko'zi qiyimoch,  
Ki boshimg'a tegar xud ul qaro soch.

Yuz ochg'il, ko'z seni to'yg'uncha ko'rsun,  
Necha bo'lg'ay bu ko'zim muntazir, och.

Gul eltur ol o'yla chehradin rang,  
Qizorsa, o'g'ri uchun el urar koj.

Jonimg'a qiymasa naqqosh surat,  
Ne ma'nidin qilur ko'zingni qiyimoch.

Tiriklik qilg'ay erdi kim bila ruh,  
Azaldin kelmasa mehringni olg'och.

Labingdin chun suchuklik qand o'g'urlar,  
Solurlar el ani suvg'a yalang'och.

Nishon topqay baqodin anda Lutfiy,  
Ki xoki o'qlaringg'a bo'lsa omoch.

\* \* \*

Bir yana ko'rgaymumen ul ko'zлari kofarni hech?  
Irnidin so'rg'aymumenkim, qildi ul shakkarni hech,

Rahm paydo bo'ldimu bo'lg'ay aning tosh ko'nglida,  
Zulfi o'ksuttimu erkan muncha sho'r-u sharni hech?

Qilg'ali oytek yuzuning mus'hafina bir nazar,  
Ko'rmadim dars-u vazoyif nusxa-yu daftarni hech.

Zulfi savdosi kiming boshina tushti bir kecha,  
Ul parishon bo'ldi-yu, topmodi poy-u sarni hech.

Nechakim sayding durur bu Lutfiy, o'lturma ani,  
Rahm etib sayyodlar o'lturmadi log'arni hech.



Ey g‘amzasi miskinlara ko‘p qilg‘uchi bedod,  
Jodu qaroqing sehr ila horutg‘a ustod.

Bir yo‘li bu bechora duochingni unutma,  
Bir kun sanga bu so‘zlarimiz kelgusidur yod.

Faryodim o‘shul yerga yetibturki nechakim,  
Faryod etaram mendin eshitmas kishi faryod.

Tog‘ni eritur ohim asar qilg‘usi bir kun,  
Ko‘nglung nechakim bo‘lsa temur, tosh dag‘i po‘lod.

Bor qullug‘unguz ishqil hanuz sarv boshinda,  
Tuzluk bila garchi ani qilmish qading ozod.

Hamdard ila holimni deyinkim, tusha bovar,  
Ul damki yo‘luqsa manga mahshar kuni Farhod.

Bu Lutfiyi bechorag‘a gah-gah nazar ayla,  
Ey turki sumansoid-u v-ey, sarvi parizod.

\* \* \*

Pistadek og'zinga shakar dedilar,  
G'ayb sirin ne muxtasar dedilar.

Dedilar orazingni oy ila kun,  
Tengrining nurina nelar dedilar?

Yuzung oling qiyomatini ko'rub,  
Jam'iushshams-u val-qamar dedilar,

Qil uchi bor demishlar og'zingni,  
Ko'rki, yo'q yerda ne xabar dedilar,

Vahdat ahli safou tal'atingg'a  
Partavi mabdaus-suvar dedilar.

Vasfi zulf-u ruhingda tushmadilar,  
Har necha shom ila sahar dedilar.

Kim qoshingni hilola mengzatti  
Oni ishq ahli kajnazar dedilar.

Ahli savdo ko'ngul iloji uchun  
Labi la'lingni gulshakar dedilar.

Tut quloq Lutfiyning iboratig'a  
Kim, oning lafzini guhar dedilar.

\* \* \*

Zamona ahli ko‘zung sehrina asir bo‘lur,  
Xudoyro, bu ne ashkoli dilpazir bo‘lur.

Kumush bilaklaringizni yeng ichra yoshurmang,  
Kishining ilgi ochuq bo‘lsa, benazir bo‘lur.

Ko‘zum yuzung sori bexost boqsa, man etma  
Ki husn eli nazar ahlina noguzir bo‘lur.

Qil uchi so‘zlasam ul tor og‘zi kinoyatini,  
Vujudi zihni sori roji uz-zamir bo‘lur.

Haris uchun yuzunga xor-u zor bo‘lmishmen,  
Haris bo‘lsa kishi, xor ham haqir bo‘lur.

Shamol qaydaki bo‘lsa, jafosi jong‘a tegar,  
Magarki husn-u jafo ittifoqi bir bo‘lur.

Nechakim ul shah uchun Lutfiy so‘zi dur bo‘ldi,  
Qachon qulog‘ida bu qissa joygir bo‘lur.

\* \* \*

Ul zulfi tuzoqiki ko'ngul saydi uchundur,  
Har halqasi sarmoyai asbobi junundur.

Yillar kerak ul g'amzaga shogirdlik etsa,  
Horutki, ustodi tilismoti fusundur.

Chun aql kichiklikda-u oy yangi ekanda,  
Husningdag'i bu dardi dilim ro'zi fuzundur,

Burqa'ni ko'tar, tengri uchun, el seni ko'rsun,  
Bu husn-u malohat yana qaysi kun uchundur?

Lutfiykim ochun xonlarini ilmadi ko'zga,  
Qul bo'ldi jamolingg'a-u ishqingda zabundur.

\* \* \*

Chehrang charog‘i nuri musavvar dagulmudur?!  
Anvori loyazolg‘a mazzar dagulmudur?!

La’lingki salsabil zilolina suvsamish  
Rashki sharob, g‘ayrati kavsar dagulmudur?!

Zulfung savodidakim erur halqa-halqa ruh,  
Ishrat soati ermas-u mahshar dagulmudur?!

Asrori lomakonning amini-yu mahrami,  
Og‘zing qotingda xoli mudavvar dagulmudur?!

La’li labinki ruhi mudaddas oning bila,  
Qoyim durur oraz kibi, javhar dagulmudur?!

Yuzung xayoli g‘am kechasi xattu xol ila,  
Jon xilvatinda sham‘i munavvar dagulmudur?!

Lutfiyni etqali bir og‘iz vasfi shukr ila  
So‘zi qoshinda qandi mukarrar dagulmudur?!

\* \* \*

Sunbul sochingni el ila gulbargi tar quchar,  
Davlat ko‘zung boshindaki shams-u qamar quchar,

Nasrin bila binafshani ko‘r takya qilg‘anin,  
Hindug‘a boqki turk-u xitoni nesar quchar.

La’lingmu yo Suhayl-u Surayyo qironidur?  
Yoxud aqiqi nobmudurkim guhar quchar?

Hayratda menki turra parishonlig‘i nedur,  
Qiltek belingni chun kechalar to sahar quchar,

Men bir ko‘rarga munglik-u toleliq ul niqob,  
Surtar yuzun yuzungau xush-xush o‘par, quchar.

Hargiz o‘larmu ul kishikim yilda bir kecha  
Tongg‘a tegincha sen kibi bir siymbar quchar?

Lutfiy, yuz oltuni bila vasl istama, faqir  
Kim, oqcha yuzni er kishi quchmaski, zar quchar.

\* \* \*

Har qayda bir jafochi dog‘i bag‘ri tosh erur,  
Anda jamol-u husn qaro ko‘z-u qosh erur.

Qondur o‘qung nishoni uchun har dam o‘rtada,  
Jon-u ko‘ngul orosinda baskim talosh erur.

Bosh bir qilibdur ikki qoshing qasdi jonima,  
Qonim bihil, ne hojati muncha kengosh erur?

Bo‘lmas boshim musharraf oyog‘ingga zulftek,  
Yo rab, bu baxt-u davlati yo‘qturki, bosh erur.

Lutfiy kun eltur oy yuzi nazzorasi bila  
Bu to‘ymag‘urg‘a ko‘rki ne vajhi maosh erur.

\* \* \*

Ko‘zum xayol xaylina ravshan harim erur,  
Ore, pari buloq boshinda muqim erur.

Ul sarvkim, quyosh turur bori mevasi,  
Gar to‘g‘ri yoursang ushbu qadi mustaqim erur.

Boqtim yuziga olida jon vaqf lozim ul,  
Ul rahmat oyati uza chun og‘zi “mim” erur.

Nohaq seni aziz tutib qilmag‘ay yatim,  
Ko‘zum durini xo‘rlamag‘ilkim chun yatim erur,

Yo rab, bu Lutfiy qul ne yozuq qilmish erdikim,  
Hijron tuni nasibi azobi alim erur.

\* \* \*

Gulchehralarning javridin qat-qat bu bag‘rim qon erur  
Dur tishlilarning noridin ikki ko‘zum ummon erur.

Qonimni so‘rdi irning-u so‘rmadi oni hech kishi,  
Da’vo qilur bo‘lsa anga, ayturkim: “Ilki qon erur”.

Zulfung uzotur erdi ko‘p zulm ilkin, oni yig‘mading,  
Xoli uyolmoqtin boshin ostin solib narbon erur.

Boshta qilur erdi qoshing ko‘nglum haqinda egrilik,  
Ko‘z qoq qil, o‘zin anglasunkim, navbatи ehson erur.

Bir kun jamolin ko‘rmayin hasratta qoldi go‘yiyo,  
Bechora miskin Lutfiyg‘a ro‘zi bori ehson erur.

\* \* \*

Ko'zungdek kezguchi ayyora yo'qtur,  
Qoshingtek bir pari makkora yo'qtur,

Fusunlar birla er g'amzang jigarni,  
Aningtek ham yana xunxora yo'qtur.

Seni ko'rmay o'larman gar yo'luqsam,  
Junundin toqati nazzora yo'qtur.

Kichik og'zing g'aminda oshiqingg'a  
Uluq tinmoqdin o'zga chora yo'qtur.

Ko'ngullar dardig'a gar chora qilsang,  
Meningtek dunyoda bechora yo'qtur.

Netar lola turub yobonda muncha,  
Uyotingdin agar ovora yo'qtur.

Jafo ko'p qilmakim ko'nglung masallik,  
Bu Lutfiy joni sentek xora yo'qtur.

\* \* \*

Ko‘zungki, lola-u nasrin uza uzola yotur,  
Xo‘tan chechaklari ichra magar g‘izola yotur?

Ne uyqusi og‘ir ermish mening bu baxtimni  
Ki, munchakim qiladur ko‘nglum oh-u nola, yotur.

Ko‘ngulni nor yangoqing o‘rtar o‘zga oli bila,  
Yo‘q ersa yozida chandon hazor lola yotur.

Firoq sharhini irsol qilg‘oli, hayhot!  
Rasul topmon-u jaybinda yuz risola yotur.

Ki inichka og‘riq etar qasd Lutfiyg‘a savdo,  
Qachonki belida ul anbarin kulola yotur.

\* \* \*

Seni jam'iki, gulruxsor derlar,  
Meni ham andalibi zor derlar.

Bu qad ermas, erur ruhi musavvar,  
Ravon ulkim, ani raftor derlar.

Nazar ahli ko'rub nortek yangoqing,  
Masal: "Bir nor-u ming bemor" derlar.

Tabiblar borchha dardimdin haroson,  
Tirilmakni base dushvor derlar.

Soching Rum ichra Chindin bosh chiqardi,  
Ani ul vajhdin susmor derlar.

Ne ko'ngli sodda eldur ishq elikim,  
Seningtek bevafoni yor derlar.

Adamdur ul og'iz fikrinda Lutfiy,  
Xaloyiq bilmay oni bor derlar.

\* \* \*

Ul ko'zki horut anga shogirdi kamindur,  
Cho'lpon dedim, ul vajh ilakim tongg'a yaqindur.

Ul turrai tarrorda ko'nglumni sezibmen,  
Boshin ko'radurman quyi, egriligi chindur.

Kofir desa g'amzangni, o'q uchi bilan so'zlar,  
Mehrob ichida qon qiladur qoni nedindur?

Shak nuqtasidur la'l uza xol og'zing uchunkim,  
Ne bori muayyandur-u ne yo'qi yaqindur.

Man etma ko'zungdin tilasam bir nazar oxir  
Elga nazar aylar kishikim, go'shanishindur.

Kavsar suvidur irning-u yuz to'bi uza hur,  
Har qaydaki sensan manga firdavsi barindur.

Ul g'amzaning ashkolina ko'z solg'ali Lutfiy,  
Tashir uchun ash'ori bari sehri mubindur.

\* \* \*

Jamolingkim tajalli ko'zgusidur,  
Qaro tamg'oliq oy bir hindusidur.

Ko'zungga qosh erur payvasta moyil,  
Magar boshin uyurgan jodusidur.

Xayoling bir yili tushimga kirkach,  
Balo bilg'an manga baxt uyiuisidur.

Ajalga qilmangiz tuhmatki, bizni  
Halok etgan bu hijron qayg'usidur,

Manga ko'z haqqi ham tegmas magarkim,  
Dudog'ing sharbatli jon orzusidur.

Meni ittek yogurtgan yozilarda,  
O'shul jodu qaroqlar ohusidur.

Tugandi umr-u ko'rmas sizni Lutfiy,  
Bu hasrat birla oxir o'lgusidur.

\* \* \*

Sochingkim mushk aning sharmandasidur,  
Binafsha bo'yni bog'liq bandasidur.

Manga yo'q qayg'uni qilg'uvchi paydo,  
O'shal shakkar og'izning xandasidur.

Katon yangliq meni behol qilg'on,  
Qamartek tal'ati tobandasidur.

Biror so'rmoqqa mungluqmen labingdin,  
Bir og'izkim, aning sharmandasidur.

Seni haddini bilmay sevgan uchun  
Bu Lutfiy yuz balo arzandasidur.

\* \* \*

Qaroqlaringki, tinmay qon qilurlar,  
Karashma müncha qoydin o'rganurlar?

Zihı davlatlıq ul ikki qoshindikim,  
Kumush taxt uzra og'noshib yoturlar.

Sevingandin gul o'z to'nig'a sig'mas,  
Kim, oni yuzunga nisbat qilurlar.

Menga la'ling g'aminda qon ko'runur,  
Munajjimg'a nechakim ko'rguzurlar.

Kumush chun lutf o'g'urlar soidingdin,  
Tutub anbur bila o'tqa solurlar.

Meni o'lturmasa ul ko'zlar o'ynab,  
Nag'u har go'shada yuz yosururlar?

Sanga bor mayli derlar ul parining,  
Meni udtek bu so'zga kuydururlar.

Kerak oshiq kishilarg'a jafokim,  
Ko'ngul har bevafog'a oldururlar.

Muqassirdur soching vasfinda Lutfiy,  
Sening yuzungdin ash'orin o'qurlar.

\* \* \*

Joduluqtin har dam ul o'tluq ko'zung jon kuydurur,  
Nor mengizlik ikki irning la'li marjon kuydurur.

Burqa' olg'onda yuzungni sham' ko'rmush tun kecha,  
Ul sabab boshtin-oyoqqa rishtai jon kuydurur.

Kun mengizlik yuzunga o'zin darichangdin solib,  
Siyna hasrat dog'i birla mohi tobon kuydurur.

Har nafas ko'kka yetar bag'rim kabobindin tutun,  
Netayin, jonimni har dam ohi so'zon kuydurur.

Lutfiyning ko'ksin hadaf qilsa o'qung bir sahmi bor  
Kim, aning bag'ri o'ti, albatta, paykon kuydurur.

\* \* \*

Har kun manga yuz qatla gar ul oy ko'runur,  
O'yla sog'inur ko'zga magar soy ko'runur.

Yuz bosh borur elga shukufa kibi hardam,  
Gul yuzuda chun zulfi sumansoy ko'runur.

Har kecha yuzi yodi bila yig'laram oncha  
Kim, ikki ko'zumning suvida oy ko'runur.

Ne bo'lg'ay agar qilsa ziyyorat bu ko'ngulni,  
Haj qilsa kerak husn ila chun boy ko'runur.

Ul tosh ko'ngullik g'amida Lutfiy ko'zindin,  
Har soriki, ko'z kor qilur soy ko'runur.

\* \* \*

Umrum kuni agarchi firoqingda shom erur,  
Jodu ko'zungdin uyqu ko'zumg'a harom erur.

Ko'z chashmxonasida qil orom, ey pari  
Kim, bor oqar suvi-yu safoliq maqom erur.

Og'zingda bor vujudi adamning qarinasi,  
Andin kinoyate desam, ibhomni tom erur.

To'biy har evga bosh urub uchmoqta bequsur,  
Istar qading niholinikim, xush xirom erur.

Siymtek saqoqi qildi meni zarvaraq bikin,  
Asru zaif, vah, bu ne savdoi xom erur!

Diq bo'ldi oy-u kun yuzunguz ko'rki mehridin,  
Bir-ikki haftada aning ishi tamom erur.

Bu Lutfiy qulki boda sari qilmas iltifot,  
Irningni ko'rgali beri masti mudom erur.

\* \* \*

Yoz fasli barcha shod-u ko‘nglumiz g‘amnok erur,  
Gul bikin jon ko‘nglaki hijron yelindin chok erur.

Ey firoq, o‘ltur meni, filhol qutqor qayg‘udin,  
Yorsiz achchiq umr zahr-u ajal – taryok erur.

Arz qilma gullaringni bizga onsiz, ey bahor,  
Qaysi gulning etagi oxir aningtek pok erur.

Jon agar ul oraz uchun bersa yo‘q ko‘nglida rahm,  
Suvsizin yuz bolig‘ o‘lsa, bahrg‘a ne bok erur?

Turbatimning toshiga mundoq bitingkim: “Lutfiy qul  
Tosh bag‘irliq yor uchun farsuda bo‘lg‘on xok erur”.

\* \* \*

Ko‘zung qorasi fitna, vale oqi balodur,  
Jonlar oladur, vah, ne balo ko‘zi qarodur?

Ko‘z ostida jon olg‘uchidir xoli-yu qoshi,  
Bir-birga bari fitna qotilg‘on ne balodur?

Hamdarddur aytay anga holimkim, inong‘ay,  
Gulshandin o‘shul bulbuli miskinki judodur.

“Bosh o‘ynayin-u jon berayin vasl uchun” ayttim,  
Xush-xush kulib aytur mangakim: “Yaxshi bahodur”.

Ko‘p qilma aning javridin, ey Lutfiy, shikoyat  
Kim, husn elining shevasi payvasta jafodur.

\* \* \*

Zotingda haq izhori kamolot qilubtur,  
O‘z nuri bilan suratingizni yaratubtur.

O‘n juzv turur erdi bori husn-u malohat,  
Qismat kuni haq to‘qquz ulush sizga beribtur.

Bir juzviki Yusufg‘a tegib erdi, chu bordi,  
Oning uchun ul ham sanga meros qolibtur.

Ko‘rmish qora soch halqasi ostinda mengingni,  
Jim o‘rtasida ul kishikim nuqta solibtur.

Aysh-u tarab asbobini elga ulashurda,  
Husn eli karashmalari jonimg‘a tegibtur.

Har fitnaki, angez qiladur ul qora qoshi,  
Yolg‘iz mening olimg‘a azaldin yozilibtur.

Ayttimki: “Bu Lutfiyga jafo qilma, vafo qil!”  
Ayturki: “Bizing davrda ul rasm qolibtur”.

\* \* \*

Ulkim yangoqi ko‘zuma gulzor ko‘runur,  
Xublar ko‘zima andin ugun xor ko‘runur.

Ketti xiradim boshta chu ul qoshini ko‘rdum,  
Oy boshta payvasta hilol or ko‘runur.

Nozukligidin bodai la’l irnina qo‘ysa,  
U yerga yetanchaki borur bor ko‘runur.

Men faxr qilurmen manga dashnom berurda  
Bilmas kishilarg‘a agar ul or ko‘runur.

Man’ etgan uchun Lutfiyg‘a ishqি yo‘li ichra,  
Har qaydaki bir yor durur, ag‘yor ko‘runur.

\* \* \*

Har necha yamonliqki qilur, yaxshi ko‘runur,  
Nozuk kishidin harne kelur, yaxshi ko‘runur.

Gulning yig‘ochi ostida o‘lturki, qo‘par yel  
Gul boshiga gul sochilur, yaxshi ko‘runur.

Chun tishlasa irnin ko‘runur shevasi shirin,  
Sut birla chun shakkar qotilur, yaxshi ko‘runur.

Xat husnini orttirdi-yu hech qilmadi nuqson,  
Qog‘azga chu xatlar yozilur, yaxshi ko‘runur.

Soching bila yuz yopmag‘il-u Lutfiyg‘a ko‘rguz!  
Kun, ore, buluttin ochilur, yaxshi ko‘runur.

\* \* \*

Jonimg'a tekkan ul qaro soch makr dolidur,  
Ko'nglum elin talar bu magar yog'i molidur.

Rashk o'lturur meniki jahonda qul etguchi,  
Shakl-u shamoyili bila husn-u jamolidur.

Tun kecha husni tal'atidin tongg'a qoldi oy,  
Tush bo'lsa kun yuziga nishon zavolidur.

Kulsa adamg'a mayl qilur hechkora jon,  
Ko'nglumni so'zga qayg'usi fikri maholidur.

El bilmasun deb o'rtada jondur bahonae,  
Billoh, meni tirik tutadurg'on xayolidur.

Lutfiy etkali og'zi-yu beli vasfini  
Holi ochunda barcha aning qiyly-u qolidur.

\* \* \*

Rostliq haqqi, muxolif bo‘lmadim hech, ey nigor,  
Nay bikin bag‘rim teshib ingratma meni zor-zor.

Xizmatingda bog‘ladim belimni, barmoq ko‘z uza,  
Men qabul ettim nafas har necha bo‘lsam xor-xor.

Changdek qaddim necha javrung elindin bo‘ldi xam,  
Nola yo‘q, a’zom uza gar bo‘lsa har pag tor-tor.

Ul turunji g‘abg‘ab-u, bodom ko‘zung hurmati,  
Olma dushman so‘zin-u ko‘nglum eliga solma nor.

Ich bo‘lub nokas raqibim, tosh bo‘ldi o‘rnumiz,  
Eshikingda itcha ham bo‘lmodi bizga e’tibor.

Eshikingiz tuprog‘indin gard o‘lub uchsun tanim,  
Medin o‘lturg‘uncha nozuk xotiringizga g‘ubor.

Har jafokim kelsa sendin Lutfiyg‘a minnat, vale  
Qilmag‘an yozuqni kechrub, qilg‘in andin darguzor.

\* \* \*

Kirpukung nashtar urub har dam bag‘irdin qon olur,  
Mehr etar jodu ko‘zung, to‘yg‘uncha tandin jon olur.

Garchi dushvor o‘l aziz jon bermak odam o‘g‘lig‘a,  
G‘amzangg‘a qilg‘in tafarrujkim, ne xush oson olur.

Nogahon bir kun kularda dur tishingni ko‘rgali,  
Har kecha ikki ko‘zumdin yuz sabaq ummon olur.

Jon seningdur, tan dag‘i, san xoh kuydur, xoh ol,  
Mu‘taqid qul shohidin tan-jon bila farmon olur.

Shevangiz qasd etti ko‘nglum olsa, qo‘ymish topmadi,  
Lutfiy qulning anglasam joning anga tovon olur.

\* \* \*

Chehradin burqa'mu oldung, mohi tobon ko'rnadur?  
Yo tabassum ayladingmu, surati jon ko'rnadur?

Uyquda erkan magar zulfungni tog'itti sabo,  
Kim biror yumsam ko'zum, tushum parishon ko'rnadur.

Mayl qilg'oli ko'zum unnob yanglig' irninga,  
Toleim ahkomi ichra dam-badam qon ko'rnadur.

Tun kecha o'n to'rt tungi oyni ko'rmishdur yuzung,  
Ushbu kun oyning jamoli ichra nuqson ko'rnadur.

Ko'z ko'ra o'lturnak odam o'g'lini dushvor erur,  
Nedin ul g'amzangg'a mundoq sahl-u oson ko'rnadur.

Rost qildi xud visoling ganjina ko'nglum uyin,  
Oxiri fikr etsam oning ishi vayron ko'rnadur.

Ko'rgali tishing bila irningni Lutfiyning ko'zi,  
Kirpuki ustida har dam durru marjon ko'rnadur.

\* \* \*

Hammomg‘a azm aylagach ul sho‘xi sitamgar,  
Hammom yuzi aksi bila bo‘ldi munavvar.

Gultek tanidin chunki araq bo‘ldi ravona,  
Hammom gulob isi bila bo‘ldi muattar.

Suv g‘ayratindinkim tanig‘a tegdi damo-dam,  
Jonim bori suv bo‘ldi-yu, holim dag‘i abtar.

Ey koshki, men bo‘lg‘ay edim olida xodim,  
To vasl tuni bo‘lg‘ay edi bizga muyassar.

Kavsar suvi, jannat guli oltun tarog‘ olg‘och,  
Hurlar kelur erdilar anga bo‘lg‘ali chokar.

Bu Lutfiyning ohi o‘ti ko‘zi yoshidindur,  
Hammomning o‘ti-yu suvi tushmas anga bovar.

\* \* \*

Necha bag'rim o't uza nortek yang'oqing kuydurur?  
Necha jonio javharin siyimtek saqoqing kuydurur?

Necha mehrob ichra meni har kecha tongg'a bikin  
Shamtek boshtin-oyoq ul juft-u toqing kuydurur?

Qosh-u ko'z-u zulf-u yuz-u qomating qasdimdadur,  
Qaysini aytay, meni boshtin-oyoqing kuydurur.

Hajr o'ti birla raqib javri bag'irni kuydurub,  
Qolg'anin gah-gah biror hol so'rmamoqing kuydurur.

Kuymadi ishqing o'tinda chun sipandondek vujud,  
Lojaram uddek ani holi firoqing kuydurur.

Etmas erdi bizga ul filfil yangoqing o'tida,  
Kim yana afsun bila jodu qaroqing kuydurur.

O't agar suvni kuyurmas bo'lsa, ey joni jahon,  
Ne uchun bu Lutfiyning jonin dudoqing kuydurur?

\* \* \*

Yo rab, ul dilbar malak yo hur, yoxud jon erur,  
Haq nazar ondin ko'tarmas, xalq anga hayron erur.

Shakkar og'zingkim kichiklikda yoshurdi zarrani,  
Ul quyosh yuz uzra gah paydo-u gah pinhon erur.

Oy-u kun yuzung bila lof ursalar, yo'qtur ajab,  
Ore, lof urmoq yiroqtin barchag'a oson erur.

Og'zing o'lturdi tabassum birla bizni, tonmag'il,  
Gar kishi o'lturmasa, ul ne uchun pinhon erur?

Qo'yimag'il har dam raqibimni qoshingda, sur, begin,  
Kim qo'tur itning damidin barchag'a nuqson erur.

Garchi zulfung chinida kofir bo'lib erdi ko'ngul,  
Burqa' olg'il chehradinkim tolibi imon erur.

Davri husnungda jafo birla bu Lutfiy ko'nglin ol,  
Yodgori husn, ore, dunyoda ehson erur.

\* \* \*

O'tluq ko'zungni ko'rgali bag'rim kabob erur,  
Sizdin ne yoshuray, ko'ngul ishi xarob erur.

Yig'larman eshikingda, ochilmas ne bobdin?  
Yomg'ur yog'arda qoida, chun fathi bob erur.

Ul yuz-u zulf uchun o'layin menki olida,  
Jannat guli binafshasi beob-u tob erur.

Quvlamag'il meni eshikingdinki dam-badam  
Shavq o'lturur, ne hojati muncha shitob erur.

Manshur osti yuz sori da'voyi husn uchun,  
Kun gardishinda zulfiki, molik rikob erur.

Boshingdin evrulur sadqa bo'lg'ali qamar,  
Bandang durur agar mah-u gar oftob erur.

Suv eltti borsa men ko'zi giryong'a boqmag'ay,  
Kun choshtgohda ko'zikim masti xob erur.

Lutfiy, xayoli birla yiroqtin sabur bo'l,  
Ul pok etaklik asru chu oli janob erur.

\* \* \*

Nechaki javr qilursan, vafodin ortuq erur,  
Karamki o'zgaga qilsang, jafodin ortuq erur.

Eshikingizdin yiroq bo'lsa ko'z erur giryon,  
Izing to'zi manga yuz to'tiyodin ortuq erur.

Shakkar kibi manga dashnomingiz kelur shirin.  
Ne shukr etay angakim, duodin ortuq erur.

Nechuk tabibg'a dardingizni aytayin oxir,  
Ki dardingiz manga yuz ming davodin ortuq erur.

Sochingni istasa Lutfiy xasta, yozg'urma,  
Havo yo'linda chu mushkin sabodin ortuq erur.

\* \* \*

Ishqi jahonni o'rtadi, bu ne balo jamol erur,  
Haddi bashar dagulkim, ul partavi loyazol erur.

Hur-u farishta-u pari husni anga shabih emas,  
Vahdat uchun dalil o'shul surati bemisol erur.

Oy yuzi-yu uzun sochi fikrida umr xush kechar,  
Man biluram dog'i ko'ngulkim bu ne moh-u sol  
erur,

Bir qona ko'rgali yuzun umr tilar ko'ngul, vale  
Xizr hayoti birla ham qonmog' ishi mahol erur.

To nazar ayladi quyosh tal'atining kamolina,  
O'zgaga bo'lsa bir o'lim kunda anga zavol erur.

Beli-yu og'zi ramzidin so'z bor uchun gumon bila,  
Mo'yshikof-u xurdabin ichra bu qiylyq qol erur.

Ko'rmasa yuzuni o'lar Lutfiy, ko'rsa ham dog'i,  
Ishqi jununidin anga ko'rki ne turfa hol erur.

\* \* \*

Yuzungizda o‘g‘on nuri ayondur,  
Ko‘zungiz fitnai oxir zamondur...

Qoshing, irning, yuzung, ey rashki rizvon,  
Hilol-u kavsar-u bog‘i jinondur.

Meni sevdi debon yozg‘urmag‘ilkim,  
Seni kim sevmasa ding‘a ziyondur.

Sening shirin dudog‘ing hasratidin  
Muhiblar joni suv-u bag‘ri qondur.

Labimga etti jon, irnimga yetkur —  
Labingnikim, manga payvandi jondur.

Ne g‘am gap dard-u hasrat birla o‘lsam,  
Chu dilbar o‘lg‘onimdin shodmondur.

Firoqing to‘kti bir dam ichra qonim,  
Ajal yetsa kishiga bir zamondur.

Bu Lutfiy joni og‘zi sori bordi,  
Maqomi ruh, ore lomakondur.



\* \* \*

Bo‘ldi bahor-u jon qushi ul yon havo qilur,  
Har necha ul nigorı sumanbar jafo qilur.

Gar qilmasa vafo manga dilbar, ajab dagul,  
Umri aziz kimga jahonda vafo qilur?

Boshinga men safo berayin der qilich bila,  
Javr etmas erdi mehr uchun, emdi safo qilur.

Ko‘z bo‘ynida durur meni bechoraning qoni,  
Xublar bila meni chu o‘shul oshno qilur.

Yuzung sifoti Lutfiy so‘zin nozuk ayladi,  
Gul sadqasi durur, neki bulbul navo qilur!

\* \* \*

Bo‘lmasa gar ul sanami guluzor,  
Bizga xazontek o‘la bu navbahor.

Yordin agar kelsa qilich boshima,  
Zarra firoq etmagamen ixtiyor.

Yo‘lida tuproq o‘layin ot uchun,  
To manga qilg‘ay guzar ul shahsuvor.

Qoshi uchun jon beruram, do‘stlar!  
Toq qo‘poringiz yosog‘onda mazor.

Yolg‘uz emas, Lutfiykim, ul gul uchun  
Nola-yu faryod qilur sad hazor.

\* \* \*

Hargahki, keshi jubbani ul dilrabo kiyar,  
Go'yoki tun libosini mohi samo kiyar.

Nasrin ajab dagulmuki, sunbul kiyar libos,  
Ermasmu tongki, Chin buti mushki Xito kiyar.

Ko'nglakka inju to'pchi munungtek ne xub emish,  
Yoxud kelur latif nekim mahliqo kiyar.

Ul toshi sadaf sabz yurik ayshlar qilur,  
Davlatliq ul nimakim oni podsho kiyar.

Ashhab nechun arang ko'tarur nozanin bo'yi,  
Ul ruhdek badan bila to'n muntaho kiyar.

Jon ko'nglaki qabo bo'lur, albatta, g'unchadek,  
Yuz oli birla andaki, gulgun qabo kiyar.

Baskim qoshinda Lutfiy bikin olami o'lar,  
Ushshoq motaminda o'shul ko'zi qaro kiyar.

\* \* \*

Qachonki kurtai zar ul mahi munir kiyar,  
Biaynihi erur ul hurkim harir kiyar.

Ne tarh nimtana chiqmish ul baloliq to'n  
Ki chust jilva qilurg'a ani qasir kiyar.

Chu ostek tani kesh jubba kiysa aql aytur;  
“Pari ko'rungki, nechuk mushk ila abir kiyar”.

Qadam bosarda to'kulur tuman karashma-u noz,  
Ne rang o'tukki, ani yori dilpazir kiyar.

Libosi rangini bilmon yo'luqsa hayrattin,  
Aning kibiki to'n ul chust-u benazir kiyar.

Libosi husnidin oy davrungizda ori uchun,  
Qaboi oriyatini har oyda bir kiyar.

Bo'lur yuzung g'amidin chok-chok gul yangliq,  
Ne xirqayekim, ani Lutfiyi faqir kiyar.

\* \* \*

Jonni mehringga azal subhinda moyil qildilar,  
Har ne qildilar, o'shul shakl-u shamoyil qildilar.

Yo rab, ul turrangmu yoxud dudi ohimdur mening,  
Yo magar ashhabni egningga hamoyil qildilar.

Ul quyosh qursi uchun bir labqa munghluq bo'lg'ali,  
Ko'zlarimni yoshini yuz sori soyil qildilar.

Shasti zulfung iqdini tutmoqda mushkul qoldilar,  
Halqai dars ahlikim, halli masoyil qildilar.

Ahsani taqvimi isbotina ravshan vajh ila,  
Orazi oytek jabininingni daloyil qildilar.

Tuhmati ma'shuqliqni o'zgaga yopmoq uchun,  
Yuz sari partav solib oshiqni moyil qildilar.

Andakim g'amzangni sarmasti mayi nob aylading,  
Lutfiyi sohibnazardin aql zojil qildilar.

\* \* \*

So‘zlarda qachonkim ko‘zi qoshi bila o‘ynar,  
Har go‘sada yuz ming kishi boshil bila o‘ynar.

Nun qoshi uchun bahr qilib yer yuzini ko‘z,  
Ul mohi ko‘zum mardumi yoshi bila o‘ynar.

Shatranji latofatni utar nechakim ul oy,  
Rux tarh berib, charx quyoshi bila o‘ynar.

Ko‘rguzsa qaro, barham urar Chin-u Xitonni,  
Ko‘z ustidagi xoli chu qoshi bila o‘ynar.

Jon naqdini ko‘zung qoshida o‘ynasa, Lutfiy,  
Ayb etmakim, ul g‘amza kengoshi bila o‘ynar.

\* \* \*

Ey ko'z, yuziga boq-u dag'i nuri safoni ko'r,  
La'li labida xasta ko'ngulga shifoni ko'r.

Jonning vidoyidur ko'z uchi marhabosida,  
Jondin ilikni yuv, dag'i ul marhaboni ko'r.

Ko'nglum eshigi itlarining mansabin tilar,  
Xonliq tilar, bu himmati oliv gadoni ko'r.

Ko'z yoshi qatradin sanam ortincha tinmadi,  
Jon bermadi, bu ko'ngli qattiq mubtaloni ko'r.

Zulfi agarchi kufr-u zalolatg'a dol erur,  
Oydek yuziga boqqil-u nuri xudoni ko'r.

Majnun kibi yo'lingda meni imtihon uchun,  
Turg'uz abadg'a tekru, mendin vafoni ko'r.

Siymtek saqoqining mengi kuydurdi Lutfiyni,  
Davri qamarning oxirida bu baloni ko'r.

\* \* \*

Nortek yangoqlaringki firdavs bog‘idur,  
Sham‘i falak demonki, tajalli charog‘idur.

Dunyakim erdi men kibi shahboz qudsig‘a,  
Bizni balog‘a solg‘uchi zulfung tuzog‘idur.

Zulfung chu bosh ko‘tardi, buzuldi ko‘ngul evi,  
Qaydin topilsun amnki bulg‘og‘ chog‘idur.

Maxmur ko‘zlaring kibi mast aylagan meni,  
Shul soqiyi alast ichurgan ayog‘idur.

Ko‘z ustida tutib necha yoshni og‘irlasam,  
Elga taqar meni-yu hamul xuni yog‘idur.

Lutfiyg‘a hajr yukini qilma havolakim,  
Andin qil uchi ming Uhud-u qof tog‘idur.

\* \* \*

Xublarda seningtek bir mahbub qani nozuk,  
Boshtin ayoqi zebo, bel-u badani nozuk.

Nozuklik ila olding ko‘nglumni boqib o‘g‘rin,  
Nozuk kishilaringki, har ne qilani nozuk.

Olma yangoqing ko‘rgach, men banda nechuk o‘lmay!  
Bodom ko‘zi fitna, pista dahani nozuk.

Yerga to‘kulur o‘lg‘on qonni yera hech to‘kmay,  
Bir g‘amza bila ul sho‘x o‘lturdi mani nozuk.

G‘amzang o‘qig‘a qarshu jon Lutfiy hadaf qildi,  
Nomus uchun gah-gah sen otqil ani nozuk.

\* \* \*

Ey ko‘zungning shevasi olamni madhush aylamak,  
Zulfung ishi Chin elini halqadargo‘sh aylamak.

Beling-u og‘zung xayoli birla bo‘lg‘umdur adam  
Kim, bo‘lur men qulga fikri bo‘su og‘ush aylamak.

Ko‘nglumiz mundoqkim, o‘rgandi sening yoding bila,  
To qiyomat kelmagay bizdin faromush aylamak.

Ey ko‘ngul, no‘sh ayla yuz ming mundaiy achchiq so‘zin  
Kim, kerak ul la'l uchun xunobalar no‘sh aylamak.

Ishqdin man’ etsa zohid bo‘l mag‘il mash’uf hech  
Kim, erur ahmoq javobi, Lutfiy, xomush aylamak.

\* \* \*

Jon mamlakatin yoqtি yonar o'tqa firoqing,  
Jon tanda qachon qo'ydi xud ul jodu qaroqing.

Sen saqlа ko'ngul hujrasin, ey yor xayoli,  
Bu o'tta yona yonmasun ul pok visoqing.

Oxir, ey falak, nola-yu faryodim eshitkil,  
Har necha mening ohim og'ir qildi qulinqing.

Ey ko'z, yig'idin tinmag'il-u bir dam uyuma,  
G'aflatdin erur bahri g'am ichra uyumoqing.

Bir jur'ani bu xasta quling yodina qil no'sh,  
Ul damki erur Zuhra-u gul mutrib-u soqing.

Hijron g'amidin tutti ko'ngulni tab'i muhriq,  
Bermodi anga sharbatи unnob dudoqing.

Bu Lutfiyni o'lturg'ali g'amzangga buyurma,  
Taqsir qachon qildi ul ish ichra qaroqing.

\* \* \*

Necha qo‘yg‘ay bag‘rima dog‘ ul yuzi mohim menin?  
Necha yondurg‘ay falakning sham’ini ohim menin?

Yo‘ldin ozdi nogahon zulfun ko‘rub miskin ko‘ngul,  
Yo‘llar egri, tun uzun, netkay bu gumrohim menin?

Xush yarashur sarvtek qaddi uza siym olmasi,  
Ohkim, yetmas anga bu dasti ko‘tohim menin.

Emdikim, tuproq bo‘lmishdur eshikingda tanim,  
Gaydadur hosidki, ko‘rgay davlat-u johim menin.

Charx urar xazro sarodiqta falak shohidlari,  
Xaymadin bir tunla chiqsa mohi xirgohim menin.

Nolishim berdi eshigi itlariga dardi chap,  
Avf qilg‘aylar karam birla bu berohim menin.

Bo‘ldi yakto dur tishi vasfinda Lutfiyning so‘zi,  
Ne ajab, tutsa qulog‘ini anga shohim menin.

\* \* \*

Necha kuygay bu yonar o'tqa zaif jonim mening?  
Qolmadi sabr etgali bir zarra imkonim mening.

Kes boshimni go'ytek, xayling adoqi ichra sol,  
Qo'yma sargardon meni, ey zulfi chavgonim mening.

Chun kishining qonin ayturlarki, yotmas, ey ajab,  
La'lingizda ne uchun mundoq yotur qonim mening?

Maqdamingga sochqoli yuzdin o'gun yo'q oltunum,  
Bor, vale ko'z bahrida ko'p durri g'altonim mening.

Men gadoni notavonlig' birla o'Iturdi ko'zung,  
Kimg'a bo'lg'ay oxir ey sulton, bu tovonim mening?

Oy-u kun yulduz kibi yerga o'zin solmoq tilar,  
Chiqlsa xirgohtin biror ul mohi tobonim mening.

Jon borincha qilmag'ay Lutfiy fig'on bedodidin,  
Dod kim bersun, qilur chun javr sultonim mening.



Ey ko'ngul burjinda xurshedi jahontobim mening,  
Yuzu ko'zungdin yiroq yo'q xo'rd ila xobim mening.

Qibladin, yo rab, o'lar holatda evrulsun yuzum,  
Gar sening qoshingdin o'zga bo'lsa mehrobim mening.

Chun sening siymtek saqoqingdin tama'lar bo'ldi xom,  
Necha oltun uzra mavj urgay bu siymobim mening.

Rishtai zulfung balolar boshima jam' ayladi,  
Ul sababdindur parishon jumla asbobim mening.

Ey quyosh, yuzungdin ayr-u yangi oytek bo'lmisham  
Kim, qolurg'a o'zga yo'qtur bir zamon tobim mening.

Xasta ko'nglumg'a shifo erdi labing bir so'rmog'i,  
Bir ani so'rdurmadung, ey irni unnobim mening.

Orazing shavqinda mundoqkim oqar ko'zum suvi,  
Lutfiydek yuzni g'ariq etgay bu selobim mening.

\* \* \*

Firoqingg'a meni soldi qaroqing,  
Na hojat qiynasa emdi firog'ing.

Takabburdin bilurman, tegmagay hech,  
Mazorim boshig'a qutlug' ayoqing.

Vale muncha umidim borki, bilsang  
Kim, o'lturdi bu qulni ishtiyoqing.

Bo'lur jonio suv-u o'ttek tutoshur,  
Chu yodimg'a kelur shirin dudoqing.

Na deb hajr ilkidin sendin tilay dod,  
Ki hijron birla birdur ittifoqing.

G'am-u hasrat bila boshim oqardi,  
Chu bir dam ko'rmadim siymtek saqoqing.

Ham ul dam kuydi Lutfiy sham' yangliq  
Ki ko'rди nogihon nortek yangoqing.

\* \* \*

Ey pari ruxsorlar, bizga nigoh aylab o‘tung,  
Bir nazar birla gadoni podshoh aylab o‘tung.

Garchi o‘tkanda kirarsiz ko‘p kishining qonina,  
Bu gado ko‘ngli uchun muncha gunoh aylab o‘tung.

Xorliq haddin oshurmang, chunki izzat yo‘ldadur,  
Otingiz na'linda bizni xoki roh aylab o‘tung.

Har qachon jon bersam ul qaddu og‘iz yodi bila,  
Ey muhiblar, turbatim ustinda “Oh!” aylab o‘tung.

Har nechakim, sizga zahmattur, zakoti husn uchun,  
Iltifote Lutfiy sori goh-goh aylab o‘tung.

\* \* \*

Xush yarashur yuzi birla zulfi purtobi aning,  
Ey xush ul tunkim, tajalli bo'lsa mahtobi aning.

Ko'nglumiz vayron-u qosh-u ko'zda chindur bu masal  
Kim, "qolur masjid agar buzulsa mehrobi aning".

Jon adam sori qilur parvoz shirinlik bila,  
Qilsa so'zlarda tabassum shakkari nobi aning.

Ne baloliq ko'zi borkim, aql-u din yag'mosina  
Uyg'otur har go'shadin yuz fitnani xobi aning.

Xoli ermastur mengingning aksidin daryo ko'zum,  
Turfa daryoyeki anbar bo'lsa girdobi aning.

Gar eshiking shavqini sharh aylasam, bu faslda,  
Yuz risola chiqqay ortuq, balki har bobি aning.

Ishq Lutfiyni aningdek holga yetkurdikim,  
Yo'qtur ul oyni ko'rarga toqat-u tobi aning.

\* \* \*

Jonim chiqadur dard ila, jononima ayting,  
Men xasta gado holini sultonima ayting.

O'rtanmag-u ko'z yoshi-yu o'lmak turur ishim,  
Bu qissani ul sham'i shabistonima ayting.

Qat-qat yuragim bog'ladi qon g'uncha mengizliq,  
Bu dardi dilimni guli xandonima ayting.

Qon yoshim erur yuz uza yulduz kibi sonsiz,  
Ul ko'zlar Cho'lpon, mohi tobonima ayting.

Lutfiyi dil afgor tilar hajr elidin dod,  
Ahvolini u begima-yu xonima ayting.

\* \* \*

Ey azaldin to abad ko'nglum giriftoring sening,  
Chora qilkim, bo'ldi jonim asru afgoring sening.

Dilbarimning mazhabinda yo'q turur rasmi vafo,  
Ey ko'ngul, ne yerga yetkay nolai zoring sening.

Jon berur chog'da qoshimg'a, tengri uchun, kel, begin,

Bore ko'rmish bo'lg'amen bir lahza diydoring sening.

Shar' ichinda bo'lsa usruk, so'ziga yo'q e'tibor,  
Qonima bergay tonuqliq, ikki ayyoring sening.

Har qachon Lutfiyni o'ltursang jafo tig'i bila,  
Anda ham bo'lg'ay mening ruhim madadkoring sening.

\* \* \*

Ne noz-u ne ishvadur, ey jodu ko‘zluk sho‘x-shang?  
Kabki dariy, tovusta yo‘q, albatta, bu raftor-u rang,

Olingda mengni qo‘ndurub, zulfungni ko‘z bozi bila,  
Ko‘nglum humomi bo‘ynig‘a to‘yg‘uncha ne soldi  
g‘arang?

Ul rost qading sarvtek ingratti nayni har nafas,  
Shirin labing og‘zing bikin qildi shakar ayshini tang.

Ko‘rsa bu bag‘rimda mening ul kirpuking tilgonlarin,  
Hech bo‘ldi deb olmosni daryoga tashlagay farang.

Garchi sanamlar og‘zini o‘xshatdi sog‘ar pistag‘a,  
Ul puch erur hech mag‘zi yo‘q og‘zinga o‘zin tutsa  
tang.

Qon yig‘lamog‘im dam-badam jon-u jigarni kuydurur,  
O‘t tushkay iki ko‘zina bir lahza ham qilmas darang.

Gar Lutfiyni it atasam hech ko‘ngli qolg‘aymu deding?!

Ne ko‘ngli qolibtur aningkim, istagay nomus-u nang.

\* \* \*

Karashma birla necha jonima jafo qilg‘ung,  
Nechaga tekru meni zor-u mubtalo qilg‘ung.

Yovushti chiqqali jon intizor dardi bila,  
Ne kun, ne vaqt, ne soatg‘a bir davo qilg‘ung?


Ko‘zung jafoda-u devonaliqtin ushbu ko‘ngul  
Tama’ tutarkim, magar oqibat vafo qilg‘ung?

Hayot kechti-yu, begonamen visolingdin,  
Qachon o‘zing bila bu qulni oshno qilg‘ung?

Bu ol birlaki la’ling tabassumin ko‘rdum,  
Yohim aqiq-u chiroyimni qahrabo qilgung.

Itob-u jabr-u jafog‘a dog‘i kerak insof,  
Ayitki, necha mening jonima jafo qilg‘ung?

Firoq emgakidin Lutfiy qulni o‘ldi sog‘in,  
Aning qizil qonig‘a necha ko‘z qaro qilg‘ung.



六六六

Hurlar jafosi ilkidin har necha biryondur ko'ngul,  
Yonmas alarning mehridin, vah, ne ajab jondur ko'ngul?

Haddingni bilmayin meni sevdung debon yozg'urmog'il,  
Sen ham bilursan, ey begin, bir erkli sultondur ko'ngul...

Bir lahza sensiz sabr yo‘q, oylarda bir diydor ham,  
Ortar damo-dam shavq o‘ti ishimda hayrondur ko‘ngul.

Ko‘nglum qaro yerga necha o‘ltursun ul zulf ilkidin Jam’ ayla nozuk vajh ilakim, bas parishondur ko‘ngul.

La'li labing so'rmaslig'i yetkurdi jong'a Lutfiyni,  
So'z birla ko'rguz lutfkim, bu qayg'udin qondur ko'ngul.

\* \* \*

Nigoro, sensizin mandin ne hosil?  
Agar jon bo'lmasa, tandin ne hosil?

Chu guldin rang emas, bulbulg'a bo'ye,  
Bahor-u bog'-u gulshandin ne hosil?

Jafo-u ishvalarni fan tutubsen,  
Muningtek ishva-yu fandin ne hosil?

Kishikim, yo'q turur mehr-u vafosi,  
Agar xurshedtur, andin ne hosil?

Bu turluk husn ila Lutfiy qulungg'a  
Inoyat qilmasang, sandin ne hosil?

\* \* \*

Ey oyati rahmat yuzungiz sha'nida nozil,  
Bo'lg'ay qocharing birla qachon mehr muqobil.

Sizdin kerak o'rgansa pari odamiliqni,  
Yusuf dag'i ta'lif kerak olsa shamoyil.

Horut ko'zung sehrini ko'rdi, xijil o'ldi,  
Andin yoshunub ixtiyor etti chahi Bobil.

Yolg'uz men emasmenmu sening birla giriftor?  
Husningga turur hur-u malak jon bila moyil.

Ul sochmudur subha yaqin yoxud uzun tun,  
Yo g'oliyadin dil-u ko'ngullarga salosil.

Jon mus'hshafisi pora bo'lur qayg'uda har dam,  
Yengil iliki bo'ynina to bo'ldi hamoyil.

Hajringda tilar har dam ajal Lutfiyi miskin,  
Sensiz kechuran umrdin, ey do'st, ne hosil?

\* \* \*

Ey sihi qad, bandani hajr ilkidin ozod qil,  
Qayg'uluq ko'nglumni vasling birla bir dam shod qil.

Jonima har dam kelib aytur firoqing elchisi  
Kim: "Ravon tan mulkidin chiqmoqqa iste'dod qil".

Tog'dek oshiqni kuydurdung bu Shirinliq bila,  
Mundin ortuqroq meni bir yo'li sen Farhod qil.

Qomatingning qullug'unda yosh edi, ulg'aydi sarv,  
Boshi titrar emdi xijlattin ani ozod qil.

Holikim jondin asar bordur, sog'ing'il bandani,  
Men chu o'lsam xoh unutqil, anda xohi yod qil.

Gul yuzung qildi chu bulbuldek ko'ngulni beqaror,  
Osig' etmas nechakim ayturlar: "Oz faryod qil".

Nechakim, hukming erur, shohim, ravon Lutfiy uza,  
Chun har ish so'rulg'usi, albatta, adl-u dod qil.

\* \* \*

Davrungizda olim-u obid qo'yub ilm-u amal,  
Bo'ldi fikr-u zikr alarg'a doimo savtu g'azal.

Qosh-u ko'zung fitnasi elning borin zor o'lturur,  
Bir bahona besh emastur odam o'g'lig'a ajal.

Ishq ichinda chora ayturlar badaldur yo safar,  
Ne borurg'a bizga bordur yo'l-u ne bizga badal.

Ul og'izdur yo asalning arisi gulbarg uza  
Nish ila nozuk nishon qildi-yu, to'ldirdi asal.

Gar muslimonsan bu Lutfiy ko'nglun olg'il jahd ila  
"Kohili-yu kofiri" deb bordurur, ore, masal.

\* \* \*

Ey sarvi sihi qomatinga jon bila moyil,  
Ne xush yarashur qaddinga ush shakl-u shamoyil.

Zulfungmudur ul yo mening ohim tutunimu?  
Yo anbari soromudur egningda hamoyil?

Gar ko'rsa edi yuzung uza zulfi musalsal,  
Layli demas erdi arabi shohi qaboyil.

Man' etma ko'zum yoshi eshikingda sochulsun,  
Mahrum karim eshikidin yonmadi soyil.

Fozil erur ul zulf-u yuzung sunbul-u guldin,  
Bermish sanga haq fazl bilan barcha fazoyil.

Lutfiy ko'rар erdi xud ul oy yuzuni bir kun,  
Baxti bad-u tole orada bo'lmasa hoyil.

\* \* \*

Ey jamoling loyazol-u bebadal husnung jamil,  
Oy yuzungdur ahsani taqvim uchun ravshan dalil.

Zulfunguz hayronimenkim, yilda bir yaldo bo‘lur,  
Oyda kim ko‘rmish iki yaldo tuni mundoq tavil?

Og‘zing-u belingning asrorin kamohiy bilmayin,  
Mo‘sikof-u xurdabinlar ichra bo‘ldi qol-u qil.

Chun qaro bodom tobut uzra rasmedur qadim,  
Ko‘z janozam sori solkim, sensizin bo‘ldum qatil.

Ishq mahv etti meni, sen o‘rtadin ket, ey sabo,  
Li ma’allohning maqominda ne hojat Jabrail?

Sunbulungdur uqdayi ra’su yuzung mohi tamom,  
Orazing firdavs-u qad to‘biy-u la’ling salsabil.

Jon berur Lutfiy-u qilmas bir nazar kofir ko‘zung,  
Tole’img‘a ohkim, usruk ekach bo‘ldi baxil.

\* \* \*

Ey sanubar bo'yli dilbar, fikri hijron qilmag'il,  
Shavq o'tinda men gadoni asr-u biryon qilmag'il.

Elga ko'p in'om etarsan dam-badam dashnomni,  
Qadr bilmaslarg'a oxir, muncha ehson qilmag'il.

Shart qildingkim: "Seni men o'lturay!" – o'lturma-dung,  
Chunki etmassan so'zunga, ahd-u paymon qilmag'il.

Andakim, bo'ldum xabarsiz, dog' qo'ydung jonima,  
Emdi bilmasman dema, o'zungni nodon qilmag'il.

O'zgalar sori boqib, g'amza o'qini otmag'il,  
Yuragimni dam-badam hasrat bila qon qilmag'il.

"Sen meni sevdung", debon ne yozg'urursan bandani,  
Gar kerakmas oshiq, avval elni hayron qilmag'il.

Lutfiyi miskinga ko'rguz soidingni lutf ila,  
Bu gadodin nuqrani engingda pinhon qilmag'il.

\* \* \*

Oy yuzungdin etti kishvar xublarig'a infiol,  
Dilrabolig' fani husning davrida topti kamol.

Ul og'iz mehridin o'zga kelmagay mendan javob,  
Andakim, mahshar kuni har zarradin bo'lg'ay savol.

Gar ilindim zulfug'a, ko'r mang meni oshuftadin,  
Donaxo'r etti tuzoqqa bizni ul la'l uzra xol.

Ey munajjim, yor oti birla meni takbir qil,  
Otim oti birla yondoshsun, menga xud yo'q visol.

Kun yuzung davrunda o'ftanmay chiqar, ne vajh ila,  
Angladimkim, tezlikdin topkusi oxir zavol.

G'aflat ahlidin musallam yo'q turur da'vii mehr,  
Bormag'il uyqug'a, ey ko'z, sen xayolidin uyol!

Lutfiy ko'rmas ul yuzung, ko'rsa dag'i bexud bo'lur,  
Dushmaningg'a tushmasun, ey do'st, yo rab, ushbu  
hol.

\* \* \*

Meni shaydo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul,  
Xor-u rasvo qiladurg‘on, bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

O‘qdayin qomatimizni qora qoshlig‘lar uchun  
Muttsasil yo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul,

Meni yozg‘urma “sevar” debki, mening haddim emas,  
Ul tamanno qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

Borma, derlar, eshiki sori damo-dam, netayin,  
Ko‘p taqozo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

Tori mo‘yin havasi birla qorong‘u kechada  
Jonni savdo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

Dushman-u do‘sst orasinda meni g‘ofilni mudom,  
Besar-u po qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

O‘zgadin ko‘rmaki ko‘zung yoshini, ey Lutfiy,  
Ayni daryo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

\* \* \*

Bihamdillohki, keldi dilraboyim,  
Aziz on ko‘zi Cho‘lpon, to‘lun oyim.

Sevar jonio, pari paykar habibim,  
Visoli – rohatim, hajri – baloyim.

Yuzi gul, sochi sunbul, bag‘ri toshim,  
Muhiblarni unutqan bevafoyim.

Murodim davlati, baxtim latifi,  
So‘zi shirin nigorijonfizoyim.

Yana tan sori borg‘on ruh yondi,  
Buyon kelgach safardin mahliqoyim.

Qonimni hajr ila to‘kti yozuqsiz,  
Dudog‘ingdin tilarmen xunbahoyim.

Farah qil, Lutfiykim, dildor keldi,  
Ijobat bo‘ldi hazratta duoyim.

\* \* \*

Ey jon chamani ichra bo‘yi sarvi ravanim,  
Vola erur ul suratinga ruhi ravanim.

Tun kecha sizing kun yuzungiz yodi ichinda  
Kuydurdi falak gunbazini oh-u fig‘onim.

Yuz fitna bila ko‘zlarin, ey dilbari ra’no,  
Bir damda kishi ko‘rmadikim, to‘kmadi qonim.

To‘la etagim la’l-u guhar barcha bahosiz,  
Sarrofmen-u ikki ko‘zum bo‘ldi do‘konim.

Bag‘rim qonidin lola bitib tuprog‘im uzra,  
Bir-bir o‘qug‘ay qolmasa hech nom-u nishonim.

Sen bor, ey raqib, jonio erur ushbu ev ichra,  
Men ketmon eshikindin agar chiqmasa jonio.

Lutfiy joni har nechakim hasrat bila bordi,  
Sen toza-u xush qolg‘in, ayo sarvi ravanim.

\* \* \*

Niqob olki, yuzungdin safo tilay keldim,  
Ko‘ngul elig‘a labingdin shifo tilay keldim.

Adamda bog‘lab edim ul og‘iz xayolini men,  
Ki munda Xizrdek obi baqo tilay keldim.

G‘ubor tutti firoqingda ko‘zni ko‘p yig‘idin,  
Biror izing to‘zidin to‘tiyo tilay keldim.

Qonimg‘a xat chiqorib kirdi ol bila dudog‘ing,  
Bu yerga so‘ra-so‘ra xunbaho tilay keldim.

Azalda bir soching‘a jonni ayladim savdo,  
Yuzungdin emdi anga oshno tilay keldim.

Vafo-u mehr mangakim bo‘lur bu tole ila,  
Ne yoshuray, eshicingdin jafo tilay keldim.

Jamol-u husn ila sen boy-u Lutfiy asru faqir,  
Zakot uchun sadaqangdin navo tilay keldim.

\* \* \*

Zulfdin qat' qilib yuzunga hayron bo'ldum,  
Men agar kofir edim, emdi musulmon bo'ldum.

La'lingiz so'zidin ul ramzki men fahm ettim,  
Borlig'imdin bu jahon ichra pushaymon bo'ldum.

Bosh ko'tardi soching o'g'risi qamar davrinda,  
Ul tatavvulni ko'rub asru parishon bo'ldum.

Ming yashab Nuh agar bir yo'li to'fon ko'rdi,  
Kunda bu yosh bila men g'arqai to'fon bo'ldum.

Malakul-mavt agar bo'lsa raqibing ne ziyon,  
Chun labing ishvasidin boshtin ayoq jon bo'ldum.

Men ko'ngul bermas edim husn eliga zolim deb,  
G'amzang ustodlig'in ko'rdim-u nodon bo'ldum.

Bir og'iz Lutfiy ko'ngul torlig'in so'rmadi hech,  
Garchi ul pista og'iz fikrida biryon bo'ldum.

\* \* \*

“Dudog‘ing ma’dani jondur”, dedim, aytur: “Sanga ne?!”  
“Qomating sarvi ravondur”, dedim, aytur: “Sanga ne?!”

“Qamar otlig‘ yuzung olidadur oy bir habashiy,  
Dag‘i yuzunda nishondur”, dedim, aytur: “Sanga ne?!”

“Tal’ating husni jahoni-yu oning ustidagi  
Soching oshubi jahondur”, dedim, aytur: “Sanga ne?!”

“Yoyu o‘q qop-qora bo‘lmas, magar ul qosh-u ko‘zung,  
Ne ajab tir-u kamondur”, dedim, aytur: “Sanga ne?!”

Xizrdin so‘rmisham: “Irningmu durur obi hayot?  
Iso anfosi hamondur”, dedim, aytur: “Sanga ne?!”

Xurdabinlar ul og‘izniki “Adamdur”, dedilar,  
“Onda bir zarra gumondur”, dedim, aytur: “Sanga ne?!”

“Zulf-u, yuz-u, ko‘z-u meng-u g‘amzang – barcha  
Fitnai ahli zamondur”, dedim, aytur: “Sanga ne?!”

“Oy yuzung kun kibi zarroti jahon mazharida  
Barcha olamda ayondur”, dedim, aytur: “Sanga ne?!”

Bo‘ldi ko‘p fikri daqiq ichra xayoli Lutfiy,  
“Bu ne mo‘y-u ne miyondur?” dedim, aytur: “Sanga  
ne?!”

\* \* \*

Keljadi sentek jahonda dilbari ayyorae,  
Nasli odam ichra yo‘q mundoq pari ruxsorae.

Qon to‘kar, el bilmasunlar deb o‘zin to‘g‘ri qilur,  
Ko‘rmadi hech kim ko‘zidek jodui makkorae.

Tortaram yuz ming jafo ko‘nglum elindin, koshki  
Bergay erdi haq ko‘ngul berguncha sangi xorae.

Yodimakim haq yaratmish yaxshilarni lutf ila  
Kim, alarning ko‘rkidin osonlag‘ay bechorae.

Hajr uzotur erdi ko‘p zulm ilgini tan mulkida,  
Bo‘ldilar jon-u ko‘ngul bir-birisi ovorae.

Husn to‘nin kiyding-u esking uchun bo‘ldi talosh,  
Tortishib gul topti oxir ko‘nglaki sadporae.

Lutfiyning yo ko‘nglin olg‘in, yoxud o‘ltur tig‘ ila,  
Har netak ko‘nglung bila bechoraga qil chorae.

\* \* \*

Ey shakkaringda mu'jizi Iso qarinasi,  
Yusuf jamoli vasm-u sifoting kaminasi.

La'ling xayoli zehni naqsh bo'lg'ali,  
Ko'nglum erur javohiri g'aybi xazinasi.

Ashhab ilik uzatqoli egningakim bo'lur,  
Zevar etar ham ul qaro soch anbarinasi.

Ey g'amzang o'qlarig'a nishon ruh paykari  
V-ey dog'i hasratingg'a makon qalb siynasi.

Ul qosh toqina qo'yub erdim, usholdi oh,  
Usruk ko'zung olida ko'ngul obginasi.

Top og'zing-u labingni ko'rub tang qolmisham,  
Kim ko'rdi ruhi javhari, xotam niginasi?

Lutfiy kalomi etsa Samarqand ahlina,  
Amudin o'tmas edi Xo'jandiy safinasi.

\* \* \*

Ey sunbuling nasiimida jannat shamomasi,  
Ishqinda choki gul kibi jon jaybi jomasi.

Odam hanuz ravzada erdiki bo'ldi sayd,  
Bu xol donasi sari ko'nglum hamomasi.

Ul la'l davrida garav jom uchun faqeh,  
Bosh qo'ydi dayr ichinda, chi joyi amomasi.

Zulfung g'amida tun kecha ohim tutunidin,  
To'ldi sipehri majmari, anbar shamomasi.

Ul tor og'iz bila bu ko'ngul rozi ishqina,  
Elning havosi mahram emas xos omasi.

Lutfiy firoqing emgakini daftar etgali,  
Afsona bo'ldi ertagilar ishq nomasi.

\* \* \*

Ey lablari ravza salsabili,  
Jon naqdi dudoqlaring sabili.

Qildin desa inchkarorq belingni,  
Yo'qtur kishining qol-u qili.

Og'zing sifatin qilurda xoma  
Ko'p totliq uchun yorildi tili.

Gar aql quyosh desa yuzungni,  
Bordur bu so'z ichra yuz dalili.

Ungay bori ravzasinda nargis,  
Chun Lutfiy erur ko'zung qatili.

\* \* \*

Nozuklik ichra belicha yo'q tori gisuyi,  
O'z haddini bilib belidin o'lturur quyi.

Zulfı shikastasında u kun ongladi o'zi,  
Oylarda sinmadi bu ko'ngulning bir orzuyi.

Mundoqki yaxshi yerga tushubtur topib qabul,  
Shak yo'qki, muqbil ul dudog'ing xoli hinduyi.

Qush og'zi tegsa la'l o'la minqori to'tidek,  
Yoqtung uchun onda ko'roqsa ko'zum suyi.

Ko'rguzmadung tushumda biror zulf-u orazin,  
Ey baxt, dedikim senga kim, tun-u kun uyi.

Javr etsa, mehr umidi tutarmen hanuzkim,  
Bir tavr qolmas odamining xislat-u xo'yи.

Lutfiy boshin evurdi sochi inichka bel ila,  
Ul hind-u rishta birla magar qildi joduyi.

\* \* \*

Ey suratingg'a vaqf malohat viloyati,  
Vash-shams surasi yuzung-u xol oyati.

Yuzungda zohir ahsani taqvim hayoti,  
Og'zingda juzvi lo yatajazzo kinoyati.

Zulfung firoqidin bitayin shammae dedim,  
Aql etti: "Boshlamaki, uzundur hikoyati".

Ko'z sadqasi yoshimg'a nazar qilki, rasm erur  
Soyilg'a notavon kishilarning inoyati.

Qildi seni vafosiz uchun husn bevafo,  
Ne qilsun o'zga dunyoda suhbat siroyati.

Yuz dardini sochingg'a ko'ngul bog'ladi o'zin,  
Davri qamarda har kishining bor himoyati.

Ul ko'z-u g'amza vasfida qilg'aymu erdi sehr  
Lutfiy haqinda bo'lmasa haqning hidoyati?

\* \* \*

Ey, englaring hadiqayi firdavs lolasi,  
Gulzori husn ravnaqi ko'zung g'azolasi.

Ko'zung jafo-yu javr qilurdin emas malul,  
Go'yoki xush kelur sanga ushshoq nolasi.

Qonmay ichib qonimni, biror qilmas iltifot  
Usruk ko'zungki, to'la tushubtur piyolasi.

Tek va'dalar so'ngincha bu kun tongla xoli deb  
Kechti hayot-u etmadi bir vasl holisi.

Yomg'ur yog'ar qo'tonlasa, ey qon sochar ko'zum,  
Oytek yuzini tutqoli ul mushki holasi.

Shod o'lma etsang, ey dil, agar vasl xonina  
Kim, zahri hajrsiz emas oxir navolasi.

Og'zina ro'baro'y qilur Lutfiyga meni,  
Yo'q yerda necha bo'lg'ay ul oyning havolasi.

\* \* \*

Bu ko'ngul jon tortadur ul lablari marjon sori,  
Kimki jonliq bo'lsa mayl etgay, bale jonon sori.

Har tarafdin turrai tarrowi din qasdindadur,  
Kofir erkan, ne uchun yuzi tushar imon sori?

Ey ko'ngul, jonni xayoli olida qil peshkash,  
Har nima bo'lsa aziz, eltur kishi mehmon sori.

Ahli ma'ni suratingning husnina hayron qolur,  
Misr elining ko'zi yanglig' Yusufi Kan'on sori.

Ko'rgali oshufta zulfungni qamarning davrida  
Xotirim qilmas kashish qat'an sar-u somon sori.

Husn davridur g'animat, emdi qo'y yuzuma yuz,  
Oy nechakim bo'lsa komil, yuz urur nuqson sori.

Qosh-u ko'zung g'oratinda Lutfiydin ketti ko'ngul,  
Oqibat, toptim so'rog'in Chin-u Turkiston sori.

---

## RUBOIYLAR

\* \* \*

Umriz kechti g‘am-u mehnat bila,  
Xizmatingda yuz tuman hasrat bila.  
Yorlig‘ingdin bizga naf‘e tegmadi,  
Emdi ozod aylagil minnat bila.

\* \* \*

Ko‘nglum olding g‘amzai fatton ila,  
Eshicingda qul bo‘lubmen jon ila.  
Bizni, ey g‘uncha og‘izliq, tobakay  
Yig‘latursen ul labi xandon ila?

\* \* \*

Gar tanim tuproq ichinda gard o‘la,  
Anda ham mehring ajab gar sard o‘la.  
Shartim ulkim, yor uchun bosh o‘ynasam,  
Qavlidin yong‘on kishi nomard o‘la.

\* \* \*

To sening ishqingga bo‘ldum oshno,  
Hech qila bilmon tobuqdin oshno.  
Gavhari vasling tamannosi uchun  
G‘am muhitinda qilurmen oshno.

\* \* \*

Ojiz o'ldum vaslingiz tadbirina,  
Vah, mening bu tole'im taqsirina.  
Har ne kelsa kelsun ul dildor uchun,  
Chora yo'qtur tengrining taqdirina.

\* \* \*

Men ko'ngul berdim yangoqing olina,  
Bo'lmadim voqif bu makru olina.  
Emdi lobud chora yo'q ko'rmaq kerak,  
Har ne tengri solmish o'lsa olina.

\* \* \*

Vahki, men bexudlug'imdin, ey sanam,  
Oy yuzungni ko'rmadim bir kun qona.  
Qonima to'ksang raqiblar shod o'lur,  
Itlaringning zavqi bor, ore, qona.

\* \* \*

Yo rab, ul shamsuz-zuho yo sizmusiz?  
Yo magar badri dujo yo sizmusiz?  
Men sevarmen sizni-yu siz o'zgani,  
Menmudurmen bevafo yo sizmusiz?

\* \* \*

Ey avji malohat ustida oy yuzluk,  
Gulzori latofat aro nargis ko'zluk.  
Qoshingda agarchi egrilik bor, vale  
Ul sarv kibi qadingg'a bordur tuzuk.

\* \* \*

Ozg'urur olamni so'zung, ey begin,  
Ne balodur fitna ko'zung, ey begin?  
Aytayin derman senga ko'nglumdagin,  
Ne deyin, bilursen o'zung, ey begin.

\* \* \*

Dunyo turg'uncha jahonda tur, begin,  
Davri husnung to qiyomat sur, begin.  
Ikki dunyo xublarini noz ila  
Ot uchun bir qamchi birla sur, begin.

\* \* \*

Ne balo sho'xi sitamgarsen, begin,  
Gulruhu sarv-u sanubarsen, begin.  
Men giriftor-u senga yo'qtur xabar  
Ne ajab berahm dilbarsen, begin.

\* \* \*

Oy yuzungdin oy-u kun ko'p ostin,  
Ul tani nozuktur oqroq ostin.  
Yo'l din eltur barchani raftoringiz,  
Har qachon qilsang sarandoz ostin.

\* \* \*

To eshittim dilbarimning og'riqin,  
G'am qasos etti jonimg'a qissaqin.  
Bir kun og'riqtin taning bo'ldi hilol,  
Doimiy dardimni ham mundin soqin.

\* \* \*

Sen malohat masnadining xonisen,  
Sen masihodam ko‘ngullar jonisen.  
Husn mulkitek xush ermas kishvari,  
Ey xush ul kishvarki, sen sultonisen.

\* \* \*

Sen kamol-u fazl ila sultonsen,  
Saltanatqa chum chiloy arzonen.  
Husn mafhumina sensen mosadaq,  
Ham malohat hujjati burhonsen.

\* \* \*

Sen zarofati jismining jonisen,  
Sen ko‘ngullar dardining darmonisen.  
Kim yuzungni ko‘rsa aqlindin ketar,  
Go‘iyo sen Yusufi Kan’onisen.

\* \* \*

Sen latofat paykarining xonisen,  
Husn avjining mahi tobonis.  
Gar pari desam seni, ma’zur tut,  
Chun ko‘zum insonidin pinhonisen.

\* \* \*

Sen vafo iqlimining sultonisen,  
Sen ma’oni-yu zarofat konisen.  
Dunyoda sentek topilmas odamiy,  
Sen magar firdavsning rizvonisen?

\* \* \*

Uyqu uchti, jonga tushti valvala,  
Necha xublar sori o‘g‘rin ko‘z sola?  
Bu yorug‘luq jumla xublar yuzidur,  
Bir bahona besh emastur mash’ala.

\* \* \*

Men tilarmen vasling ohi sard ila,  
Diydai giryon-u ro‘i zard ila,  
Zarraye ko‘nglunga ta’sir aylamas,  
Necha kun nolish qilurman dard ila.

\* \* \*

To hayotindin kishikim mahl o‘la,  
Kechmagay yorindin ulkim ahl o‘la,  
Qo‘ymag‘il bizni raqib so‘zi bila,  
O‘zga yon har dam egilmak sahl o‘la.

\* \* \*

Ey ko‘ngul, bu yo‘lda ne g‘amdur sanga  
Kim, xayoli yor bayramdur sanga.  
Sevdung o‘z haddingdin ortuq yorni,  
Gar seni kuydursalar kamdur sanga!

\* \* \*

Furqatingni chekkali jon qaydadur,  
Sabr etarga sensiz imkon qaydadur.  
Bizni bir yo‘li faromush aylading,  
Ul burunqi ahd-u paymon qaydadur?

\* \* \*

Gar sayr uchun ul mohi tobon chiqadur,  
Qo'l solib, etak yig'ib xiromon chiqadur.  
Chun jilva qilib nogahon boqsa qiyo,  
Har bir boqishig'a yuz suchuk jon chiqadur.

\* \* \*

Har nechakim sarv qomatlar qo'par,  
Sizga o'xshattim, qiyomatlar qo'par.  
Ul baloliq qoshkim qiyolab yotur,  
Har zamon ondin qiyomatlar qo'par.

\* \* \*

Ulki shamshiri jafo ilkindadur,  
Dard agar bersa davo ilkindadur.  
Dunyolikta menda bil bordur ko'ngul,  
Ul dag'i bizni vafo ilkindadur.

\* \* \*

Surati Yusuf, nigor, sendadur,  
Doim anfosi Masiho sendadur.  
Yuzum o'ldi za'faron dard ilkidin,  
Qil inoyatkim, mudovo sendadur.

\* \* \*

Bevafoliq ichra ravnaqmu bo'lur?  
Da'vii mehr aylasa haqmu bo'lur?  
Bir sog'insang bizni oy-u yil kerak,  
Yaxshilarning mehri mundaqmu bo'lur?

\* \* \*

Dilbaro, Yusuf jamoli sandadur,  
Dilraboliqningki holi sandadur.  
Umr kechti-yu, meni bir so‘rmading,  
Bevafoliqning kamoli sandadur.

\* \* \*

Har necha javr-u jafolar sandadur,  
Yuz chevirman toki jonlar tandadur.  
Bevafoliqni ko‘rub uzmas umid  
Bas, qatiq jonliq ko‘ngulkim mandadur.

\* \* \*

Shevakim, ul sarvi ozodimdadur,  
Ham magar ul mohi Navshodimdadur.  
To abad hargiz unut bo‘lg‘usi yo‘q,  
Bu jamol-u husnkim yodimdadur.

\* \* \*

Bu ne qosh-u g‘amzai ayyor erur?  
Bu ne shakl-u sheva-u raftor erur?  
Sizga osondur agar men bo‘lmasam,  
Sensizin lekin manga dushvor erur.

\* \* \*

Ulki xalq oni malohat koni der,  
Ruh oni husn ichra xublar xoni der.  
O‘rtadi, kul qildi bizni ishq o‘ti,  
Ul jihatdin bizni otashdoni der.

\* \* \*

Sheva ul sarvi ravondin xush turur,  
Noz o'shul joni jahondin xush turur.  
Men sevarmen, ul meni sevmas, darig',  
Bu sevishmak ikki yondin xush turur.

\* \* \*

Kimki jonliq bo'lsa jononi kerak,  
Xastani, albatta, darmoni kerak,  
Bir necha kun har kishi sevgay vale  
Bu muhabbatningki poyoni kerak.

\* \* \*

Jomi ishrat har qachon no'sh aylasang,  
G'amza birla bizni madhush aylasang.  
Xizmatingda tutmas erdim bu umid  
Kim, meni mundoq faromush aylasang.

\* \* \*

Ey sening har bir karashmang qotilim,  
O'tti Majnundin mening dardi dilim.  
Ko'nglum o'rtandi, dog'i jonim chiqar,  
Ishqingizdin ushbular dur hosilim.

\* \* \*

Ul mening joni jahonimg'a salom,  
Jondin ortuq mehribonimg'a salom.  
Bir zamon xoli emasmen yodidin,  
Munisi joni ravonimg'a salom.

\* \* \*

Husn elining xoni bordi, netayin?  
Ahli dillar joni bordi, netayin?  
Sho‘ri ishqin qo‘ydi ko‘nglum boshig‘a,  
Ul malohat koni bordi, netayin?

\* \* \*

Yillar uchtum garchi ishqing bolidin,  
Topmadim bir zarra og‘zing bolidin.  
Chun sanga ishq emgaki tushmaydurur,  
Ne bilursan xastalarning nolidin?

\* \* \*

Ey visoling davlati ahli futuh,  
Zulf-u yuzung yodidur oromi ruh.  
Gar ilik tut sang ravon tutqin, begin,  
Sabri Ayyub bo‘lsa, yo‘qtur umri Nuh.

\* \* \*

Sensizin aysh-u sururim qolmadi,  
Yig‘lamoqtin ko‘zda nurim qolmadi.  
Ul quyosh yuzungdin ayrulg‘on uchun,  
Qayg‘udin zarra huzurim qolmadi.

\* \* \*

Sayd qildi bizni jayron ko‘zлari,  
Delva bo‘ldi jon, eshitib so‘zлari.  
Yor agar qilsa inoyat, ne ajab,  
Qulni chun devona qildi o‘zлari.

\* \* \*

Gar ko'ngul sevdi seni qon qilmadi,  
Kuch bila o'zini hayron qilmadi.  
Sizdin ush muncha vafosizliq ko'rub,  
E'tiqodim zarra nuqson qilmadi.

\* \* \*

Ko'rgamen nogah yangoqing vardini,  
Tortgamen ko'zga ayoqing gardini.  
Topqamen deb vaslidin bir kun davo,  
Tortaram doim firoqing dardini.

## TUYUQLAR

\* \* \*

Ko'z yoshim tuproq ila gar qotila,  
Kelmagayman javridin, haqqo, tila.  
G'amzasi o'lturdi-yu, ul bexabar,  
Men agar o'lSAM ne g'am ul qotila?

\* \* \*

Qomatimni necha qoshing yo qila?  
Necha hajr o'ti jonimda yoqila?  
G'amza birla to'kti qonim ul sanam,  
To hinotek qon elina yoqila.

\* \* \*

Kechti umr-u tushmadi ul yor ila,  
Qo'rqaram ko'nglum bu g'amdin yorila.  
Bu vafosizliqki, sendin ko'rmisham,  
E'tiqodim qolmadni hech yor ila.

\* \* \*

Ey ko'ngul, yorsiz sanga ne bor, bor,  
Qaydakim ul zulfi anbarbor, bor.  
Chek jafo-u javr-u nozi borini,  
Bir kun o'lg'aykim, degaylor: "Bor-bor!"

\* \* \*

Qoshlaring xush lojuvardi toq erur,  
Husn ichinda benazir-u toq erur.  
Torta olmasiman firoqing netayin,  
Qilcha tanga bori ishqing toq erur.

\* \* \*

Sindi ko'nglum shishasi g'am toshidin,  
Qon siroyat qildi ich-u toshidin.  
Qo'rqaram sen ham vafosizlar bikin  
Bo'limg'aysan ichi kufri toshidin.

\* \* \*

Ko'ngluma har yonki boqsam, dog'i bor,  
Har necha dardimni desam, dog'i bor.  
Qilcha tanga bori ishqing yor edi,  
Bir sori bo'ldi firoqing dog'i bor.

\* \* \*

Men sening ilkingdin, ey dil, bandamen,  
Vah, qachon yetkaymen ud dilbanda men.  
Bevafolarg'a meni qilding asir,  
Sen menga sultonsan, ey dil, banda men.

\* \* \*

Charxi kajraftor elidin yozamen,  
Chiqmadir hijron qishindin yoza men.  
Bir meni yorliq bila yod etmas ul,  
Har necha ul shahg'a qulluq yozamen.

\* \* \*

Tilasangkim, anbari tar sochasen,  
El bila qilg'il ishorat socha sen.  
Shakkarafshon qil chamanda so'z ila,  
Infiol ber to'ti, bulbul, socha sen.

\* \* \*

Dilbaro, tushtim iliktin tila men,  
Sendin o'zga ne jahonda tilamen.  
Gar raqibim tushsa mening qo'luma,  
Orqasindin tasmalar ko'p tilamen.

\* \* \*

Bog'i husnungdin gule gap tergamen,  
Bosh agar borsa bu yo'lda, tergamen.  
Oy yuzungni kunga o'xshatqan uchun,  
G'arq bo'lmushmen uyottin terga men.

\* \* \*

Bir nazar qildim, qul o'ldum oya men,  
Ul sababdin jon-u dilni oyamen.  
Gar meni shohimg'a yetkursa xudoy,  
Hazratingda sarguzashtim oyamen.

\* \* \*

Garchi qurutmas ko'zumning yoshini,  
Haq uzun qilsun ul oyning yoshini.  
Yig'lama ko'p, bu vujuding ishq o'ti  
Ne qurug'in qo'yg'usi, ne yoshini.

\* \* \*

Tuz, begin bu damda suhbat ko'kini,  
Tut ayoq, kes dard-u g'amning ko'kini.  
Ilikingdin chiqsa boshqa bir ayoq,  
Ko'zga ilmon dunyoning yer-ko'kini.

Topti bulbul noladin bozorini,  
Kim sevar gul nolai bo zorini.  
Pista gar lof urdisa og'zing bila,  
Sindur ul og'zi ochuq bozorini.

\* \* \*

To ishim tushti bir og'zi tor ila,  
Ko'nglumi asror g'ami bir tor ila.  
Ko'z tutarmenkim, ko'zumnung suyidin  
Ko'ngli, vah, tuxmi muhabbat torila.

\* \* \*

Aql-u jonning ofati, din g'orati,  
Har ne bor ul ko'zi birla qoshdadur.  
Ketmadi savdosi hargiz boshtin,  
Rost ayturlar, ki "Davlat boshdadur".

\* \* \*

To'nga sig'masmen farahdin gul kibi,  
Kelsa ul sarvi ravon bir-bir manga.  
Muncha yil ketgan bu baxt-u davlatim,  
Shukrilillahkim, kelur bir-bir manga.

\* \* \*

Bermagil derlar vafosizga ko‘ngul  
Kim, aning no‘shindin ortuq neshi bor.  
Uzmagaymen la‘lidin o‘lsam umid,  
Jon mening jonim, kishining neshi bor.

\* \* \*

Zoti pokingjni ko‘rub aytur falak:  
“Husn daryosida yo‘qtur bo‘yla dur”.  
Chun tishing vasfini durga so‘zladim,  
Boshini tebratti durkim: “Bo‘yladur”.

\* \* \*

Furqatingdin bo‘lmisham zor-u zaif,  
Tengri uchun, mundin ortuq qilma zor.  
Chun mening qonimni to‘ktung hajr ila,  
O‘z eshiging tegrasinda qil mazor.

\* \* \*

Ey qaroqchi ko‘zli dilbar, o‘yla bil,  
Jon ayoman sen kibi jononadin.  
Husn-u lutf-u surat-u ma’ni bila,  
Tug‘magay sentek yana jon onadin.

\* \* \*

Ishqing o'ti jon uyig'a tushgali,  
Bir nafas ham tinmadim to yonmadim.  
Xublar ilkidin necha bo'ldim kabob,  
Men yamon tavbamg'a hech toyonmadim.

\* \* \*

Ko'rmadi inson munungdek nozanin,  
Ko'rguzur go'yo malak yuz, yo pari.  
Barcha jon devona-u shaydo qilur  
Zulfi anbarbor ila yuz yopari.

\* \* \*

Sabr-u hush-u aql-u din-u dil bari  
Bordi-yu, qoldi duochi yolg'uzun.  
Oh urub faryod etarman sensizin,  
Bu vujudimdin qilibtur yolg'uz un.



## ALISHER NAVOIY

## G'AZALLAR

\* \* \*

Ashraqat min aksi shamsil-ka'si anvorul-hudo ,  
Yor aksin mayda ko'r deb, jomdin chiqti sado.

G'ayr naqshidin ko'ngul jomida bo'lsa zangi g'am,  
Yo'qtur, ey soqiyl, mayi vahdat masallikg'amzudo .

Ey, xush ul maykim, anga zarf o'lsa bir sing'an safol,  
Jom o'lur getinamo, Jamshid, ani ichkan gado.

Jom-u may gar bo'yladur, ul jom uchun qilmoq bo'lur,  
Yuz jahon har dam nisor, ul may uchun ming jon fido.

Dayr aro hush ahli rasvo bo'lg'ali, ey mug,  
Jomi may tut sang meni devonadin qil ibtido .

Toki ul maydin ko'ngul jomida bo'lg'ach jilvagar,  
Chehrayi maqsudi mahv o'lg'ay hamul dam moad .

Vahdate bo'lg'ay tuyassar may bila jom ichrakim,  
Jom-u may lafzin degan bir ism ila qilg'ay ado.

Sen gumon qilg'andin o'zga jom-u may mavjud erur,  
Bilmayin naf etma bu mayxona ahlin, zohido.

Tashnalab o'lma Navoiy, chun azal soqiysidin,  
«Ishrab-u, yo ayyuhal-atshon» kelur har dam nido.

\* \* \*

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro‘ kelmadi,  
Ko‘zlarimg‘a kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqdim-u, chektim yo‘lida intizor,  
Keldi jon og‘zimg‘a-vu, ul sho‘xi badxo‘ kelmadi.

Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot,  
Ro‘zgorimdek ham o‘lg‘onda qorong‘u kelmadi.

Ul parivash hajridinkim, yig‘ladim devonavor,  
Kimsa bormukim, anga ko‘rganda kulgu kelmadi.

Ko‘zlariningdin necha su(v) kelgay, deb o‘lturmang  
meni,  
Kim bori qon erdi kelgan, bu kecha su(v) kelmadi.

Tolibi sodiq topilmas, yo‘qsa kim qo‘ydi qadam,  
Yo‘lg‘akim, avvalqadam ma’shuqe o‘tru kelmadi.

Ey Navoiy, boda birla xurram et ko‘nglung uyin,  
Ne uchunkim, boda kelgan uyga qayg‘u kelmadi.

\* \* \*

Qaro ko‘zum, kel-u, mardumliq emdi fan qilg‘il,  
Ko‘zum qarosida mardum kebi vatan qilg‘il.

Yuzung guliga ko‘ngul ravzasin yasa gulshan,  
Qading niholig‘a jon gulshanin chaman qilg‘il.

Takovaringg‘a bag‘ir qonidin xino bog‘la,  
Itingg‘a g‘amzada jon rishtasin rasan qilg‘il.

Firoq tog‘ida topilsa, tufroqim, ey charx,  
Xamir etib yana ul tog‘da ko‘hkan qilg‘il.

Yuzung visolig‘a yetsun desang ko‘ngullarni,  
Sochingni boshtin-ayoq chin ila shikan qilg‘il.

Xazon sipohig‘a, ey bog‘bon, emas mone’,  
Bu bog‘ tomida gar ignadin tikan qilg‘il.

Yuzida terni ko‘rib, o‘lsam, ey rafiq, meni  
Gulob ila yuv-u, gul bargidin kafan qilg‘il.

Navoiy, anjumane shavqi jon aro tuzsang,  
Aning boshoqliq o‘qin sham‘i anjuman qilg‘il.

\* \* \*

Ko'rgali husnungni zor-u mubtalo bo'ldum sanga,  
Ne baloliq kun edikim, oshno bo'ldum sanga.

Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendin ko'ngul,  
Vahki, kun-kundin batarrak mubtalo bo'ldum sanga.

Men qachon dedim, vafo qilg'il manga – zulm aylading,  
Sen qachon deding, fido bo'lg'il manga – bo'ldum sanga.

Qay pari paykarg'a dersen, telba bolding bu sifat,  
Ey pari paykar, ne qilsang, qil manga, bo'ldum sanga.

Ey ko'ngul, tarki nasihat ayladim, ovora bo'l,  
Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo'ldum sanga.

Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,  
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga.

G'ussa changidin navoe topmadim ushshoq aro,  
To Navoiydek asir-u benavo bo'ldum sanga.

\* \* \*

Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin,  
Ko'ngluma har birining dard-u balosinmu deyin?!

Ko'zi qahrinmu deyin, kirpiki zahrinmu deyin,  
Bu kudurat ichra ruxsori safosinmu deyin?!

Ishqi dardinmu deyin, hajri nabardinmu deyin,  
Bu qatiq dardlar aro vasli davosinmu deyin?!

Zulfi dominmu deyin, la'li kalominmu deyin,  
Birining qaddin, yana birning adosinmu deyin?!

Turfa xolinmu deyin, qaddi niholinmu deyin,  
Movi(y) ko'nglak uzra gulrang'i qabosinmu deyin?!

Charx ranjinmu deyin, dahr shikanjinmu deyin,  
Jonima har birining javr-u jafosinmu deyin?!

Ey Navoiy, dema qosh-u ko'zining vasfini, ayt,  
Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin?!

\* \* \*

Jong'a chun dermen: «Ne erdi o'lmakim kayfiyati?»  
Derki: «Bois bo'ldi jism ichra marazning shiddati».

Jismdin so'rsamki: «Bu vaz'ingg'a ne erdi sabab?»  
Der: «Anga bo'ldi sabab o'tluq bag'irming hirqati».

Chun bag'irdin so'rdum, aytur: «Andin o't tushti manga,  
Kim ko'ngulga shu'la soldi ishq barqi ofati».

Ko'ngluma qilsam g'azab, ayturki: «Ko'zdindur gunoh,  
Ko'rmayin ul tushmadi bizga bu ishning tuhmati».

Ko'zga chun dermenki: «Ey tardomani yuzi qaro,  
Sendin o'l mish telba ko'nglumning balo-yu vahshati».

Yig'lab aytur ko'zki: «Yo'q erdi manga ham ixtiyor, –  
Ki ko'rindi nogahon ul sho'xi mahvash tal'ati».

Ey Navoiy, barcha o'z uzrin dedi, o'lguncha kuy, –  
Kim sanga ishq o'tio'q ermish azalning qismati.

\* \* \*

Yordin ayru ko‘ngul mulkedurur sultoni yo‘q,  
Mulkkim sultoni yo‘q, jismedururkim joni yo‘q.

Jismdin jonsiz ne hosil, ey musulmonlarkim, ul  
Bir qaro tufrog‘dekdurkim, gul-u rayhoni yo‘q.

Bir qaro tufroqkim, yo‘qtur gul-u rayhon anga,  
Ul qorong‘u kechadekdurkim, Mahi toboni yo‘q.

Ul qorong‘u kechakim, yo‘qtur Mahi tobon anga,  
Zulmatedurkim, aning sarchashmayi hayvoni yo‘q.

Do‘zaxiykim, ravzayi rizvondin o‘lg‘ay noumid,  
Bir xumoredurkim, anda mastliq imkoni yo‘q.

Ey Navoiy, bor anga mundoq uqubatlarki, bor  
Hajridin dard-u va lekin vasildin darmoni yo‘q.

\* \* \*

Meni ishqdin man' etar soda shayx,  
Dema soda shayx, aytkim, loda shayx.

May ustidagi xascha qilma hisob,  
Agar suv uza solsa sajjoda shayx.

Yorug'luq emas mumkin andinki, bor  
Zalolat tariqida aftoda shayx.

Riyo bahri ichra tama' zavraqin  
Solibtur asodin tutub xoda shayx.

Yoyar domi tazvir el saydig'a  
Qilib subhadin dona omoda shayx.

G'azabda sabu', shahvat ichra bahim,  
Agarchi emr odamizoda shayx.

Kirar odamiy sonig'a qilsa no'sh,  
Fano dayrida bir qadah boda shayx.

Ibodattin o'lg'ay edim bandasi,  
Agar topsam erdi bir ozoda shayx.

Eranlardin o'zni tutor garchi, bor  
O'kush zeb-u ziynat bila moda shayx.

Navoiy tilar soda yuzluk yigit,  
Ne g'am gar oni man' etar soda shayx.

\* \* \*

Sen o‘z xulqingni tuzgil, bo‘lma el axloqidin xursand,  
Kishiga chun kishi farzandi hargiz bo‘lmadi farzand.

Zamon ahlidin uz payvand, agar desang birov birla  
Qilay payvand bore, qilmag‘il noahil ila payvand.

Ko‘ngul komini qo‘y, gar xud mening devona ko‘nglumni  
Toparsen uyla yuz parkand-u, sol har itga bir parkand.

Eshitmay xalq pandin, turfakim pand elga ham dersen,  
Qila olsang, eshitgil pand, sen, kim elga bermak pand.

Bu foniy dayr aro gar shohlig‘ istar esang, bo‘lg‘il  
Gadolig‘ nonig‘a xursand-u, bo‘lma shahg‘a hojatmand.

Bo‘lub nafsingg‘a tobe’, band etarsen tushsa dushmanni,  
Senga yo‘q nafsdek dushman, qila olsang, ani qil band.

Shakarlablar tabassum qilg‘anin ko‘rgach ko‘ngul berma,  
Ki bedillarni achchig‘ yig‘latur oxir bu shakkarxand.

Jahon lazzotini shirin ko‘rarsen, lek bandingdur,  
Giriftor o‘lma, voqif bo‘lki, qayd-u qand emr monand.

Ko‘nguldin jahl ranji dofii, gar istasang, bordur,  
Navoiy bog‘i nazmi shakkaristonida ul gulqand.

\* \* \*

O'n sakiz ming olam oshubi agar boshindadur,  
Ne ajab, chun sarvinozim o'n sakiz yoshindadur.

Desa bo'lg'aykim, yana o'n sakiz yil husni bor,  
O'n sakiz yoshinda muncha fitnakim, boshindadur.

O'n sakiz yil, dema, yuz sakson yil o'lsa, uldurur  
Husn shohi, ul balolarkim ko'z-u qoshindadur.

Hayrat etmon husn-u naqshidaki, har hayratki bor,  
Borchasi Ezid taolo sun' naqqoshindadur.

Tan anga siym-u, ichinda tosh muzmar ko'nglidin,  
Aqlg'a yuz hayrat ul Oyning ich-u toshindadur.

May ketur, ey mug'ki, yuz hayrat aro qolmish Masih,  
Bui' ajablarkim, bu eski dayr xuffoshindadur.

To Navoiy to'kti ul Oy furqatidin bahri ashk,  
Har qachon boqsang, Quyosh aksi aning yoshindadur.

\* \* \*

Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko‘rmadim?!  
Ko‘rguzub yuz mehr, ming dard-u balosin ko‘rmadim?!

Kimga boshimni fido qildimki, boshim qasdig‘a  
Har tarafdin yuz tuman tig‘i jafosin ko‘rmadim?!

Kimga ko‘nglum ayladi mehr-u muhabbat foshkim,  
Har vafoga yuz jafo aning jazosin ko‘rmadim?!

Kimga jonimni asir ettimki, jonim qatlig‘a,  
G‘ayr sori xulq-u lutfi jon fizosin ko‘rmadim?!

Kimga soldim ko‘z qaro-vu oqini ishq ichrakim,  
Qon aro pinhon ko‘zum oq-u qarosin ko‘rmadim?!

Sen vafo husn ahli din qilma tavaqqu’, ey rafiq, —  
Ki men ushbu xaylning husni vafosin ko‘rmadim.

Ey Navoiy, tavba andin qilmadim shayx ollida, —  
Kim bu ishda dayr pirining rizosin ko‘madim.

\* \* \*

Har gadokim, bo'ryoyi faqr erur kisvat anga,  
Saltanat zarbaftidin hojat emas xil'at anga.

Kim fano tufrog'ig'a yotib qo'yar tosh uzra bosh,  
Taxt uza ermas muzahhab muttako hojat anga.

Shah yurub olam ochar, darvesh olamdin qochar;  
Ham o'zung insof bergilkim, bu ne nisbat anga.

Har ne shah maqsudidur , darveshning mardudidur ,  
Ko'r ne himmatdur munga, ne nav erur holat anga.

Faqr ko'yi tufrog'in shah mulkiga bermas faqir,  
Mulk ko'rkim, teng emas tufrog' ila qiymat anga.

Shah sipah cheksa, faqir ahvolig'a yetmas futur ,  
Bu vale chekkach nafas, barbod o'lur hashmat anga.

Shah emastur bir nafas osuda do'zax vahmidin,  
Ey xusho darveshkim, mardud erur jannat anga.

Shahg'a sidq ahli damidin mash'ali davlat yorur,  
Mehrdekkim, subh anfosi ochar tal'at anga.

Shahg'a shahlig' musallamdur , agar bo'lg'ay mudom,  
Shahlig' tarkin qilib, darvesh o'lur niyyat anga.

Mumkin ermas shahlar ichra bo‘yla niyatlig‘, magar,  
Shohi G‘oziykim, muyassar bo‘ldi bu davlat anga.

Shahlar darveshi-yu, darveshlar shahiki, bor  
Shahlig‘ suvrat anga, darveshlik siyrat anga.

To shah-u darvesh bo‘lg‘ay aylagil, yo rab, ayon,  
Shahdin xidmat munga, darveshdin himmat anga.

Gar Navoiy so‘z uzatti, faqrin ermas demang,  
Bo‘limg‘uncha hukm shahdin, qayda bu jur’at anga?!

\* \* \*

Gulruxi ra'noqadim chun bog' tavf aylar borib,  
Infiolidin guli ra'no qizarib, sarg'oyib.

Yuz shikof etting tanim, yo'q erdi ko'nglumdin nishon,  
O'yakim o't topmag'aylar kulni har yon axtorib.

Sovug' ohimdin yorug'liq oz, vale ko'p tiyrilik,  
Qishda ul yanglig'ki, tun bo'lg'ay uzun, kun qisqorib.

Za'f vaqtি ko'yidin chiqmoq taxayyul aylasam,  
Ikki qatla har qadamda timmoq istarmen horib.

Tutmadim bo'g'zim sabudek boda tarki aylabon,  
May tilarmen piri dayr ollida balkim yolborib.

Soqiyo, lab tashnamen, andoqli, ko'k jomi to'la,  
Boda tuttsang, sarnigun aylarmen ani sipqorib.

Ey ajal, hijron aro olding Navoiy jonini,  
Lutf qilding, jonni andin, ani jondin qutqorib.

\* \* \*

Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg‘a ayt,  
Yig‘larimning shiddatin gulbargi xandonimg‘a ayt.

Buki aning ahd-u paymonida men o‘lsam dag‘i,  
Yaxshi fursat topsang, ul bad ahd-u paymonimg‘a ayt.

Buki aning zulfi zunnorida dinim hosili,  
Kufr ila bo‘lmish mubaddal , nomusulmonimg‘a ayt.

Buki qilmishmen jahon-u jonni aning sadqasi,  
Yuz tuman jon-u jahondin yaxshi jononimg‘a ayt.

Buki yuz jon sadqasi qilsam pushaymon bo‘limg‘um,  
Vaslig‘a bir va’da qilg‘andin pushaymonimg‘a ayt.

Buki yuz ming fitnako‘zlug bo‘lsa paydo onsizin,  
Qilmag‘um nazzora hargiz, ko‘zi fattonimg‘a ayt.

Buki chok aylab yoqa, usruk chiqar el qasdиг‘a,  
Men o‘lub el jon topar, beboki nodonimg‘a ayt.

Dahr bog‘i gullari husnin vafosiz erkanin,  
Yuzi gul, jismi suman, ko‘yi gulistonimg‘a ayt.

Ey Navoiy, hech gulshanning seningdek xushnavo,  
Bulbuli yo‘q erkanin shohi suxandonimg‘a ayt.

\* \* \*

Do'stlar, ahli zamondin mehr umidi tutmangiz,  
Mehri gardun bo'lsalar ko'z nuridin yorutmangiz.

Gar shah o'lsin, gar gadokim, solmangiz yuziga ko'z,  
Yodini balkim ko'ngulga har taraf yovutmangiz.

Zulm ila yuz chok qilg'an tang'a gar malham yoqib,  
Butkarurbiz, desalar, ul zaxmlarni butmangiz.

El jafosining maloli qilsa har dam qasdi jon,  
Ko'nglungizni g'ayri bekaslik bila ovutmangiz.

O'ksudi el mayli mendin, bir yo'li, ey dard-u g'am,  
Gah-gahe siz bore boshimdin qadam o'ksutmangiz.

Hajr o'tin jonimg'a yoqtim ko'rsangiz usruk meni,  
Endi, ey pand ahli, do'zax o'tidin qo'rutmangiz.

Chun Navoiy dasht tutti emdi zinhor, ey vuush, ey  
Kim, bashar jinsini ul majnun sari yovutmangiz.

\* \* \*

Ko‘z qonidin dema, etagim lolavordur ,  
Kim, ko‘hi dardning etagi lolazordur.

Har lola bir axgar erur, lek siynaso‘z ,  
Qay ko‘hi dard aro bu sifat lola bordur.

Bir gul yuzi firoqida xunobi ashk ila,  
Yuz za’faroni ichra ko‘zum lolakordur .

El poymol etarlar uzub dasht-u tog‘ aro,  
Baskim, yuzung guli qoshida lola xordur.

Qon ichra g‘arq bag‘rim aro dog‘-u dasht uza,  
Bekasligim chog‘ida manga lola yordur.

Soqiy, ketur surohiy ila lolagun qadah,  
Xossa bu damki, subh yeli lolabordur .

Tegramda ohdinki erur, ey Navoiy, o‘t,  
Ko‘z qonidin dema etagim lolavordur.



Ko‘nglum ichra dard-u g‘am, avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas,  
Kim, ul oyning hajri ham, avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas.

Ne sitamkim, qilsa rahmi maxfiy erdi zimnida,  
Emdi qilsa har sitam, avvalg‘ilarg‘ao‘xshamas.

Demangiz Shirin-u Layli oncha bor husn ichrakim,  
Xo‘blikda ul sanam, avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas.

Javridin erdi alamlar, emdi tutmish o‘zga yor,  
O‘lmishamkim, bu alam, avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas.

Ishq aro Farhod ila Majnung‘a o‘xhatmang meni,  
Kim, bu rasvoysi dijam, avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas.

Ko‘yining ehromidin ko‘nglumni man etmang yana,  
Kim, anga azmi haram, avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas.

Ey Navoiy, qilma Jamshid-u Faridun vasfikim,  
Shoh G‘oziyg‘a karam, avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas.

\* \* \*

Oshiq o'ldum, bilmadim, yor o'zgalarga yor emish,  
Olloh-olloh, ishq aro mundoq balolar bor emish.

Qaddig'a el mayli bo'lg'ondin ko'ngul ozurdadur ,  
Ul alifdin zorlarning hosili ozor emish.

Elga novak urdi, men o'ldum, erur bu turfakim,  
Jonom etkan resh el bag'rig'a kirgan xor emish.

Rishtakim muhlik yaram og'zig'a tiktik, angladim,  
Kim, kafan jinsi qirog'idin suvurg'on tor emish.

Ko'yi devoridin og'riq tang'a tushkon soyadek,  
Seli g'amdin emdi soya o'rniq'a devor emish.

Jong'a taxvif ayladim tig'i halokidin aning,  
Bilmadim, bu ishtin ul o'lguncha minnatdor emish.

Ey Navoiy, xo'blarni ko'rma osonlig' bila,  
Kim, birovkim soldi ko'z, uzmak ko'ngul dushvor emish.

\* \* \*

Ko‘kragimdur subhning pirohanidin chokrok,  
Kirpikim shabnam to‘kulgan sabzadin namnokrok.

Bu ko‘ngul g‘amnokidin to shodmon ko‘rdum seni,  
Istaram har damki, bo‘lg‘ay xotirim g‘amnokrok.

Layli andin qo‘ydi Majnun ko‘nglida raxti g‘amin,  
Kim, yo‘q erdi manzil ul vodiyda andin pokrok.

O‘yla mujgon xanjarig‘a yopishibdur durri ashk,  
Kim, magar andin yatime yo‘qturur bebokrok.

Lablaringdin jon olurda barcha el quldir sanga,  
Jon berurda bir qulung yo‘q bandadin cholokrok.

Odamiyliq tufrog‘in bersa fano yeliga charx,  
Ohkim, yo‘qtur kishi ahli vafodin xokrok.

Necha o‘qlasang Navoiy ko‘ngli zaxminroq bo‘lur,  
Ko‘rmaduk zaxmeki tikkan soyi bo‘lg‘ay chokrok.

\* \* \*

Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,  
Aylamas to‘ti takallum shakkaristondin judo.

Ul quyosh hajrinda qo‘rqarmen falakni o‘rtagay,  
Har sharorekim , bo‘lur bu o‘tlug‘ afg‘ondin judo.

Dema, hijronimda chekmaysen fig‘on-u nola ko‘p,  
Jism aylarmu fig‘on bo‘lg‘an nafas jondin judo?

Hajr o‘lumdin talx emish, mundin so‘ng, ey gardun,  
meni,  
Aylagil jondin judo, qilg‘uncha jonondin judo.

Bo‘lsa yuz ming jonim ol, ey hajr, lekin qilmag‘il,  
Yorni mendin judo yoxud meni ondin judo.

Vasl aro parvona o‘rtandi hamono bildikim,  
Qilg‘udekdur subh ani shami shabistondin judo.

Bir egasiz it bo‘lub erdi Navoiy yorsiz,  
Bo‘lmasun, yo rabki, hargiz banda sultondin judo.



\* \* \*

Havo xush erdi-yu ollimda bir qadah mayi nob ,  
Ichar edim vale g‘amdin qadah-qadah xunob.

Ki, hozir erdi o‘shul sarvi nargisi maxmur ,  
Valek rag‘mima qilmas‘ edi qadahg‘a shitob.

Manga ne zahrayı ulkim, desamki, bir qadah ich,  
Ne onsiz ichkali may, ne qarori toqat-u tob.

Bu g‘ussa birla ichim qon bo‘lub nechukki qadah,  
Ko‘zumga har nafas ashk evrulur misoli hubob .

Chu angladiki, bordi ixtiyor ilgimdin,  
Kulub qadah kibi lutf ayladi-yu qo‘ydi itob .

Qadahni ichti-yu yuz loba birla tutti manga,  
Ki, aning ichkani-o‘q qildi meni masti xarob.

Chu soqiy etti qadah ko‘zgusida jilvayi husn,  
Ne ayb oshiqi mayxora ko‘ngli bo‘lsa yabob .

Navoiy, vasl bihishtida shukr qil bu nafas,  
Ki, yana chekmagasen hajr do‘zaxida azob.

\* \* \*

Har qachonki, kemaga ul oy safar raxtin solur,  
Mavjlig‘ daryo kibi oshufta ko‘nglum qo‘zg‘olur.

Yig‘lama ey ko‘z, nedin sohilg‘a chiqmas kema deb,  
Kim yoshing daryosidur har soriga el ko‘z solur.

Titrabon simobdek ko‘nglum yetar jon og‘zima,  
Tund yel tahrikidin har damki, daryo chayqolur.

Sabr ko‘nglumda, ko‘ngul ul oyda, ul oy kemada,  
Vahki, borib termulub ko‘z, mungrayib jonio qolur.

Dam tutulg‘andin o‘lar eldek, yetibmen o‘lgali,  
Surmasun deb kemasin baski nafaslar asrolur.

Kirma savdo bahrig‘a olamdin istab sudki,  
Siym naqdi tushsa, lekin umr naqdi siyg‘olur.

G‘arq etar bahri fano g‘am zavraqin , ey piri dayr,  
Ilgiga chunkim Navoiy boda kishtisin olur.

\* \* \*

Navbahor ayyomi bo'lmish, men diyor-u yorsiz,  
Bulbul o'lg'andek xazon fasli gul-u gulzorsiz.

Goh sarv uzra, gahe gul uzra bulbul nag'ma soz,  
Vahki, menmen gung-u lol, ul sarvi gulruxsorsiz.

Tong emastur gar diyor-u yorsiz ozurdamen,  
Kim, emas bulbul gul-u gulzorsiz ozorsiz.

Ravza ashjori o'tundir, gullari jonig'a o't,  
Mumkin o'lsa anda bo'lmog'liq dame dildorsiz.

May chu berding, zulf ila band et meni, ey mug'bacha,  
Kim, xush ermas mug' bila ichmak qadah zunnorsiz.

Topmaduq gulrang jomi bexumor, ey bog'bon,  
Vahki, bu gulshan aro gul butmas ermish xorsiz.

Ahli zuhd ichra Navoiy topmadi maqsadqa yo'l,  
Vaqtin gizni xush tutung, ey jamkim, xummorsiz.

\* \* \*

Orazin yopqoch ko‘zumdin sochilur har lahza yosh,  
O‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lg‘och quyosh.

Qut bir bodom-u yerim go‘shayi mehrob edi,  
G‘orati din etti nogah bir balolig‘ ko‘z-u qosh.

Bu damodam ohim ifsho aylar ul oy ishqini,  
Subhning bot-bot dami andoqki aylar mehr fosh.

Bo‘saye qilmas muruvvat, asr-u qattiqdur labing,  
Desam, og‘zi ichra aytur, la‘l ham bor navi tosh.

Novaking ko‘nglumga kirgach jon talashmoq bu ekin,  
Kim qilur paykonini ko‘nglum bila jonom talosh.

Umri jovid istasang fard o‘lki, bo‘ston Xizridur –  
Sarvkim, da‘b ayladi ozodalig‘ birla maosh.

Qoshi ollinda Navoiy bersa jon ayb etmangiz,  
Gar budur mehrob, bir-bir qo‘yg‘usidur barcha bosh.

\* \* \*

Kechti umrum naqdi g‘aflat birla nodonlig‘da hayf,  
Qolg‘ani sarf o‘ldi anduh-u pyshaymonlig‘da hayf.

Jong‘a bir dushvorlig‘ qo‘ymay riyozat ranjidin,  
Sarf bo‘ldi naqdi avqotim tan osonlig‘da hayf.

Bog‘ladim paymonadin paymon , fig‘onkim, aql-u din,  
Bo‘ldi bu poymona-vu ul sustpaymonlig‘da hayf.

Ey musulmonlar, bilingkim, bo‘ldi umrum hosili  
Nafsi kofir fitnasidin nomusulmonlig‘da hayf.

Hayfkim, naf aylamas har nechakim tortib ilik,  
Desam, o‘z ahvolima bu nav hayronlig‘da hayf.

Andoq ish qilkim, pushaymon bo‘lmaq‘aysenkim, emas,  
Hech osig‘ chun ish xato bo‘ldi pushaymonlig‘da hayf.

Har ne o‘tkan so‘zlarim chindur desam yolg‘on erur,  
Chin budurkim, degamen umr o‘tti yolg‘onlig‘da hayf.

Chun yengilrakdur hisob o‘lg‘anda sultondin gado,  
Hayfkim, bo‘lg‘ay gado avqoti sultonlig‘da hayf.

Ey Navoiy, voqif erman xalqdin, bori mening,  
Kechti umrum naqdi g‘aflat birla nodonlig‘da hayf.

\* \* \*

Men jahondin kechtim-u kechmas mening jonimdin el,  
Men ilig jordin yudum, chekmas ilig qonimdin el.

To'sh-to'shimdin baski rasvolig' o'ti lov-lov yonar,  
Har taraf yo'ldin chiqarlar o'tsalar yonimdin el.

Baxtim uyqusig'a go'yokim surudedur hazin,  
Ko'yida bukim uyumas har tun afg'onimdin el.

Tanimaslar bir-birin yog'qan mazallat gardidin,  
So'rg'ali holim kirib chiqquncha vayronimdin el.

Menda tumori junundek pech, vahkim, bexabar,  
Har taraf ko'nglumda qonlig' dog'i pinhonimdin el.

Istaram, ey Xizr, kelgaymen qilib jon birla tavf ,  
Ka'bayi ko'yin xabar topquncha borg'onimdin el.

Ey Navoiy, qilmag'aylar ayb agar devonamen,  
Ul pari vasfin o'qug'an soyi devonimdin el.

\* \* \*

Mehr ko‘p ko‘rguzdum, ammo mehribone topmadim,  
Jon base qildim fido, oromi jone topmadim.

G‘am bila jonimg‘a yettim, g‘amgusore ko‘rmadim,  
Hajr ila dilxasta bo‘ldum, dilsitone topmadim.

Ishq aro yuz ming malomat o‘qiga bo‘ldim nishon,  
Bir kamon abro‘da tuzlukdin nishone topmadim.

Ko‘nglum ichra sarv o‘qdur, g‘uncha paykon, gul tikon,  
Dahr bog‘i ichra mundog‘ gulsitone topmadim.

Husn mulki ichra sendek shohi zolim ko‘rmadim,  
Ishq ko‘yida o‘zumdek notavone topmadim.

Ko‘p o‘qudum Vomiq-u Farhod-u Majnun qissasin,  
O‘z ishimdin bul ajabroq dostone topmadim.

Ul amon ichinda bo‘lsun, ey Navoiy, garchi men,  
Bir zamon ishqida mehnatdin amone topmadim.

Tab ganjidin maoniy xurdasin , yuz qatla hayf –  
Kim, nisor etmakka shohi xurdadone topmadim.

\* \* \*

Ochmag‘ay erding jamoli olamoro koshki,  
Solmag‘ay erding bori olamda g‘avg‘o koshki.

Chun jamoling jilvasi olamg‘a soldi rustaxez ,  
Qilmag‘ay erdi ko‘zum ani tamosho koshki.

Bo‘limg‘ay erdi ko‘zum o‘tlug‘ yuzung ko‘rgan zamon,  
Ishqing o‘ti shu’lasi ko‘nglimda paydo koshki.

Aylagach ishqing balosi zor ko‘nglimni hazin,  
Qilmag‘ay erding meni mahzung‘a parvo koshki.

Tushmag‘ay erdi fribomez lutfung bilmayin,  
Notavon ko‘nglumga vaslingdin tamanno koshki.

Lutf ila ko‘nglumni vaslingdin talabgor aylabon,  
Qilmag‘ay erding yana zulm oshkor koshki.

Bevafolig‘ aylag‘ach ishqingni ko‘nglum tark etib,  
Qilmag‘ay erdi o‘zin olamda rasvo koshki.

Emdikim devona-yu rasvoyi olam bo‘lmisham,  
Vasl chun mumkin yo‘q o‘lturgay bu savdo koshki.

Ey Navoiy, bevafodur yor, bas ne foyda,  
Nechakim desang agar yoxud magar yo koshki.

\* \* \*

Yordin hijron chekar ushshoqi zor, ey do'stlar,  
Necha tortay hajr, chun yo'q menda yor, ey do'stlar.

Yor ishqin asragil pinhon, debon sa'y etmangiz,  
Vah, ne nav etgum yo'q ishni oshkor, ey do'stlar.

Ishq birla gar birov lofi vafo-vu ahd urar,  
Ishvagarlar ahdiq'a yo'q e'tibor, ey do'stlar.

Aylamang bekasligimni ta'na, bir kun bor edi,  
Menda ham bir nozanin chobuksuvor , ey do'stlar.

Yorsiz vayronda qon yig'larmen oxir, siz qiling,  
Yor birla gashti bog'-u lolazor, ey do'stlar.

Yorsiz ifrot ila gar yig'lasam, ayb etmangiz,  
Kim, erur bu ish manga beixtiyor, ey do'stlar.

Do'stluq aylab tutung gah-gah labolab jomkim,  
Qasdi jon qilmish manga dardi xumor, ey do'stlar.

May ichingkim, dahr eli ichra ko'p istab topmaduq,  
Ahd-u paymonida bo'lg'on ustuvor, ey do'stlar.

Yoringiz vaslin g'animat anglabon shukr aylangiz,  
Kim, Navoiy o'ldi bekaslikda zor, ey do'stlar.

\* \* \*

Lolagun to'n ichra, yorab, ul g'azoli chin erur,  
Yo ko'zumning mardumi, qon yosh ila rangin erur.

Bilmon oyokim shafaq ichra erur zarrin g'azol,  
Lolagun to'n ichra yoxud ul g'azoli Chin erur.

Aylamish guldaста bandi sun to'n-u jismidin,  
San'atekim arg'uvon bargi aro nasrin erur.

Qadmudur bu yo erur shingarf ila yozg'on alif,  
Belmu yo toreki , la'l ichra anga taskin erur.

Ko'nglum ichra soldi ul to'n aks yoxud bo'ldi qon,  
Xalq ko'nglin qon etarga, vah, bu ne oyin erur.

Bir qadah gulgun may, ey soqiу, to'la tutkim, ko'ngul,  
Ul buti gulgunqabo bedodidin g'amgin erur.

Ey Navoiy, qatl uchun gar xud qizil to'n kiydi yor,  
Basdur ul to'n rangi ne muhtoji qatl-u kun erur.

Dema tog'-u lola dahr ichra — ajal qaploni bil,  
Kim, kiyiklar qonidin boshtin ayog' rangin erur.

\* \* \*

Do'stlar, mahram deb elga roz ifsho qilmangiz,  
Boshingizg'a yuz balo kuch birla paydo qilmangiz.

Fosh qilmang roz, chunkim asray olmay qildingiz,  
O'zgalardin asramoq bore tamanno qilmangiz.

Ishq asrorig'a til mahram emastur zinhor,  
Kim, ko'nguldin tilga ani oshkoror qilmangiz.

Chun ko'nguldir qalb-u til g'ammoz, maxfiy rozni,  
Jon harimidin bu ikkiga huvaydo qilmangiz.

Chun ko'ngul til birla mahram bo'ljadi, hojat emas,  
Aytimoqkim, elga andin nukta imlo qilmangiz.

Sahv etib, chun roz durrin sochtingiz, nodim bo'lub,  
Ohning dudin sahab-u ko'zni daryo qilmangiz.

Chok-chok aylab ko'ngulni, tilni aylab yuz tilim,  
Tashlab itlarga alarming yodi qat'o qilmangiz.

Menda hijron dardi-yu yo'q sabr, borı do'stlar,  
Choraye gar qilsangiz, juz jomi sahbo qilmangiz.

Chun Navoiy ishq rozin asray olmay qildi fosh,  
Otini roz ahli tumorinda insho qilmangiz.

\* \* \*

Meni men istagan o‘z suhbatiga arjumand etmas,  
Meni istar kishining suhbatin ko‘nglum pisand etmas.

Ne bahra topqamen andinki, mendin istagay bahra,  
Chu ulkim, bahrayı andin tilarmen, bahramand etmas.

Netay hur-u pari bazminki, qatlim yo hayotimg‘a,  
Ayon ul zahrchashm aylab, nihon bu no‘shxand etmas.

Kerakmas oy ila kun shaklikim, husn-u malohatdin,  
Ichim ul chok-chok etmas, tanim bu band-band etmas.

Kerak o‘z chobuki qotilvashi majnun shiorimkim,  
Buzug‘ ko‘nglumdin o‘zga yerda javloni samand etmas.

Ko‘ngul uz charx zolidin, firibin yemakim, oxir,  
Ajal sarrishtasidin o‘zga bo‘ynungg‘a kamand etmas.

Ul oy o‘tlug‘ yuzin ochsa, Navoiy, tegmasin deb ko‘z,  
Muhabbat tuxmidin o‘zga ul o‘t uzra sipand etmas.

\* \* \*

Menga nomehribon yor o‘zgalarga mehribon ermish,  
Mening jonim olib, ag‘yorga oromijon ermish.

Tan uzra emdi fahm ettim adadsiz toza dog‘imni,  
Ki, har bir-bir qorarg‘an shomi hajrimdin nishon ermish.

Buzulg‘an ko‘nglum atrofindag‘i zaxm ichra novaklar,  
Baliyat qushlari-yu zaxm alarg‘a oshyon ermish.

Raqibi sindurib ko‘nglin-u men yig‘lab anga, lekin,  
Su keltirmak hamon-u ko‘za sindurmoq hamon ermish.

Baliyat dashtida zore ko‘rub Majnun sog‘ing‘aylar,  
Ko‘ngul otlig‘ bizing ovorayi bexonumon ermish.

Xayoling xayli ko‘nglum dashtida chun qildilar manzil,  
Har o‘t yoqqan yer ul manzilda bir dog‘i nihon ermish.

Zamon oshubidin ko‘nglumga yuz shiddat yetar erdi,  
Chu fahm ettim — munga bois ul oshubi zamon ermish.

Agarchi men yomonmen, yaxshidurkim mu’tarifdurmen,  
O‘ zin yaxshi tasavvur aylagan mendin yomon ermish.

Navoiy nazmini ko‘rdum quyosh lavhig‘a sabt etkan,  
Buyurg‘an ani oliy qadr shohi xurdadon ermish.

\* \* \*

Rahm etib, ey do'stlar, majruh ko'ksumni yoring,  
Qo'l yolang aylab solib, har yon ichimni axtoring.

Uchrasa yuzi qora ko'nglum tutub, tortib, uzub,  
O'tqa solib o'rtabon, jonimni andin qutqoring.

Ketgan ersa choklik ko'ksum tikib, voqif bo'lub,  
Kelsa bu jonib, sinonlar birla sanchib qaytoring.

Chun o'larmen — yorni istang, boshimg'a kelmasa,  
Bosh yolang aylab, qo'yub tufrog' uza yuz, yolboring.

Kelsa ayturda oshuqmangkim, farahdin o'lmayin,  
Nuktadonlig' birla ul so'zni qoshimda o'tkoring.

Boshima yetsa, chu o'lgumdir necha faryod etib,  
Bir nafas tengri uchun har qaysingiz bir yon boring.

Gar tuyassar bo'lmasa bu ish, Navoiy xastani,  
Qo'ldabon yo sudrabon mayxona sari boshqoring.

\* \* \*

Mening firoqim-u aning visoli tun bila tong,  
Bu nav dahrda yo‘q ehtimoli tun bila tong.

G‘arib zulf-u yuz ermasmukim, jahon eliga,  
Ko‘runmamish bu ikining misoli tun bila tong.

Tongim yorug‘-u tunum tiyradurki, chirmashdur  
Ko‘ngul aro zulfung xayoli tun bila tong.

Ne tunda aysh nasimi, ne tongda mehr, magar  
Ki, bo‘ldi zulf-u yuzung poymoli tun bila tong.

Tunung xujasta , tonging qutlug‘ o‘lsun, ey mahvash  
Ki, ikki banda sanga bo‘ldi holi tun bila tong.

Biravki, tong-u tunin boda birla o‘tkargay,  
Yaqinki, bo‘lmaq‘ay aning maloli tun bila tong.

Navoiy etmadi zulf-u yuzung visolin kashf,  
Valek erur g‘amining ittisoli tun bilan tong.

\* \* \*

Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko‘rmadim?!  
Ko‘rguzib yuz mehr, ming dard-u balosin ko‘rmadim?!

Kimga boshimni fido qildimki, boshim qasdig‘a,  
Har tarafdin yuz tuman tig‘i jafosin ko‘rmadim?!

Kimga ko‘nglum ayladi mehr-u muhabbat foshkim,  
Har vafoga yuz jafo, aning jazosin ko‘rmadim?!

Kimga jonimni asir ettimki, jonim qatlig‘a,  
G‘ayri sari xulq-u lutfi jonfizosin ko‘rmadim?!

Kimga soldim ko‘z qaro-vu oqini ishq ichrakim,  
Qon aro pinhon ko‘zum oq-u qarosin ko‘rmadim?!

Sen vafo husn ahlidin qilma tavaqqu , ey rafiq,  
Kim, men ushbu xaylning husni vafosin ko‘rmadim.

Ey Navoiy, tavba andin qilmadim shayx ollida,  
Kim, bu ishda dayr pinning rizosin ko‘rmadim.

\* \* \*

Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay,  
Oncha borkim, Ka’ba vayron bo‘lsa, obod aylagay.

Garchi xalq ozodasimen, yor agar bandam desa,  
Andin ortuq anglakim, bir banda ozod aylagay.

Yordin har kimki bir so‘z der, tuganmasdin burun,  
Istaramkim, avvalidin yona bunyod aylagay.

Yor hijronidin o‘lgumdur, bu nav ermisht sazo,  
Ul kishigakim, biravga o‘zni mu’tod aylagay.

Necha sabr avroqi yozg‘ay ko‘nglum-u bir oh ila,  
Sarsari ishqing yetib, borini barbod aylagay.

Shayxdin zuhdi riyoyi kasb o‘lur, yo Rab, qani,  
Dayr pirikim, fano rasmini irshod aylagay.

Odam avlodida kamdur odamiyliq shevasi,  
Odam ermas, ulki mayli odamizod aylagay.

Ne balodurkim, falak har kimga cheksa tig‘i kin,  
Yongilib avval mening jonimg‘a bedod aylagay.

Besha ichra devlar maqtuli o‘lsun, ey pari,  
Gar Navoiy yona azmi Astrobod aylagay.

\* \* \*

Sarig‘ og‘rig‘ bo‘ldum, ey soqiy, xazoni hajr aro,  
Qoni asfar mayki, bor har qatrasи bir kahrabo.

Yuz-u jismimdur sarig‘ barge qurug‘an shox uza,  
Shox-u bargekim, qurub sarg‘arsa, kim ko‘rmish davo!

Ne marazdur buki, bir gulruk sharori ishqidin,  
Bo‘ldi sarig‘ lola ko‘zum oqi-yu dog‘i qaro.

Sud emish ko‘z tushsa asfar jinsi sari, vah, qani,  
Sarvinozimkim, sarig‘ gul bargidin kiymish qabo.

Sarg‘arib qolmish havodis kojig‘a hijron kuni,  
Sir -sarig‘ qushdekki, kunduz qolg‘ay ol qushlar aro.

Shom ila subh ar sarig‘ og‘rig‘ emaslar, bas nedur,  
Tun sochin yoyib, quyosh yirtib yuzin, tutmoq azo.

Dardi tufroqqa nihon etti Navoiy jismini,  
Topibon bir shusha oltun, dafn qilg‘andek gado.

\* \* \*

Oqara boshladi bosh-u to‘kula boshladi tish,  
Safar yarog‘ini qilg‘ilki, tushti boshinga ish.

Yigitligim boribon, keldi boshima qarilig‘,  
Fano yo‘lida bu yanglig‘ emish borish-u kelish.

Yuz ulki, qirqdin ellikka qo‘ydi yuz, qilsa,  
Ming ishidin biriga yaxshiliq mahol ermish.

Erur hayotning o‘q yanglig‘ o‘tmakiga dalil,  
Kishiki, yo kibi qadg‘a asodin yetti kerish .

Adudur olti jihatdin manga chu yetti falak,  
Ne sud yoshim agar oltmisht va gar yetmisht.

Yigitlik o‘ldi bahor-u kuhulat o‘ldi xazon,  
Degan bu so‘zni – qarilig‘ni qishqa o‘xshatmisht.

Ne qish nishoti manga qoldi, ne xazon, ne bahor,  
Bahorima chu xazon qo‘ydi yuz, xazonima – qish.

Ne turfa ishki, birav chun toriqti umridin,  
Desa uzun yasha, qarg‘ishdur anga bu alqish.

Navoiyo, tutar ahli fano najot yo‘lin,  
Erishmak istar esang ishda ham alarni erish.

\* \* \*

Xil'atin to aylamish jonon qizil, sorig‘, yashil,  
Shu’layi ohim chiqar har yon qizil, sorig‘, yashil.

Gulshan ettim ishq sahrosin samumi ohdin,  
Kim, esar ul dasht aro har yon qizil, sorig‘, yashil.

Shishadek ko‘nglumdadur gulzori husnung yodidin,  
Tobdonning aksidek alvon qizil, sorig‘, yashil.

Oraz-u xoling bila xatting xayolidin erur,  
Ko‘zlarimning ollida davron qizil, sorig‘, yashil.

La’lgun may tutqil oltun jom birla sabzada,  
Kim, bulardin yaxshi yo‘q imkon qizil, sorig‘, yashil.

Faqr aro birranglik dushvor erur behad valek  
Xirqada tikmak erur oson qizil, sorig‘, yashil.

Ey Navoiy, oltun-u shingarf-u zangor istama,  
Bo‘ldi nazming rangidin devon qizil, sorig‘, yashil.

\* \* \*

Sho'x ikki g'izolingni noz uyqusidin uyg'at,  
To uyqulari ketsun, gulzor ichida o'ynat.

Tishlabki, soching o'rdung, ochkanda parishon qil,  
Ofoq savodinda jon royihasin butrat.

Kulbamga xayafshon kel, zulfung qilib oshufta ,  
Anjum sipahin sindur, ofoq ulusin qo'zg'at.

Oraz quyoshin ochib, ashki qurug'an ko'zni  
Ko'p hajrda yig'latding, bir vaslda ham yig'lat.

Bir oh ila kul bo'ldum, ey charx, tilab topib,  
Farhod ila Majnung'a oshiqlik ishin o'rgat.

Xoro tubig'a yotkung, yo'q sud agar yuz yil,  
Ko'k atlasi ustida jismingni yotib ag'nat.

Bazm ichra Navoiy ko'p yig'lar esa, ey soqiylar  
Hush eltkuvchi doru jomig'a aning chayqat.

\* \* \*

Ko'nglung istar yorlar birla hamisha shod bo'l,  
Medin-u kimdinki, ko'nglung istamas, ozod bo'l.

Garchi sabrim uyi yanglig', aylading vayron meni,  
Doimo, yo Rabki, husnung mulkidek obod bo'l.

Men chekib anduh o'lay, el joni bo'lsun ul Masih,  
Sovrul, ey charxi nighun , vey dahri dun barbod bo'l.

Bevafolar zulm-u bedodig'a ermassen harif ,  
Ey sinuq ko'nglum, agar xud shisha, gar po'lod bo'l.

Tuttum o'lmakdin tirilmak hajrida tengdur manga,  
Emdi gar bergil ziloli Xizr , agar jallod bo'l.

Chekma boshkim, emin ermassen xazon yag'mosidin ,  
Bu chaman ichra agar savsan , agar shamshod bo'l.

Ey Navoiy, olam ahlig'a chu yo'q ermish vafo,  
Kel-u mundin nari bekaslik bila mo'tod bo'l.

Ko'nglum o'rtansun agar g'ayringg'a parvo aylasa,  
Har ko'ngul hamkim sening shavqingni paydo aylasa.

Har kishi vaslin tamanno aylasam navmid o'lay,  
Har kishi hamkim sening vasling tamanno aylasa.

O'zgalar husnin tamosho aylasam chiqsun ko'zum,  
O'zga bir ko'z hamki husnungeni tamosho aylasa.

G'ayr zikrin oshkoro qilsa lol o'lsun tilim,  
Qaysi bir til hamki zikring oshkoro aylasa.

Rashkdin jonimg'a har nargis ko'zi bir shu'ladur,  
Bog' aro nogah xirom ul sarvi ra'no aylasa.

Yo'q og'izdin nukta aytur mahvashimdek bo'limg'ay,  
Gar quyosh har zarrasidin bir Masiho aylasa.

Ofiyat jonimg'a yetti, ey xush, ul mug'kim, meni,  
Bir qadah birla xarobot ichra rasvo aylasa.

Kelturung daf'i jununumg'a parixon , yo'q tabib,  
Kim ul ansabdur pari har kimni shaydo aylasa.

Subhdek bir damda gardun qo'yimag'ay osorini,  
Nogah ahli sidq ko'ngli mehrin ifsho aylasa.

Dahr sho'xig'a, Navoiy, sayd bo'lma nechakim,  
Kun uzori uzra tun zulfin mutarro aylasa.

## RUBOIY

\* \* \*

Jonimdag‘i «jim» ikki dolingga fido,  
Andin so‘ng «alif» toza niholingga fido.  
«Nun»i dog‘i anbarin hilolingga fido,  
Qolg‘on ikki nuqta ikki xolingga fido.

\* \* \*

Ko‘z bila qoshing yaxshi, qabog‘ing yaxshi,  
Yuz bila so‘zing yaxshi, dudog‘ing yaxshi,  
Eng bila menging yaxshi, saqog‘ing yaxshi,  
Bir-bir ne deyin, boshdin ayog‘ing yaxshi.

\* \* \*

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,  
El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish.  
Oltin qafas ishra gar qizil gul butsa,  
Bulbulg‘a tikondek oshiyon bo‘lmas emish.

\* \* \*

Zohid, sanga – hur, manga – jonona kerak,  
Jannat – sanga bo‘lsun, manga – mayxona kerak.  
Mayxona aro soqi-yu paymona kerak,  
Paymona necha bo‘lsa to‘la, yona kerak.

\* \* \*

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,  
Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.  
Har nenikim sevimak ondin ortuq bo'lmas,  
Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

\* \* \*

Yo'q dahrda bir besar-u somon mendek,  
O'z holig'a sargashta-vu hayron mendek.  
G'am ko'yida xonumoni vayron mendek,  
Ya'niki, aloxon-u alomon mendek.

\* \* \*

Ey jism, aning ko'yini paydo qilako'r,  
Ey ko'ngul, o'shul ko'yini ma'vo qilako'r.  
Ey ko'r, sen aning yuzin tamosho qilako'r,  
Ey ashk, aning ko'yi sari oqilako'r.

## TUYUQLAR

\* \* \*

Yo Rab, ul shahd-u shakar yo labdurur,  
Yo magar shahd-u shakar yolabdurur.  
Jonima payvasta novak otqali,  
G‘amza o‘qin qoshig‘a yolabdurur.

\* \* \*

Tiyg‘i ishqing yorasidur butmagon,  
Dardini har kimga aytib butmagon.  
Hajr sahrosidur ohim o‘tidin,  
Anda gul yoxud giyohe butmagon .

\* \* \*

Yo qoshingdin necha bir o‘q ko‘z tutay,  
Otki, o‘trusig‘a oning ko‘z tutay.  
Necha ko‘rgach o‘zga mahvashlar qoshin,  
Yangi oy ko‘rgan kishidek ko‘z tutay.

\* \* \*

Charx tortib xanjari hijron bu tun,  
Qo‘ymadi bir zarra bag‘rimni butun.  
Tunga borib bizni behol aylading,  
Ne balolig‘ tun emish, yo Rab, bu tun.



NODIRA

## G'AZALLAR

\* \* \*

Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat,  
Seli g'amdin bu imorat bo'ldi vayron oqibat.

Qildi choki pirahan dog'i dilimni oshkor,  
Qolmadi ko'nglimda zaxmi ishq pinhon oqibat.

Ahd-u paymonlar qilib erdi, vafo qilg'um deb oy,  
Ayladi tarki vafo ul ahdi yalg'on oqibat.

Orzu qildim tutarmen deb visoli domainin,  
Pora bo'ldi hajr ilgida giribon oqibat.

Zohido, ishq-u muhabbat ahlini ma'zur tut,  
Yor ko'yida na bo'ldi shayx San'on oqibat.

Baski qon bo'ldi yurogim gavhari ashk o'rnig'a,  
Qatra-qatra ko'zlarimdin tomdi marjon oqibat.

Ohkim bo'ldi yana subhi nashotim shomi g'am,  
Chehra pinhon etti ul xurshidi tobon oqibat.

Garchi bor erdi musaxxar devlar farmonida,  
Poymoli xayli mo'r o'ldi Sulaymon oqibat.

Nodira, bulbul kabi to nola insho ayladim,  
Navbahor o'tti, xazon o'ldi guliston oqibat.

\* \* \*

Farhod agar ursa menga lofi muhabbat,  
Bir oh ila aylarman uni dog'i xijolat.

Harchandki bemori g'ami ishq edi Majnun,  
Dardimni ko'rib tishladi angishti nadomat.

Farhodda bo'lsaydi mening g'ayrati ishqim,  
Bir oh ila aylar edi ul tog'ni g'orat.

Majnunda agar bo'lsa edi sabr-u tahammul,  
Qilmasmu edi men kabi shahr ichra iqomat.

Gar bo'lsa Zulayxoda mening zarracha ishqim,  
Qolmas edi Yusufni firoqida salomat.

Ishq ofatiga tog' tahammul qila olmas,  
Man manki qilurman bu g'am-u dardig'a toqat.

Dard-u alam-u g'ussaki hajrida chekarman  
Bu mehnat-u g'am kimdadur, ey ahli muhabbat.

Yuzdin biri Majnunda agar bo'lsa g'amimni,  
Bir oh ila olamg'a solur sho'ri qiyomat.

Har holda, ey Nodira, shukr ayla xudog'a,  
Kim berdi senga ishq-u muhabbat ila davlat.

\* \* \*

Bahor keldi ko‘zim gulga boqmadi aslo,  
Nadinki, gulshan aro gulruxim emas paydo.

Yuzimga bo‘ldi yuzing muqtarin, bihamdilloh,  
Ochildi mehr-u vafo bog‘ida guli ra’no.

Sarig‘ yuzimda qizil ashkimi tarovati bor,  
Nuchukki, sog‘ari zarrin aro mayi humro.

Labidin ayru menga boda tutma, ey soqiy,  
Xumor kulfatig‘a moni’ o‘lmadi sahbo.

Bu joni xastaki, vaslingni orzu aylar,  
Xayol turrasidin boshida uzun savdo.

Firoq lashkari tug‘yonidin maozalloh,  
Ki qildi sabr-u tahammul diyorini yag‘mo.

Yuzing nazorasi ushshoqlarni firdavsi,  
Harimi dargohing ahboba jannat-ul-ma’no.

Sening salosili zulfiingga mubtalodurman,  
Ki bo‘ldi ahli xirad qushlarig‘a domi balo.

Falakdin o‘tdi fig‘onim, quyoshga etdi unim,  
Hanuz, Nodira, kam bo‘lmadi bu oh-u navo.

\* \* \*

Ey sarvi sihi bo‘ylug‘im, ey qomati zebo,  
Kelkim, ko‘zim oynasi mushtoqi tamosho.

Ul kunki, visoling chamanin sayr etar erdim,  
Manzuri nazar erdi menga ul qadi bolo.

Aydimki, qachon bo‘lg‘usi kuyingda makonim,  
Oshiqqa, dedi, hojat emas manzil-u ma’vo.

Kuydurdi chaman gullarini rashk o‘ti birla,  
Ul g‘unchai xandon ila ul nargisi shahlo.

Ul zulfi dil oviz muanbar girihidin  
Har kimni tushib boshig‘a bir o‘zgacha savdo.

Har sabzai sunbulki, bu gulshanda chekar bosh  
Muyi sari Majnundur-u, yo turrai Laylo.

Vayronada oqilg‘a iqomat na munosib  
Sarmanzili osoyish emas arsai dunyo.

Hijron g‘amidin tashna lab-u, xasta jigarmen,  
Soqiy, karam aylab menga tut sog‘ari sahbo.

Ko‘zgu kabi hayronlaringga arz-u xayol et,  
Diydoring uchun Nodiradur volai shaydo.

\* \* \*

Ey mehri jamoling olam oro,  
Zarroti yuzingga mast-u shaydo.

Ey husni riyozida qading sarv,  
Ul sarv uza sunbulung sumanso.

Kelkim nazarimg'a, ey pariro',  
Devonag'a bir dam et tamosho.

Sen uyquda masti nozdursen,  
Men dard bila g'arib-u tanho.

Tun kecha fig'on-u nolishimdin,  
Ko'ying iti ichra tushdi g'avg'o.

Sen qaysi diyor azmin etding,  
Kelmas xabaring bu yerga aslo.

Ohim o'qig'a qadim kamondur,  
Bu o'qni, nishonidur surayyo.

Majnun nega Layli tarkin etsun,  
Yusufni unutmadi Zulayxo.

Qaydin seni Nodira unutsin,  
Bu so'z ne munosib, ey diloro.

\* \* \*

Ey yuzing qiblai arbobi safo,  
Sari ko'yingda ko'ngul qiblanumo.

Ka'bai ko'ying erur tak'yagahim,  
Ko'z yoshim zam-zam o'shal ka'ba aro.

Bo'lmasa mehr ko'ngulda ne osig',  
Manziling Yasrib o'la, yo Batho.

Surma oso qadaming tufrog'i,  
Xira bo/lg'ay ko'zima berdi ziyo.

To'tiyodur menga naqshi qadaming,  
Ki ko'zim oyinasi topti jilo.

Bo'lsa to umr hayoti boqiy,  
Meni ilkimdur-u domoni vafo.

Do'stlar ays-hu farog'at ila xush,  
Bo'ldi dushman hadafi tiyri balo.

Har kim o'z rutbasidin lof urar,  
Bu marotibda maqoming a'lo.

Domani yor ilikdin ketdi,  
Nodira, pirahanim bo'ldi qabo.

Marhabo, ey payki sulton marhabo,  
Hudhud mulki Sulaymon, marhabo.

Tal'ating farrux, muborak maqdaming,  
Qildi kulbamni guliston, marhabo.

Xo'b kelding, yaxshi keltirding xabar,  
Aylading dardimga darmon, marhabo.

Bo'ldi mavzun qomatingdin munfail,  
Sarv nozi bog'i rizvon, marhabo.

Qilg'asen ul moh mehrin oshkor,  
Subh yanglig' pok domon, marhabo.

Mujda keltirding visoli yordin,  
Topti taskin dardi hijron, marhabo.

Kel beri, to xoki poyingni qilay,  
To'tiyoi chashmi giryon, marhabo.

Ravshan aylarman chirog'i ohin,  
Ko'zlarimdur gavhar afshon, marhabo.

Bu kecha hijron shabistonidadur,  
Anjumi ashkim charog'on, marhabo.

Qo'y kafi pokingni diydam ustina,  
Bir dam, ey sarvi xiromon, marhabo.

Nodira, har so'zki insho ayladim,  
Aydi anga ahli davron, marhabo.

\* \* \*

Nazar ahli savdolaridin xating qildi lavhi jamola paydo,  
Netong aylasa dudi ohim qamar davrida hola paydo.

Soching sunbulidin girihsar tushubdur ko'ngul rishtasig'a,  
Ki yuzdin birin zohir etsam qilur ja'd mushkin kulola  
paydo.

Mening qissai ro'zg'orim farovon g'ami hijroning afso-  
nasidek,  
Ki bir nuktasin sharh qilsam bo'lur necha daftar risola  
paydo.

Yuzing oyini hayratidin erur badri tobon qaro dog'liq,  
Qoshing nunidin voqif erdi ki ojizlig' o'ldi hilola paydo.

Karam dastgohi ki xon atosi mudom omoda mehmon  
yuziga,  
Aning rezai bazm baxshoyishidin bo'lur har gadog'a  
navola paydo.

Sirishkim sahabini imdodidin dilkushodur muhabbatni  
dashti,  
Ko'ngul dog'ini aytsam biyobon bo'lur, ul biyobonda lola  
paydo.

Solib hijratni mulkina zilzila, dedi qilma davri falakdin  
gila,  
Nadur chorai dardim, ey Nodira, firoq o'ldi nogoh, visola  
paydo.

\* \* \*

Kel, senga, ey shahi jahon, mamlakati jahon fido,  
Diydalarimga qo'y qadam, har qadamingga jon fido.

La'li labing firoqida xuni jigar g'izo menga,  
Sarv qading havosida jon etaram ravon fido.

Aysh-u nishoti ofiyat dardi g'amingni sadqasi,  
Bir nafas ishtiyoqinga ishrati jovidon fido.

Vaqti xirom, ey sanam, diydalarimga qo'y qadam,  
Xoki rahingga aylaram chashmi guharfishon fido.

Garchi mening alimdadur hosili mulki mamlakat,  
Etsa visoling aylaram barchai royigon fido.

Yig'lama endi, ey ko'zim, to'kma yurakni qonini,  
Dog'ni toza ayladim, qonig'a bo'ldi qon fido.

Nodirai g'azal saro nazmini ko'rsa nogahon,  
Durri javohirin qilur fikrig'a bag'ri kon fido.

\* \* \*

G'unchadek og'zi aro ul lutfi guftori ajab,  
Sun'i ilgi yo'qdin izhor aylagay bori ajab.

Oldi ko'ngul qushlarni har lahza mushkin turrasi,  
Bola shohindurki, sayd aylarda tarrowi ajab.

Baski majnundir aning husnig'a gulshan gullari,  
G'unchalardindur chaman bo'ynida tumori ajab.

Ayladi oshufta tab'imni parishon turrasi,  
Qildi baxtimni qaro xoli sitamkori ajab.

Ko'zidin ozurdamen-u, qoshidan ozurdaroq,  
Zor ahvolimg'a ozor uzra ozori ajab.

Har qachon kim noz etib chiqsa mayi gulfom ichib,  
Qon to'kar maydek damo-dam chashmi xummori ajab.

Yor vasli birla odat aylab erdim, Nodira,  
Andin ayru menga bir dam sabr izhori ajab.

\* \* \*

Tiyradur subhi nashotim, soqiyo, keltir sharob,  
Shomi hijron zulmatida jomi maydur oftob.

Mohi tobon yuzligim, har lahza yod etsam seni,  
Dudi bag‘rimdin chiqar o‘t ichra tushgandek kabob.

Band etib zulfig aro ko‘nglimni ozod etganing,  
Qush uchurgandek erur bog‘lab ayog‘iga tanob.

Koshki ohim nasimidin taharruk aylasa,  
Yorkim ruxsorig‘a gul bargidin solmish niqob.

Hajr oshubi balodurkim, ani tashvishidin,  
Qatrai simob yanglig‘ ko‘nglim aylar iztirob.

Shod edi ul shohi davron vasli birla xotirim,  
Aysh davronig‘a soldin davri gardun inqilob.

Bevalolardek seni hargiz faromush aylamas,  
Nodira, yodingni aylar to dami yovmulhisob.

\* \* \*

Gulga desam yo‘q kafi poyingga tob,  
Diydama qo‘y, ey, buti zarrin, rikob.

Tashqari chiqma kechalar hashr o‘lur,  
Chiqsa yarim kechada gar oftob.

G‘arqai xuni jigar o‘ldi tanim,  
Qon yosh ila muyi sar etdim huzob.

Turfa savoli labidin so‘rdi yod,  
Jon berayin bo‘lmasa shirin javob.

Surati devor kabi bo‘lmisham,  
Hasrati diydor ila bexo‘rd-uxob.

Jonima qasd aylar esang qil, valek,  
Tishlama la’lingni, qilursan itob.

Moyili zulm etma ko‘zing tarkini,  
Yo‘qsa qilur mardum uyini xarob.

Bu kecha mayxonani dargohida,  
Piri mug‘ondin tilaram fathi bob.

Aylamading, ey buti paymon shikan,  
Nodirani vasling ila komyob.

\* \* \*

G'azab birla nigorim o'tdi yonimdin shitob aylab,  
Yuzin ko'rguncha o'lndurdi meni hajri azob aylab.

Pari yanglig' nazardin chehra pinhon etdi ul mahvash,  
Firoq-u hajr jomidin meni mast-u-xarob aylab.

Ko'ngul shodob erdi jur'ai jomi visolidin,  
Solib hijron o'tig'a ketti bag'rimni kabob aylab.

Muruvvat ayla, jono, sendin ayru tiyradir ayshim,  
Prut kulbamni bir tun orazingni oftob aylab.

Icharmen may damo-dam yor la'lini xumordiin,  
Meni mayxonadin man etma zohid ihtisob aylab.

Hisob etmoqqa charx anjumlarin bor ehtimol anda,  
Mening dog'i dilimni lek bo'lmaydur hisob aylab.

Labidin ayru qon yutmoq ishimdur borg'il, ey soqiylar,  
Menga behuda kulfat berma taklifi sharob aylab.

Darig'o, ketti oxir gavhari maqsud ilgimdin,  
Topib erdim seni mahbublardin intixob aylab.

Vafo sarlavhi uzra Nodira mavzun kalomini,  
Yozar tahsini she'ri xisravi oliy janob aylab.

\* \* \*

Yor la'lin yod etarmen g'unchai xandon ko'rib,  
Sabzai xat sog'inurmen bog' aro rayhon ko'rib.

Sabzai xat la'l nobing uzra ma'vo ayladi,  
Xizr qilg'ondek vatan sarchashmai hayvon ko'rib.

Dardi jongoh-u damo-dam, oh, ahvolim taboh,  
Rahmi kelmasmu menga bu hol ila sulton ko'rib.

Sovrulurman hajr vodisi aro Majnun kibi,  
Girdubod aylar gumon dasht uzra sargardon ko'rib.

Necha la'li hajridin o'lmoq menga dushvor edi,  
Yuz tahayyur birla ilgin tishladi jonon ko'rib.

Rashkdin yuz fitna barpo ayladi davri falak,  
Ko'zlarim oyinasin yor oldida hayron ko'rib.

Tong emasdir bo'lsa (bu) muddatda ustodi suxan,  
Nodira ash'orig'a tahsin etar Salmon ko'rib.

\* \* \*

Beray jon visol ichra, ey no'shi lab,  
Firoqingda tokay qilay tob-utab.

Jamoling menga muddao subhu shom,  
Visoling menga orzu ro'z-ushab.

Agar kelsa boshimg'a tig'i ajal,  
Qilurmanmu yo'lingda tarki talab.

Qading misrai sho'x-u barxastadur,  
Bo'lib husi devonidin muntaxab.

Meni zor Farhod-u Majnunnajod,  
Erur yor Shirin-u Layli nasab.

Na mahfilda shahd-u shakar yolading,  
Ki bir-birga chaspondur ul ikki lab.

Firoqida sham'i shabi hajrmen,  
Emas kuymagim Nodira besabab.

\* \* \*

Ketmadi mendan qadah birla xumori oftob,  
Subh yanglig‘ tortadurman intizori oftob.

Sarf qilg‘ umdur oni(ng) jomi visoli naqdina,  
Gar muyassar bo‘lsa la’li obdori oftob.

Mohro‘ larni yuzing oyi musaxxar ayladi,  
Muncha bo‘lmas anjum ichra iqtidori oftob.

Orazingni (ng) tobidin bo‘ldi nazokat dastgoh,  
Turfa gullar zohir etdi navbahori oftob.

To yuzing oyi namoyon bo‘ldi husn aflokida,  
Rashk o‘tidin tiyra bo‘ldi ro‘zgori oftob.

Gar ko‘zim husning chirog‘ idin munavvar bo‘lmas,  
Ravshan etmas partavi nuri sharori oftob.

Nodira, ohim sinonidin tavahhum tortibon,  
Charx maydonidadur chobuksuvori oftob.

\* \* \*

Sayd etdi meni ul ikki qullob,  
Bo‘ynimda kamandi zulfi purtob.

Qoshini qilichig‘a bo‘yin sun,  
Oshiqqa budur tariqi odob.

Gulxan kulida farog‘at etgan,  
Qilmas havasi samuri sanjob.

Tirdoba erur ko‘zimni yoshi,  
Oshiqni halok etar bu girdob.

Orom toparmu charx davri,  
Doim harakat etar bu do‘lob.

Olam elida vafo topilmas,  
Bu gavhar erur jahonda noyob.

Qondur jigarim labidip ayru,  
Keltur menga, soqiyo, mayi nob.

Ushshoq misoli korvondur,  
Ul qofilada erur vafobob.

Yosh o‘rnida, Nodira, ko‘zimdin,  
Hajrida oqar mudom xunob.

\* \* \*

Agar gulshang‘a kirsa sarv gulro‘yim xirom aylab,  
Yugurgay sarv gul yuz marhabo birla salom aylab.

Xiromon keldi yor-u, qomati ta’zimiga bexud,  
Yiqildim soyadek yerga turarg‘a iltizom aylab.

Qilurga kunduzimni kecha xurshidi jamol uzra,  
Parishon ayladi gisularin subhimnimp shom aylab.

Sihi qadlar panohi gul jabinlar podshohisan,  
Chamanda sarvni ozod etar qadding g‘ulom aylab.

Xusho, oqilki, aylab yaxshiliq bunyodini mahkam,  
O‘tar bu dayr fonidin o‘zini neki nom aylab.

Masih azmi safar aylab quyoshg‘a bo‘ldi hamsoya,  
Bo‘lur himmat bila aflok ustida maqom aylab.

G‘izoli umrkim vahshatdadur payvasta ram birla,  
Bo‘lurmu yuz ming afsun birla bu vahshini rom aylab.

Ko‘ngul sayd etgani omoda qilmish ishq sayyodi,  
Pariro‘lar kamandi halqai zulfini dom aylab.

Qalam tahrir etarda nay shakardin bo‘lsa gong ermas,  
Labing vasfini aylar Nodira shirin kalom aylab.

\* \* \*

Soqiy, menga qadah (tut) bu dayr aro labo-lab,  
Zuhd ahlidin o'sondim, tutdim seningla mashrab.

Husning tajallisidin betob mohro'lar,  
Andoqki zohir o'lmas xurshid chiqsa kavkab.

Erimni vasli birla olam munavvar erdi,  
Bor erdi mohi tobon xurshidg'a muqarrab.

Majnuni benavoni taklifi joh qilma,  
Kim telbalar boshida yo'qdur havoyi mansab.

Muhtoji dargohingmen yuz ming umid birla,  
Men qulni bu eshikdan navmid qilma, yo rab.

Tig'i zaboning o'ldi miftohi ganji donish,  
Allomai zamondur olingda tifli maktab.

Qil, Nodira, tuyassar sho'ri junun jahonda,  
Ishq-u muhabbat o'ldi oshiqqa din-u mazhab.

\* \* \*

Chiqdi ul gulgun qabo maydon aro javlon etib,  
G‘amza tig‘i birla oshiqni yurogin qon etib.

Mahvashim maydon aro bepara javlon ayladi,  
El ko‘zin oyinadek diydorig‘a hayron etib.

Povaki mujgonlari qatlimg‘a tirkish bog‘lamish,  
Choklig‘ ko‘nglimni qoshi yosig‘a qurban etib.

Ul xudovandiki, qildi yeru-ko‘kni oshkor,  
Shukrkim, bizni gado qildi, sani sulton etib.

Bo‘ylakim mumtoz erursan barcha sultonlar aro,  
Shod qilg‘il bandalarning ko‘nglini ehson etib.

Mubtalomen to asiri zulfi purtobing bo‘lay,  
Qil meni ozod boshing uzra sargardon etib.

Boqmading bir lutf ila, ey bemuruvvat sang dil,  
Nodira hajringda yig‘lar nola-u afg‘on etib.

\* \* \*

Men ki qoldim hajr vayronida besomon bo‘lib,  
Yor kelmas kulbai ehzonima mehmon bo‘lib.

Dasht-u sahrodin so‘rog‘ingni topolmay dard ila,  
Aylanib keldim yana g‘am uyiga hayron bo‘lib.

Sharbati la’ling xumori birla chandon yig‘ladim,  
Qatra-qatra ko‘zlarimdin oqti bag‘rim qon bo‘lib.

Vasl aro mag‘rur edim diydorig‘a, shomi firoq,  
O‘rtadi jismimni oxir otashi hijron bo‘lib.

Aylasam devonalig‘ ayb etmangizkim, ul pari,  
G‘oyib o‘lmishdur nazardin jilvasi pinhon bo‘lib.

Nodira, ul mehri tobon shavqida qildim junun,  
Oshkorbo‘ldi ishqim shuhrai davron bo‘lib.

\* \* \*

Chaman riyozila gulgasht murg‘zor qilib,  
Ko‘ngulni sayd etar sarv qad shikor qilib.

G‘izolalarni ko‘zi sayd qildi sahroda,  
Qoshi uqobini shohin patiga yor qilib.

Kelurmukin yana ul shahsuvor maydong‘a?  
Ki bordi ul kecha ko‘zlarni intizor qilib.

Qilurmen ishq-u junun karvonig‘a imdod,  
Sirishk noqalarin ashki shashqator qilib.

Tanimda hajr o‘qini zaxmi benihoyatdur,  
Ki bo‘lmaq‘ay ani yuzdan birin shumor qilib.

Netayki dahr guzargohida bu telba ko‘ngul,  
Yo‘luqti hajriga vaslini ixtiyor qilib.

Jahonda, Nodira, yoring pari misol erdi,  
Bo‘lurmu husnini oyinaga duchor qilib.

\* \* \*

Yuzingdur qiblai ahli munojot,  
Jamoling sham'idin ravshan xarobot.

Bugun mayxonada sahbo qilur jush,  
Erur piri mug'ondin bu karomot.

Surohi qul-qulin aylar muqarrar,  
Erur bu chor quldin dafi ofot.

Chu haq mavjud erur, odam adam bil,  
Suluk ahliga budur naf-yu isbot.

Ko'tarmak tog'ni oson emasdur  
Menu hijron g'ami hayhot-hayhot.

Meni holimg'a yig'lar oshinolar,  
Erur hayron menga begonadin yot.

Jahonda, Nodira, ishq ixtiyor et  
Muhabbatsiz kechurgon hayf avqot.

\* \* \*

Rafiqo, menga bir dam do'stlig' rasmini izhor et,  
Ki men bordim o'zimdin, yor agar kelsa, xabardor et.

Qachon ishq ahlini o'lтурmog'ini ixtiyor etsang,  
Jafo tig'i bilan avval meni(ng) bag'rimni afgor et.

Haqorat birla, ey soqiy, boqar mayxona ahlig'a,  
Sunib bir jomi may zohidni anda naqshi devor et.

Mening holimg'a yig'lar dasht-u sahrolarda vahshilar,  
Agar ko'yiga borsang, ey sabo, yorimg'a izhor et.

Erur piyri mug'ondin bu bashorat, turgil ey, soqiy,  
Labo-lab jom ila zohidni da'vosini bekor et.

Qading ra'no niholi sarvdur, jono, xirom aylab,  
Chaman gulgashtida tovusqa sen ta'limi raftor et.

Yumulmas ko'zlarim, ey mohi tobon, ishtiyooqingdin  
Chiqib yer ostidin mushtoqlarg'a arzi diydor et.

Zulayxo mushtaridur ganj gavhar birla vaslig'a,  
Jahon ahlinn Yusufdek jamolingg'a xaridor et.

Guli savsan ochildi, benavoliq qilma, ey bulbul,  
Chamanda Nodira ash'ori birla nola-u zor et.

\* \* \*

Gar ahli vafo istasa koshona salomat,  
Bo'lsun meni maxmurg'a mayxona salomat.

Ul husn shifoida ko'ngul kuysa ajab yo'q,  
Qolg'aymu chirog' ustida parvona salomat.

Devona muhabbat yo'lida bevatan er mish,  
Obod agar bo'lmasa, vayrona salomat.

Gar sinsa surohi-yu, sabuh zohid alinda,  
Bo'lsun menga sog'ar ila paymona salomat.

O'lmak zararidin meni bir zarra g'amim yo'q,  
Gar bor esa jon bergali jonona salomat.

Yaxshi-yu, yomon bir-biriga mug'tanam er mish,  
Farzona tirik bo'lsin-u, devona salomat.

Obod o'la, ey Nodira, iqlimi tajammul,  
Jamshidi zamon, xisravi Farg'ona salomat.

\* \* \*

Na gul sayr ayla, na fikri bahor et  
Jahondin kech, hayoli vasli yor et.

Muhabbatsiz kishi odam emasdur,  
Gar odamsan muhabbat ixtiyor et.

Uzor-u qadd-u, raftoringni ko'rsat,  
Chaman sarv-u gulini sharmsor et.

Labi maxmurdurmen jomi may tut,  
Karam qil, soqiyo, dafi xumor et.

Analhaq, mojarosin aylading fosh,  
Kel, ey, Mansur, istiqboli dor et.

Duri ashk-u aqiqi, xuni dilni,  
Kel-u yoring ayog'iga nisor et.

Kuyib, ey Nodira, olam elig'a,  
Muhabbat shevasini oshkor et.

\* \* \*

Kelg‘il, ey yor, vafo rasmini tut,  
Sham‘i ruxsor ila kulbamni yorut.

Er la’li labidin ayrilding,  
Ey ko‘ngul, emdi damo-dam qon yut.

Ko‘zlarim yig‘ladi zulfingni ko‘rib,  
Ki yog‘in boisidur tiyra bulut.

Qil faromush bu olam g‘amini,  
Boda ich, may bila ko‘ngulni ovut.

Kishig‘a himmati mardona kerak,  
Yo‘qli, oroyish ila rish-u burut.

Xuni dil birla jigar porasidin,  
Bodadur la’li mufarrix yoqut.

Nodira da’viyi ishqingni qilib,  
Qo‘li bu mahkamada topti subut,

\* \* \*

Ey sabo, rozi dilimni bexabar yorimg‘a ayt,  
Dardlig‘ ko‘nglimni ahvolini dildorimg‘a ayt.

Hajr dardidin yurakda qoldi dog‘ ustida dog‘,  
Sharh etib bu mojaroni lola ruxsorimg‘a ayt.

Furqat ichra tushdi savdoi Zulayxo boshima,  
Qimmati Yusuf baho topti xaridorimg‘a ayt.

Lutf etib so‘rsa meni xolimni ul nomehribon,  
O‘ldi hijroningda deb yori vafodorimg‘a ayt.

Sendin ayru talxikom etdi debon zahri firoq,  
Yoshurun dardimni ul la’li shakarborimg‘a ayt.

Yuz salom aydim, na bo‘lg‘ay bir yo‘li ul ham desa,  
Bul salomimni o‘shal oshiftai zorimg‘a ayt.

Nodira sensiz tiriklikdin na rohat ko‘rdi deb,  
U1 humoyun toli‘i farxunda atvorimga ayt.

\* \* \*

Sayr etarda naxliston yor qaddini yod et,  
Men qachon dedim senga, orzui shamshod et.

Hajr shehnasi oxir o‘ltirar asiringni,  
Bir qiyo boqib, jono, bandi g‘amdin ozod et.

Bo‘ldi yor savdosi, oshiq ersang, ey ko‘nglum,  
Naqd jon muhayyo qil, yor xotirini shod et.

E, ko‘ngul, fig‘oningdin tiyradur falak qasri,  
Bu binoni vayron qil, ishq uyini obod et.

Qon to‘karga moyildur qoshlaringni shamshiri,  
Elni qatli om etsang, ko‘zlariningni jallod et.

Gulshan ichra, ey bulbul, subhdam navo tortib,  
Gul yuzini yod aylab, nola birla faryod et.

Nogoh ul jahon shohi kelsa, ey ko‘ngul, borg‘il,  
Shoh inonini ushlab, hajr ilgidin dod et.

Dahr kishtzorida bir sharor-u yuz xirmon,  
Kuydirurg‘a olamni barqi ishq bunyod et.

Hajr mojarosig‘a, Nodira tahammul qil,  
Beqaror ko‘nglingni sabr birla mu’tod et.

\* \* \*

Hajrdin maxmurmen, soqiy, labo-lab jom tut,  
Men kabi har kimki bo'lsa rind dard oshom tut.

Istasangkim, dargohida posbon o'lmoq mudom,  
Berma vahshat hajr ila ko'nglim g'izolin rom tut.

Benavolarmiz, falak xurshidi yanglig', soqiyo,  
Jomi sarshori sabuhi bizga har ayyom tut.

Bo'lsa gar maqsad ko'ngullar qushlarin sayd aylamak,  
Dona qil xolingni, zulfiq halqasidin dom tut.

Er kuyi itlarig'a nogoh o'lsang hamnishin,  
Oshnolardur alarg'a izzat-u ikrom tut.

Gar zamone dahr g'avg'osidin istarsen faror,  
Sokini mayxona bo'l, bir go'shada orom tut.

Bo'limg'il Farhod-u Majnundek jahon afsonasi,  
Ishq aro, ey Nodira, oyini nangu nom tut.

\* \* \*

Oshiq o‘lding, ey ko‘ngul, emdi rohi mayxona tut,  
Mast o‘lib, soqiy ayog‘ini o‘pib paymona tut.

Eyki dersan, oshino, begonadin ko‘rmay zarar,  
Olam ahlidin o‘zingni bir yo‘li begona tut.

Husni ishq aylar sening xokistaringni to‘tiyo,  
Sham’idan kuymakni kasb et, mazhabi parvona tut.

Gar tilar bo‘lsang havodis shohibozidin omon,  
Nug‘z yanglig‘, ey ko‘ngul, bir go‘shada vayrona tut.

Donish-u fahm-u xirad, sabr-u sukun-u aql-u hush,  
Barchani parvonai sham’i ruhi jonona tut.

Bo‘lma giyr-u dorig‘a mag‘rur gar oqil esang,  
Davlati dunsni uyqu farz qil, afsona tut.

Aylagil obod tavfiq-uadolat mulkini,  
Nodira, mavlo yo‘lida himmati mardoni tut.

\* \* \*

Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,  
Sen shah-u, men benavo lutf ayla, faryodim eshit.

Dudi ohim shu'lasi husning dabiristonida,  
Misra'i barjastadur, ey sarvi ozodim, eshit.

Sarvinozim, sendin ayru naxli ohim bo'ldi xam,  
Qomating hajrida sindi shoxi shamshodim, eshit.

Har nechakim sabr ta'mirini bun'yod ayladim,  
Ashk selobida vayron o'ldi obodim, eshit.

Barcha yor-u oshnodin aylading begonalig',  
Necha kunlar bo'ldi hargiz qilmading yodim, eshit.

Kelki, bir soat seni ko'rmoq uchun mushtoqmen,  
Telba bo'ldim sendin ayru, ey parizodim, eshit.

Nodira bodi sabodin senga irsol etgali,  
Qildi insho bu g'azalni tab'i noshodim, eshit.

\* \* \*

Meni(ng) jununima Majnunni bermangiz nisbat,  
Qilurmu xor-u xashak tobi shu'lai g'ayrat.

Chekarda jov menga taqlid qilmasin Farhod,  
Firoq tog'ida behuda chekmasun kulfat.

Menga barobar emas ko'hkan bilan Majnun,  
Alarda yuz g'am edi, lek menda ming hasrat.

Jahonda bo'ylaki bo'lmishmen ishq oyinasi,  
Menga ziyoda bo'lur yor husnidin hayrat.

G'amimni zarrasini tog'larga arz etsam,  
Tahammul aylamagay, tog' keltirib toqat.

Bu dard-u g'amki aning notovon ko'ngul ko'tarur,  
Muhabbat ahlig'a yuzdan biri erur ofat.

G'amimni sharhini yuz minggidin birini dedim,  
Falak ani ko'tarurda xam ayladi qomat.

Bu g'amni tog' ko'tarmas edi, valek menga,  
Berib tahammulini qo'ydi jonima minnat.

Siehr martabai ishqni baland ko'rib,  
Dediki Nodirani himmatiga yuz rahmat.

\* \* \*

Necha muddatki ko‘ngul g‘ayr ila tutti ulfat,  
Meni sargashtani dog‘ ayladi favti fursat.

Bormog‘im amr ila ul, yerga zarurat erdi,  
Yo‘qsa shoyista etmas bandag‘a tarki xizmat.

Surmai chashmi dilimdur eshiking tuprog‘i,  
Dargohingdin menga ovvoralig‘ ermas hojat.

Sa’d erur axtari iqbol humoyun toli’,  
Saltanat choker-u, quldur senga baxt-u davlat.

Xizmating boisi osoyish erur qullarg‘a,  
Sendin ayrilsa kishi umrida yo‘qdur lazzat.

Ostoningga qo‘yib farsh qilay boshimni,  
O‘zga manzilda topilmas menga sepsiz rohat.

Ko‘kaning bandalig‘in Nodirag‘a arz aylab,  
Qo‘yg‘il, ey bodi sabo, jonima andin minnat,

\* \* \*

Ramozon oyida har kimda farovon hojat,  
Elgadur sham-u menga diydai giryon hojat.

Basdurur kavkabi ashkimni chirog'i kechalar,  
Menga g'am shomi emas, sham'i shabiston hojat.

Ro'za iftorida xuni jigarimdur kofi,  
Benavolarg'a emas ne'mati alvon hojat.

Shoh- haqiq'a duo olmoq uchun kulbamg'a,  
Shom vaqtida bo'lur har kecha mehmon hojat.

Bog'aro dilni etar mashqi xayoli ranggin,  
Bog'bon, menga emas sayri guliston hojat.

Har faqiriki qilur xoki harimida maqom,  
Yo'q anga sultanati qaysaru, xoqon hojat.

Ro'zaga Nodira boz ayla sahovat eshikin,  
Bo'lsa Haq rahmatidin ravzai rizvon hojat.

\* \* \*

Soqiyo, maxmurdurmen jom tut,  
Bir nafas tarki g‘ami ayyom tut.

Domi g‘amdin istabon ozodlig‘,  
Sog‘ari may subhdin to shom tut.

Boda no‘sh et, qilma beoromlig‘,  
Aysh vahshidur, zamone rom tut.

Ey pari paykar, ko‘zimni manzari,  
Xush nashimandur dami orom tut.

Emdikim, oshiq bo‘libsen, ey ko‘ngul,  
Vasli istab tarki nangu nom tut.

Gar ko‘ngul saydi senga maqsad esa,  
Halqa-halqa sunbulini dom tut.

Vasl jomi to sening ilkingdadur,  
O‘zni yo Jamshid, yo Bahrom tut.

Sof may gar no‘sh etarsen, durdini,  
Bazli jomi rindi durd oshom tut.

Vasl aro kom istabon ey, Nodira,  
Endi o‘zni necha kun nokom tut.

\* \* \*

Har kimda agar bor esa osori muhabbat,  
Aylar anga mahbublar izhori muhabbat.

Mayxonai ishq ichra xush ul rindiki, tunlar,  
Bir jur'a uchun bor esa bedori muhabbat.

Xushdur kishi dunyo g'amin qilsa faromush,  
Lojur'a chekib sog'ari sarshori muhabbat.

Tut g'ayrdan ey xasta ko'ngul, dog'ini pinhon,  
Gar so'rsa birov aylag'il inkori muhabbat.

Rohat tilasang ishq binosini panoh et,  
Osuda erur sopi devori muhabbat.

Bolini uza bordi ayodatg'a Masiho,  
Xurshid edi charxida bemori muhabbat.

Gar ta'nai ag'yordin, ey dil, hazar etsang,  
Olam elig'a bo'limg'il iqrori muhabbat.

Tasbihi riyoil ila mag'rur edi zohid,  
Tavfiq topib bog'ladi zinnori muhabbat,

Ey Nodira, zuhd ahlini mayxonada ko'rsang,  
Dam urmaki, fosh o'lmasin asrori muhabbat.

\* \* \*

Kel dahrni imtihon etib ket,  
Sayri chamani jahon etib ket.

Bedardlaring jafolaridin,  
Faryod chekib fig'on etib ket.

Dunyo chamanin bulbulisen,  
Gul shoxida oshyon etib ket.

Ey ashk, ko'zimni maktabidin,  
Hayrat sabaqin ravon etib ket.

Olam chamaniki bevafodur,  
Bir oh bila xazon etib ket.

Ushshoq maqomi bo'stondur,  
Azmi rahi bo'ston etib ket.

Maqsad na edi jahona kelding?  
Kayfiyatini bayon etib ket.

Fosh etma ulusqa ishq sirrin,  
Ko'ngulda ani nihon etib ket.

Kel ishq yo'lida ko'zlariningi,  
Ey Nodira, durfpshon etib ket.

\* \* \*

Jon ko‘rmadi ro‘zadin halovat,  
Iftorda yorsiz na lazzat!

Yor aylasa yori birla iftor,  
Yo‘q ro‘zada mundin o‘zga davlat.

El barcha visol bazmida shod,  
To subh chekib surudi ishrat.

Har shom menga navolai g‘am,  
Iftor qilurga bo‘ldi qismat.

Mohi ramazonki, fayzi cho‘qtur,  
Men xastaga yorsiz na rohat.

Har shom ko‘zimni yoshi sham’im,  
Xuni jigarim ba joyi sharbat.

Hijron ila ro‘za javr etolmas,  
Gar yor esa, Nodira, salomat.



**G'AFUR G'ULOM**

## SOG'INISH

Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek,  
Intizor ko'zlarda halqa-halqa yosh.  
Eng kichik zarradan Yupitergacha  
O'zing murabbiysan, xabar ber, Quyosh!

Uzilgan bir kiprik abad yo'qolmas,  
Shunchalar mustahkam xonai xurshid.  
Bugun sabza bo'ldi qishdagi nafas,  
Hozir qonda kezar ertagi umid.

Xoki anjir tugab, qovun g'arq pishgan,  
Baxtli tong otar chog' uni kuzatdim,  
Bir mal'un gulshanga qadam qo'ymishkan,  
Joni bir jondoshlar qolarmidi jim!

Unda yetuk edi meros mard g'urur,  
Ostonani o'pib, qasamyod qildi.  
Ukalarin erkalab, o'zimday mag'rur,  
Ya'ni obod uyimni u dilshod qildi...

Iblisning g'arazi bo'lgan bu urush,  
Albatta, yetadi o'zin boshiga.  
O'g'lim omon kelar, g'olib, muzaffar,  
Gard ham qo'ndirmasdan qora qoshiga.

\* \* \*

Ne qilsa otamen, meros hissiyot...  
Jondan sog‘inishga uning haqqi bor,  
Kutaman, uzoqdan ko‘rinsa bir ot,  
Kelayapti, deyman ko‘rinsa g‘ubor.

Bahor novdasida bo‘rtgan har kurtak  
Sog‘ingan ko‘ngilga berar tasalli.  
Ko‘chatlar qomatin eslatganidek,  
Nafasin ufurar tong otar yeli.

Kechqurun osh suzsak bir nasiba kam,  
Qo‘msayman birovni - allakimimni,  
Doimo umidim bardam bo‘lsa ham,  
Ba’zan vasvasalar bosar dilimni.

Balki bir g‘alat o‘q yo xavf-u xatar  
Xazinai umrimdan yo‘qotdi olmos...  
Yo‘q, u o‘lmas, qadami olam yaratar,  
Hayotiy bu olam siz-u bizga xos.

Tong otar chogida juda sog‘inib,  
Bedil o‘qir edim, chiqdi oftob.  
Loyqa xayolotlar chashmaday tindi,  
Pok-pokiza yurak bir qatra simob.

O‘rog‘-u gulqaychi, istak ko‘tarib,  
Hovrimni bosishga boqqa jo‘nadim.

Hasharchi qo'shni qiz - uning sevgani,  
Ma'yus bosar edi orqamdan odim.

Bog'da sarvinozim yo'q edi garchand,  
Ko'makchim arg'uvon yoring Nafisa,  
Seni sog'inganda qildim gul payvand –  
Bu bahordan hayot olardi bo'sa.

Dur bo'lib taqilur yoring bo'yniga,  
Sadafday ko'zimda, behuda bu yosh.  
Ikkoving ikki yosh, labing labiga  
Qo'yar, vasvasamdan kuladi quyosh.

Asaldan ajragan mumday sarg'ayib,  
Ini yo'q aridek to'zg'iganim yo'q.  
Ulug' e'tiqodda o'laman qarib,  
Abaddir mendagi padariy huquq.

## VAQT

G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni  
Kapalak umriga qiyos etgulik,  
Ba'zida bir nafas olg'ulik muddat –  
Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik.

Yashash soatinining oltin kapgiri  
Har borib kelishi bir olam zamon.  
Koinot shu damda o'z kurrasidan  
Yasab chiqa olur yangidan jahon.

Yarim soat ichida tug'ilib, o'sib,  
Yashab, umr ko'rib o'tguvchilar bor;  
Ko'z ochib yumguncha o'tgan dam - qimmat,  
Bir lahza mazmuni bir butun bahor.

Bir onning bahosin o'lchamoq uchun  
Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz.  
Nurlar qadami-la chogpan sekundning  
Barini tutolmas ay(yu)hannos ovoz.

Yigit termiladi qizning ko'ziga,  
Kiprik suzilishi, mayin tabassum...  
Qo'sha qarimoqqa muhr bo'ladi  
Hayotda ikki lab qovushgan bir zum.

Yashash darbozasi ostonasidan  
Zarhal kitob kabi ochilur olam,

Tiriklik ko‘rkidir mehnat, muhabbat,  
Fursatdir qilguvchi aziz, mukarram.

Bebaho damlarning tirik joni biz,  
Har oni o‘tmishning yuz yiliga teng.  
O‘zbekning barhayot avlodlarimiz,  
Har nafas mazmuni fazolardan keng.

Qatrada osmon aks etganidek  
Jahonday ma’nodor qorachig‘imiz.  
G‘olib asrimizga quyoshdan mash’al,  
Zamon ko‘rasining so‘nmas cho‘g‘imiz.

Aziz asrimizning aziz onlari  
Aziz odamlardan so‘raydi qadrin.  
Fursat g‘animatdir, shoh satrlar-la  
Bezamoq chog‘idir umr daftarin.

Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek  
Diana ma’badin yoqmoq shart emas.  
Ko‘plarning baxtiga o‘zlikni jamlab,  
Shu ulug‘ binoga bir g‘isht qo‘ysak bas.

Har lahza zamonlar umridek uzun,  
Asrlar taqdiri lahzalarda hal,  
Umrdan o‘tajak har lahza uchun  
Qudratli qo‘l bilan qo‘yaylik haykal.

Hayot sharobidan bir qultum yutay,  
Damlar g‘animatdir, umrzoq soqiy.  
Quyosh-ku falakda kezib yuribdi,  
Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.

## SEN YETIM EMASSAN

(1941– 1945-yillar urushining  
ota-onasiz qolgan go‘daklariga)

Sen yetim emassan,  
Tinchlan, jigarim,  
Quyoshday mehribon  
Vataning – onang,  
Zaminday vazmin-u  
Mehnatkash, mushfiq,  
Istagan narsangni tayyorlaguvchi  
Xalq bor – otang bor.  
Cho‘chima, jigarim,  
O‘z uyingdasan,  
Bu yerda  
    na g‘urbat,  
    na ofat,  
    na-g‘am.

Bunda bor:  
    harorat,  
    muhabbat,  
    shafqat  
Va mehnat nonini ko‘ramiz baham,  
Sen yetim emassan,  
Uxla, jigarim.

Bu yerda muzlagan  
Ajdar halqumli  
Vahshat to‘plarining  
Qahqahasi yo‘q.  
Bu yerda – odamzod  
shaklida yurgan  
la’nati devlarning  
manfur, yuqumli,  
maraz namoyishi  
topolmas huquq.  
Ulug‘ jang kunidir,  
Jangki, beomon,  
Lashkar degan axir  
Bexatar bo‘lmas.

Otang o‘lgan bo‘lsa,  
Qayg‘urma, qo‘zim,  
Ko‘zim usti  
Minnating boshimga durra.  
Shu sog‘lom havoda  
Salomat – omon,  
Xo‘rsinmay, erkinlab  
Ola ber nafas.  
Ey, ulug‘ naslimning  
Yuragi, joni,  
Kiprigingga ilinmas  
Yig‘idan zarra.  
Sen yetim emassan,  
Uxla, jigarim.

Yetimlik nimadir –  
Bizlardan so‘ra,  
O‘ninch yillarning

Sargardonligi  
Isitma aralash  
Qo‘rqinch tush kabi  
Xayol ko‘zgusidan  
O‘chmaydi sira.  
Men yetim o‘tganman,  
Oh, u yetimlik...  
Voy, bechora jonim,  
Desam arziydi.  
Boshimni silashga  
Bir mehribon qo‘l,  
Bir og‘iz shirin so‘z  
Nondek arzanda.  
Men odam edim-ku,  
Inson farzandi...  
Sen yetim emassan,  
Uxla, jigarim.

Ko‘zimga uyquning  
Mudroq ovchisi  
To‘rin solmasdan, –  
(Birinchi gudokka  
Ikki soat bor) –  
Otalik hissining Bebaho,  
laziz To‘lqinlari ichra  
G‘arq bo‘lib ketib,  
Aziz boshing ustida  
Termulimakdaman,  
Sen yetim emassan,  
Uxla, jigarim.  
Nega cho‘chib tushding?  
Murg‘ak tasavvur,  
Go‘dak xayolingga

Nimalar keldi?  
Balki Odess dahshati,  
Kerch fojiasi,  
Yovvoyi maxluqlar,  
Qonxo'r vahshiylar...  
Mammasi kesilgan  
Sho'rlik onangning  
Pajmurda gavdasi  
Ko'zing o'ngida  
Butun dahshati-la  
Aks etar endi.  
Onang xo'rlandimi,  
Otang o'ldimi,  
Sen yetim qoldingmi,  
Qayg'urma, qo'zim,  
Ko'zim usti,  
Minnating boshimga durra.  
Ota-onasining  
Tayini ham yo'q,  
Sut ko'r qilgur, haromi  
Gitler oqpadar  
Farzandning qadrini  
Qayerdan bilsin?  
Bir qo'ng'iz mo'ylovli,  
Baroq soch mal'un,  
Jigar rang bir mundir  
Istagi uchun  
Nahotki yerimiz  
Chappa aylanib,  
Nahotki daryolar  
Oqar teskari,  
Nahotki odamlar  
Kezar darbadar?!

Axir, juda yaqin  
Qonli intiqom,  
Alhazar,  
    alhazar,  
Ko'pirar,  
    tomirlarda qon  
Va portlar hademay  
    Bu o'tli vulqon.  
Sen yetim emassan,  
Uxla, jigarim.

Sen kulayotibsan,  
Balki bu kulgi  
So'nggi oylar ichra  
    birinchi chechak.  
La'li labingdag'i  
G'uncha tabassum,  
Albat toleingga  
Muhr bo'ladi  
Va bunda aks etar  
Porloq kelajak.  
Tong yaqin,  
    tong yaqin,  
        oppoq tong yaqin.  
Bir nafas orom ol,  
Uxla, jigarim.

Oq oydin  
    tong oldi,  
Uxlamoqdasen.  
Lablaring shivirlar,  
Izlamoqdalar  
Balki bir erkalash,

Bir ona bo'sa,  
Ulug' oilaning  
go'dak farzandi,  
                bilib qo'y endi:  
Sen tezda ulg'ayib,  
Olam kezasan.  
Manglayda porlagan  
Toleing – quyosh  
Butun yer yuzini  
Qilur munavvar.  
Haqorat yemrilur,  
Zulm yanchilur,  
Jahonda bo'lurmiz  
Ozod, muzaffar.  
Sen yetim emassan,  
Mening jigarim!

## SIZGA

(O‘rta Osiyo Davlat universiteti filologiya fakultetida o‘tkazilgan kechada o‘qilgan)

Majlisda muborak yuzingiz ko‘rib,  
Shoirning domdirab qolishi mumkin.  
Qaysingiz Alisher, qaysingiz Pushkin,  
Qaysingiz Nodira, Lomonosov kim?

Xato aytmoqdaman, dono avlodlar,  
Bu majlis egasi siz o‘zingizsiz.  
Endigi olamning har bir mushkuli  
Hal bo‘lmas mo‘tabar bir so‘zingizsiz.

Siz, axir, osmonni olmoq bo‘lsangiz,  
Ne uchun yelkamni tutib bermayin.  
Aql-u balog‘atning shotularidan  
Yuksala beringiz sekundlar sayin.

Bir varaq qog‘ozga besh so‘z yozguncha,  
Ming karra o‘ylayman sizni, toki bu –  
Sizday dono bola, o‘g‘il-qizlarim,  
Bitta mo‘ysafidni qilmasin kulgu.

Siz, axir, qutlug‘ uy egalarisiz,  
Siz, axir, gulxanlar xo‘jasni o‘tdek;  
Siz, axir, gulshanlar yaratolg‘uvchi,  
Nayson tongotari qutlug‘ bulutdek.

Yerdagi baraka qadamingizdan,  
Aziz fe'lingiz-la olam munavvar.  
Siz, axir, bizlardan endigi ming yil,  
Yana ming yillarga berguvchi xabar.

Kimki o'z ko'zini siylash istasa –  
Bizning avlodlarga bir nazar solsin.  
O'qib, o'rganingiz, ijod qilingiz,  
Hamma dushmanimiz bexabar qolsin.

Sizday o'g'il-qizni ulg'aytgan Vatan  
Hamisha obod-u hamisha dilshod.  
Bizning avlodlarni tug'a olmagan  
O'zin tanigandan buyon odamzod.

Ma'rifat yarashgan peshonangizda  
Istiqlol bo'sasin aniq muhri bor.  
O'z ota-onalar siz sharpangizda  
Gerdayar, tashakkur, ya'ni shukri bor.

## SEVSAM SEVIBMAN-DA

SamDU qopqasida bir qizni ko‘rdim,  
Yetti rang tovlangan quyosh kabi pok.  
Koshkiydi o‘ttiz yil orqaga qaytib,  
Ishqimni aytsaydim qilib yoqa chok.

So‘zlarin jarangin eshitmak uchun  
Izlanib, topoldim bahona – savol.  
Samarqand tongining yeliday mayin  
Kulimsab lab ochdi, bir butun jamol:

Mayiz bozoriga chapdan borilur,  
Anjir ham shu yerda, anor ham shunda.  
Muncha ham soddasiz, muncha o‘zbeksiz,  
Yo‘l yitib bo‘larmi yop-yorug‘ kunda...

Agar-chi, qadimiyl samarqandiymen,  
Kaftim chizig‘iday hamma yer ayon,  
Bag‘rimni erkalash, muzika tinglash  
G‘oyat zarur edi – nozik bayon.

SamDU qopqasida ko‘rganim qizning  
Qaymoq mazmuniga jonim omoda.  
Samarqand mazmunli ko‘rkam yulduzni  
Sevsam sevibman-da,  
o‘zbekman,  
sodda...

## BAHOR OHANGLARI

O'rik gullarini emar bolari,  
Nasrin yaprog'ida titraydi shabnam,  
Ipak qurt tuxmida hayot asari,  
Olam nikoh oqshom bir zebo sanam.

Ilk ko'klam fayzini sovg'a solmoqqa  
Tanbur kosasida sharob kerakdir.  
Damlar mazmunini qamrab olmoqqa  
Dunyoday kattakon kitob kerakdir.

Atlasday tovlangan yonbag'ir qirlar,  
Bepoyon gul gashtin sursa necha do'st,  
O'zligin unutgan oshiq-ma'shuqlar  
Yalakat danakday qo'shmag'iz bir po'st.

Navro'zi bedana o'rganchik sayrar  
Yanglish chuchutlarda sevgi ohangi.  
Yosh irmoq sohilga tilini qayrar.  
Quyosh nusxalidir muhabbat rangi.

Tongotar ufqni loladay yirtar  
Timmag'ur mehnatning zabardast tovshi.  
Har yerda hukmron tanti va lobar  
Omonlik zamonning yenguvchi ishi.

\* \* \*

Muncha ham sog‘intirding, aziz Vatanim,  
Bodomday ming ko‘z bilan intizor tanim,  
Qanot qoqqan jo‘jaday titrab badanim,  
Ishtiyoyq hijronida qoldim, sevganim,  
Chamanlar, gulbog‘lar yodimga tushdi.

Loladan poyandoz har bir qadamda,  
Uzluksiz kulkuga doimo banda,  
Oltin tuprog‘ingni o‘pganim damda  
Nafasing sezilar edi badanda,  
Haroratli quchoqlar yodimga tushdi.

Issiq quyosh boshimdan silab o‘stirgan,  
Oyog‘imga ustingda kirmagan tikan,  
Kiprigimga qo‘ngan zarrinkor changdan,  
Alqissa, shabboda chopgan ohangdan  
Musiqaviy jumboqlar yodimga tushdi.

Baland-baland tog‘laring ming pillapoya,  
Archalar yonbag‘riga tashlaydir soya,  
Men oshiq shabbodaya, quyosha, oya,  
She‘r o‘qib, she‘r o‘qib bilonihoya  
Chuldiroq irmoqlar yodimga tushdi.

## MUHARRAM


Dunyo-dunyo gunohimni kechirgan,  
Suv deganda menga sharob ichirgan,  
Qo‘ltiq tutib shohin kabi uchirgan  
Azizimsan, jigarbandim Muharram,  
Sanalganda jigar-bag‘ring bo‘lmas kam.

Azizimsan, do‘stim, jonim, tozasan,  
Tozalikda el aro ovozasan,  
Menden boshqa tushmagan bir sozasan,  
Mehribonim, aqd-u bandim Muharram,  
Ohularni qiyg‘ir ko‘zing qilsin rom.

Rayhon, yalpiz, sunbul, jambil – barisan,  
Tola soching mazmunin anbarisan,  
Oshiq bo‘lgan kishi mendek qarisin,  
Ulug‘ Mirzo onasisan Muharram,  
Farzandlarim siynasisan Muharram.

Yulduz sonli bolalarni sen tug‘ding,  
Ba’zan havo issiq keldi, bo‘g‘ilding,  
Bir xamirdek G‘afur bilan yo‘g‘rilding,  
Bir o‘t ichra pishgan jonim Muharram,  
Go‘zallikda Shirin nomim Muharram.

Salomat bo‘lg‘aysan xonadon boshimiz,  
Quyosh bo‘lgan non kabi yo‘ldoshimiz,  
Nasibamiz sen pishirgan oshimiz,  
Men qalb bo‘lay, qalbimda qon Muharram,  
Men tan bo‘lay, tanimda jon Muharram.



**USMON NOSIR**

## YURAK

Yurak, sensan mening sozim,  
Tilimni nayga jo'r etding.  
Ko'zimga oyni berkitding,  
Yurak, sensan ishqibozim.  
Senga tor keldi bu ko'krak,  
Sevinching toshdi qirg'oqdan,  
Tilim charchar, ajab, gohi  
Seni tarjima qilmoqdan.  
Sen, ey sen – o'ynoqi dilbar,  
Zafardan izla yoringni.  
To'lib qayna, toshib o'yna,  
Tirikman, kuyla boringni!  
Itoat et!  
Agar sendan  
Vatan rozi emas bo'lsa,  
Yoril, chaqmoqqa aylan sen,  
Yoril! Mayli, tamom o'lsam!..

## MONOLOG

Sevgi! Sening shirin tilingdan  
Kim o‘pmagan, kim tishlamagan?  
Darding yoyday tilib ko‘ksudan,  
Kim qalbida qonlar to‘kmagan?

Seni yaxshi bilaman, go‘zal  
Petrarkani o‘qiganim bor,  
Buyuk Rimning Sapfosi azal  
Xayolimni oshiqday tortar.

Bilamanki, Tasso bechora  
Rohat ko‘rimay o‘tgan bir umr.  
Ey,makkora qiz, Leonora,  
Nomi qora bilan yozilgur!..

Balki, guldan yaralgan pari,  
Tosh ko‘ngilli Biatriche –  
«Gadosan!» deb qochmasa nari  
Dante baxtli bo‘lardi picha?!

Balki Hamlet oydin tunlarda  
Ofeliyani erkalatardi,  
Balki uzun sochini silab  
Azongacha ertak aytardi.

Agar xiyonatni bilmasa,  
Yozmasa fofia yuragin!

Yo‘q, yo‘q, shoir! Gar shunday bo‘lsa  
Shekspirning yo‘qdir keragi!

Dezdemona, gunohsiz dilbar,  
Jigar qonlaringni ichgan kim?  
Bilaman — Otello, bilaman...  
Otello haqlimi?.. Shoir jim!..

Jim!.. Ufqdan botar quyoshni  
Shart kesilgan boshga o‘xshatdim.  
Parcha-parcha kuygan shafaqlar  
Tirqiragan qonni eslatdi!

Qanday qo‘rqinch! Qanday qabohat!  
Mumkin emas hech qiynalmasdan!  
Aqlidan ozganmi muhabbat?  
Mumkin emas, qarshi turmasdan!

Mumkin emas, ey olivjanob,  
Necha yurakni aylab xarob,  
Shohona toj kiygan muhabbat,  
Mumkin emas! Qanday qabohat,

Ki, odamning o‘zinginamas,  
Hissini ham xarob qilsa davr!  
Qiynalaman!.. Yuragimda hovr —  
Bu qarshilik! Yon! Gina emas.

Bu qarshilik! Ko‘ring tarixni —  
Parvonadek qanoti kuygan.  
Bu qarshilik! Ko‘ring tarixni —  
Umr tepasida musht tuygan...

Qiynalaman vijdon bilan man –  
Mumkin emas qarshi turmasdan  
O‘z zimmamga katta ish oldim;  
Ehtimolki, tamom qilmasdan –

Umrим тугар. Ammo bo‘lmaydi  
(Ko‘nglim o‘rniga hech tushmaydi!)  
Senga qarshi bosh ko‘tarmasdan,  
Asrlarni yig‘latgan sevgi!

## DENGIZGA

Oq dengiz, yaxshi qol! Yaxshi qol, Shimol!  
Ko‘nglimda ishqingni olib qaytaman.  
Sochimni o‘ynaydi muzdek sho‘x shamol,  
Men unga dardimni qanday aytaman?

Kechqurun qirg‘oqda aylanib tanho  
Sevdim, sevib qoldim to‘lqinlariningni.  
Oyni cho‘miltirgan tinch tunlaringni  
Tushimda ko‘rganda ne qilarman, o?

O‘ynagil so‘ng marta, chayqal, erkalan!  
Armonim qolmasin ketar oldimda.  
Bag‘ringda baliqday yuzgan oq yelkan

Bir umr sayr etgay mening yodimda...  
Yaxshi qol, erkin suv! Yaxshi qol, dengiz!  
To‘lqinlar, qo‘ynimga qizday kirdingiz.

## DENGIZ OYNA KABI

Dengiz oyna kabi yaltirar,  
To'lqinlarga suqim oqadi.  
Oqqush mungli-mungli oh urar,  
Hazin kuyi dilga yoqadi.

O'tiraman – ko'nglim osuda,  
Boshim uzra barglar shitraydi.  
Soyałari limmo-lim suvda  
Tanga-tanga bo'lib titraydi.

Qanday yaxshi, kechqurun yolg'iz  
Yursang, ko'ngil asti to'ymasa,  
Oy go'yoki parishonxol qiz,  
Sochlarni yozib o'ynasa...

## YURGANMISIZ BIRGA OY BILAN

Yurganmisiz birga oy bilan  
Oqshom payti ko‘m-ko‘k o‘rmonda?  
Maysalarga shabnam qo‘nganda,  
Shunday yaxshi tinch bo‘lar ekan.

Shitir-shitir o‘ynar shabboda,  
Barglar musiqasi bir shirin...  
Havo go‘yo tiniq, sof boda —  
Ko‘ngil sezar hayotning sirin.

Men mast bo‘lib qoldim bu kecha,  
Sil o‘pkamni ancha yayratdim.  
Uxlamasdan to tong otguncha  
Dilginamni rosa sayratdim.

## BOG'IM

O, u qanday fusunkor!  
Nur bilan to‘lgan butun  
Gullari chaman-chaman,  
Men ularni ichaman:

Ko‘nglimda yashnar bahor...  
Nur bilan to‘lgan butun.  
Bargdek uzilib ketsam,  
Unutmas meni bog‘im:

Ishimni hurmat qilur,  
Gullardan haykal qurur.  
Ming yillardan keyin ham  
Unutmas meni bog‘im!

She’rlarim yangrab qolur –  
Bir umrga o‘lmayman!  
Hayotimning davomi –  
Kelajagimga homiy,

O‘nimga bog‘bon bo‘lur –  
Bir umrga o‘lmayman!  
O, u qanday davomdor!  
Nur bilan to‘lgan butun.

Gullari chaman-chaman,  
Men ularni ichaman:  
Ko‘nglimda yashnar bahor...  
Nur bilan to‘lgan butun.

## YANA SHE'RIMGA

She'rim! Yana o'zing yaxshisan,  
Boqqa kirsang, gullar sharmanda.  
Bir men emas, hayot shaxsisan,  
Jonim kabi yashaysan manda.

Yuragimning dardi – naqshisan,  
Qilolmayman seni hech kanda!  
O't bo'lurmi ishq yo'q tanda?  
Dardimsanki, she'rim yaxshisan.

Sen orada ko'prik bo'lding-da,  
Geyne bilan o'rtoq tutindim.  
Lermontovdan ko'mak o'tindim.

Butun umrim sening bo'yningda.  
Saharda qon tupursam, mayli.  
Men – Majnunman, she'rim, sen – Layli!

\* \* \*

Gulzor – chaman. Yur bog‘larga  
Eltay yetaklab.  
Binafshalar terib beray  
Senga etaklab...

Chakkangga taq! To‘lib tursin  
Oydek yuzlaring.  
Kundai yorug‘, tunday qora  
Ekan ko‘zlarin.

Tingla, erkam, o‘rtog‘imsan,  
Ko‘nglimni ochay.  
Qonim she’r bo‘lib oqsin-da,  
Men qayta ichay.

Istaymanki, oqar qonim  
Tamom bo‘lmashin.  
Istaymanki, sevar yorim  
Tashlab ketmasin.

Chunki do‘stlik mehri bilan  
Shodligim o‘sar.  
U har qachon yonboshimda  
Soyamday yurar.

U, sen, qo‘zim. Yur bog‘larga  
Eltay yetaklab.

Binafshalar terib beray  
Senga etaklab.

Bu shoir, deb, yengil, deb  
Asti o‘ylama!  
O‘pgan o‘pichlarim haqqi,  
Ishontiraman.

Agar, darkor bo‘lsa har choq,  
Chorlasa Vatan,  
Qo‘lyozmalarimni tashlab  
Shinel kiyaman.

O‘z jazomni o‘zim beray,  
Azob-la o‘lay...  
Yo‘q!..Hamdam bo‘l, qo‘limdan tut,  
Janglarga kiray!

\* \* \*

Ilhonimning vaqt yo‘q, selday keladi,  
Jalloddek rahm etmay dilni tiladi...  
Ayondir: bir kuni aylaydi xarob...  
Mayliga. Mehrimni, go‘yoki sharob –  
Shimirdim. Yashayman, tilsin dilimni.  
Bemehnat sevmayman tirik tilimni.

---

## YO'LCHI

Yo'lichiman, manzilim dengizdan nari,  
Lojuvard ufqning tubiga yaqin.  
Ko'nglimda dardlarim daryodek oqin,  
Chayqalar ko'zlarim tikilgan sari.  
O, yo'llar!

Chu, qora toychog'im! Chu, qora yo'rg'am!  
Murodga qasd qilib yugurgan yetur.  
Bo'ronni sevmasa, dil nechun tepur?  
Tiriklik ne kerak bemehnat, beg'am?!

\* \* \*

Yur tog‘larga chiqaylik,  
Mayli, yur!  
Eh...qandayin chiroylilik,  
Oppoq nur...

Olmos kabi oppoq qor  
Yaltirar.  
Nega muncha dil oqar,  
Qaltirar?

Bilasanmi, yoshlik bu  
To‘ymagan!  
Tinim bilmas, go‘yo suv  
O‘ynagan...

Shunga o‘ta chiroylilik  
Ko‘rinur...  
Yur, tog‘larga chiqaylik.  
Mayli, yur!

## NASIMAGA DEGANIM

Yo'q, hali hammasi o'tganmas,  
Ko'p hali hayotda nasibam.  
Silligim bezarar, hech gapmas,  
Borini ko'raman, Nasimam,  
Yo'q, hali hammasi o'tganmas!

Oldimda kutadir imtihon –  
Men og'ir janglarda bo'larman.  
Nasima! Bu kungi issiq qon,  
O, balki to'kilur...o'larman...  
Oldimda kutadir imtihon!

O'ylanib, ko'zingga qarasam,  
Ikkita dengizday ko'rinur...  
Nasima! Ichaman rost qasam,  
Olovdek lovullab dil yonur,  
Baxtliman, janglarga yarasam!

## NIL VA RIM

(Tarix kitobidan)

### I

Lampam yonur... Yaralangan qanotday og‘ir  
O‘y bosadi. Yuragimda go‘yo sel yog‘ir.  
Qiynalaman. Tirishaman. Hushim parishon  
O‘tmish, hozir va kelajak ko‘rinur har on.  
Tirishaman, butun kuchim ko‘zimga kelar,  
Chirog‘imga parvonadek urinar yillar –  
To‘rt atrofim to‘lib ketar kuygan qanotga...  
Xayolimda: katta sahro, men minib otga –  
Shamoldan tez, bulutlardan yengil chopaman;  
Kuyib tushgan har qanotdan bir jon topaman.  
Termilaman o‘lik ko‘zga (nega qo‘rqayin?)  
Barchasidan o‘yib olib ko‘zining oyin –  
Termilaman: qichqiradi yillar, odamlar,  
Eshitilar menga ular bosgan qadamlar...

### II

Sariq qumlar orasidan qon rangli quyosh –  
Ko‘tarilar. Nil oqadir – qullar to‘kkan yosh.  
Faryodlarga chidolmaydi yer bilan osmon,  
Ra qayerda? Azirisa? Qiynaydi Tifan!  
Kimga yig‘lab, kimdan madad kutsin bemor qul?

Erki qulfdir, hayoti qulf, bor xudolar qulf!  
Kosasida suv yo‘q, quruq xaltasi: non yo‘q!  
Botayotgan quyosh kabi rangida qon yo‘q.  
Ko‘zida ko‘z yo‘q, belida bel yo‘q, hayhot!  
Fir‘avn uni chumoliday ezadi: voy dod!..  
Fir‘avnning hukmi qattiq, fir‘avn – xo‘jayin,  
Xudolarga u manzurdir, hayoti tayin.  
Neki qilsa, o‘zi bilur, o‘zi hukmron,  
Misr bo‘ylab Nil oqadur – «qullar to‘kkan qon!»

### III

To Minesdan Ramzesgacha, Ramzesdan nari  
«Malika qiz» – Kleopatra hukmron davri.  
Undan tortib... yana uzoq, yana ko‘p yillar  
Xarsang bilan yotqizilgan necha ming yo‘llar.  
Ko‘zyoshidan, dil toshidan qurilgan haykal  
Mag‘rur turar, mag‘ur boqar; hech biron mahal  
Na odamdan, na zamondan qo‘rqmas asti u.  
G‘azabini yutib o‘lgan qullar dasti bu!  
Qullar... (Menman u qullarning o‘lmas avlodi,  
Mana menman, u qullarning hech so‘nmas yodi,  
Mana menman, falaklarga lov-lov o‘t qo‘yib,  
Otalarimning boshidan poydevor uyib,  
Ozodligim obidasin qurgan insonman!  
O‘scha jonman, o‘scha qonman va o‘scha shonman!)

### IV

Otim uchar (xayolimda) oldinga doim,  
Avval bahor osmonidek yig‘lar gado Rim.  
Emchagida bir tomizim suti yo‘q ona  
Go‘dagini tosh ostiga bostirdi, ana!

O‘lim yaxshi, odam agar shunday xor bo‘lsa!  
Bir parcha non nima o‘zi! Shunga zor bo‘lsa!  
Nahot, chaqmoq yondirmaydi butun ochunni?»  
Kul gardiday umr – tog‘day kulfat uchunmi?  
Javob bergen menga, zaki qadimgi Homer ,  
Ko‘zyoshi-yu qonga rostdan tashnami bu – yer?  
Qo‘y, yaxshi chol! Ko‘nglim to‘ldi, gaplashamiz  
so‘ng,  
Bu nimasi? Eshitasanmi, og‘ir, hazin mung?  
Hamon yig‘lar yalang‘och Rim, hamon dil ezar,  
Hamon tilla qadahda qon ichar Sezar!

## V

Rim ustida shamsiyadek tumanli osmon,  
Katta sirkka sig‘ishmasdan qaynar olomon:  
«Odam bilan hayvon o‘yin ko‘rsatar emish...»  
(Bunday qiliq bizning uchun qandayin erish!..)  
Tishlarini iljaytirib bo‘kirgan yo‘lbars  
To‘rt tarafga tashlanadi, talpinib lars-lars.  
Och ko‘zları qonga to‘lgan, sakrab o‘ynaydi...  
O, bechora, qoch! U seni tirik qo‘ymaydi!  
Ana! Ana, tirmog‘ini nishlab kelar u,  
Changal soldi! Xalq o‘rnidan birdan turdi duv...  
Chapak chaldi. «Ey, ahmoq Rim, sevinma qonga!  
Bundan boshqa xo‘rlik bormi, axir, insonga?» –  
Dedi, parcha-parcha bo‘lgan gladiator.  
Rim – o‘yindan o‘lim kiitgan jinni teatr!

## VI

Issiq izlar... hamon u isyondan is bordek,  
Bulutlarning orasinda yurar Spartak .

Osmon — qalqon, kamon yoyi – chaqmoq, yonar o‘t,  
Zulm uchun yig‘i, fig‘on va erksizlik sud».  
Javob bersin. Aflatunmi, Vergiliymi, yo –  
Boshqa biri, qani kim? Kim mard? Kim guvoh?  
Ki, tun qancha qora bo‘lsa, oy shuncha yorug‘!  
Spartakning lashkarlari hali ham borur.  
Mana menman, u isyonning o‘lmas avlodni,  
Mana menman, u quyllarning hech so‘nmas yodi.  
Mana menman, falaklarga lov-lov o‘t qo‘yib,  
Otalarimning boshidan poydevor uyib,  
Kelajagim obidasin qurgan insonman!  
O‘scha jonman, o‘scha qonman va o‘scha shonman!!!



\* \* \*

Hayot hali mening oldimda,  
Aqlim o'sar, fikrim yuksalar.  
Ammo, ko'rganlarim yodimda,  
Hammasi ham butunlay qolar.

O'sha paytda qaysisi kulgi,  
Qaysi biri berar hayajon.  
Bu she'rimning boisi shulki:  
Fikr – bola, bola – o'suvchan!

## BOLALIGIMGA

---

## **MUNDARIJA**

### **Lutfiy**

Sensan sevarim.....3

### **Alisher Navoiy**

Qaro ko'zim.....123

### **Nodira**

Muhabbat ixtiyor et.....171

### **G‘afur G‘ulom**

Umrizmizboqiy.....211

### **Usmon Nosir**

Yurak, sensan mening sozim.....229

*Adabiy-badiiy nashr*

## **ADABIYOT XRESTOMATIYASI**

**LUTFIY  
ALISHER NAVOIY  
NODIRA  
G'AFUR G'ULOM  
USMON NOSIR**

**27 jild**

G‘oya muallifi va loyiha rahbari *Laziz Tangriyev*  
To‘plovchi va muharrir *Sanjar Tursunov*  
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirsayozov*  
Texnik muharrir *Xosiyat Xasanova*  
Musahihli *Dono To‘ychiyeva*  
Kompyuterda sahifalovchi *Umida Valijonova*

Nashr. lits. AI № 290. 04.11.2016 y  
Bosishga 2018-yil 5-sentabrda ruxsat etildi.  
Bichimi 84x108 1/32 Times New Roman garniturası.  
Ofset bosma. 13,44 shartli bosma toboq. 6,81 nashr tobog‘i.  
Adadi 3000 nusxa. 480-raqamli buyurtma.  
Bahosi shartnoma asosida.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining  
G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa  
ijodiy uyida chop etildi.  
100128. Toshkent. Labzak ko‘chasi, 86.

*Telefon:* (371) 241-25-24, 241-48-62, 241-83-29  
*Faks:* (371) 241-82-69  
[www.gglit.uz](http://www.gglit.uz) [info@gglit.uz](mailto:info@gglit.uz)

KITOB - AQL CHIROG'II

## G'AFUR G'ULOM

nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi

Siz aziz o'quvchilar uchun **44** ta kitobdan  
iborat

ADABIYOT

XRESTOMATIYASI

seriyasini taqdim etadi.

Endi Siz ushbu seriya ostida nashr  
etilgan kitoblar orqali 5-9-sinf darsliklariga  
kiritilgan barcha adiblarning asarlarini to'liq  
shaklda o'qishingiz mumkin.



ISBN 978-9943-5209-8-1

9 789943 520981